**Nazariy kvalimetriyada** aniq, obyekt loyihalanadi (abstraktsiyalanadi) va uning sifat ko'rsatkielarining umumiy qonuniyatlari va matematik modellari o'rGANiladi. Nazariy kvalimetriyaning tadqiqot obyekti jism, ishlab chiqarish mahsulotlari, obyekt va subyektlarning sifatini miqdoriy baholashning falsafiy va metodologiya asoslarini ishlab chiqish sanaladi. Nazariy kvalimetriyaning amaliy sohalarida turli obyekt va jarayonlarning sifatini baholash metodikasi va nazariy asoslar umumiy xususiyatga ega.

**Maxsus kvalimetriya** turli xildagi va har xil maqsadda foydalaniladigan aniq obyektning sifatini baholashning aniq metodikasi va matematik modelini ishlab chiqadi. Mahsus kvalimetriyaning ekspert, ehtimollik-statistik, indeksli kvalimetrik taksonomiya kabi turlari mavjud.

**Amaliy kvalimetriya** - texnika, ishlab chiqarish, inson mehnati faoliyati, turli loyiha va jarayonlarning sifatini baholashni ishlab chiqadigan soha sanaladi. Amaliy kvalimetriyaning boshqa fanlar bilan uzaro bog'lanib, texnik kvalimetriya, ijtimoiy kvalimetriya, pedagogik kvalimetriya, tibbiy kvalimetriya, geologik kvalimetriya va hokaza tarmoqlari mavjud. Bozor iqtisodiyoti davrida mahsul ot (buyum, xizmatlar, jarayonlar)ning raqobatbardoshligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

U yoki bu buyum, xizmatlar, jarayonlarga extiyoj bulishi uchun muayyan xususiyatlarni u'ida mujassamlashtirish, maqsadga muvofiq bo'lish, belgilangan vazifalarni bekamu-ko'st bajarish kabi qiymatga ega bo'lishi lozim. Ishlab chiqarish mahsulotlari va jarayonlarda mazkur belgilarning bo'lishi ular sifatining miqdoriy baholash imkonini beradi. Xalqaro tajribalar buyum, xizmatlar, jarayonlarning yuqori sifatli bo'lishiga erishish uchun ulariing sifatini aniqlaydigan ilmiy, texnik va tashkiliy mezonlar ishlab chiqilishi lozimligini ko'rsatdi.

Muayyan obyekt yoki jarayon borishi, xizmatlar, jarayonlar sifati etalon sifatida qabul qilingan modelning mezonlari bo'yicha o'lchash va olingan

taqqoslash orqali baholash amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda kvalimetriya buyum, xizmatlar, jarayonlarning sifatini baholash masalalarini o'rganadi. Bu jarayokda kvalimetriyaning asosiy metodlari: tahlil, sintez, qaytarish va taqqoslash sanaladi. Etalon sifatida qabul qilingan modelning sifat ko'rsatkielari asosida baholanayotgan obyektning xususiyatlari hisobga olingan holda unig sifati aniqlanadi.

Kvalimetriyaning amaliy tarmog'i bo'lgan pedagogik kvalimetriya kadrlarni tayyorlashda malaka talablari etalon sifatida qabul qilingan bo'lib, pedagogik kadrlarning kasb malakasi va pedagogik mahorati sifati taqqoslash orqali o'rganadi. Raqobatbardosh pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida mazkur jarayoni maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarishni rejalashtirish, uquv jarayonini modernizatsiyash, mazkur jarayonni metodik va texnik jihatdan o'minlashni talab etadi.

Pedagogik kvalimetriya yillar davomida to'plangan tajribalar, dalillar asosida vilaydu kelgan va shakllangan ilmiy-nazariy fan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan pedagogik innovatsiya va unta bog'lik holda o'qituvchining pedagogik faoliyatini yaxlit o'rganadi.

Pedagogik kvalimetriya ko'p qirrali pedagogik jarayon va unga bog'liq holda o'qituvchining pedagogik faoliyatini o'rganib, pedagogika fanlari sohalari ichida eng muhim o'r'in tutadigan, lekin kam o'rganilgan soha sanaladi. Shuni qayd etish kerakki, pedagogik kvalimetriya pedagogik jarayon va o'qituvchining pedagogik faoliyatining sifatini belgilaydi.

Pedagogik kvalimetriyaning metodologik muammolari shu kunga qadar ilmiy iqtisodchilarning diqqatidai chetda qolgan va bu sohadagi muammolar o'z yechimini kutmoqda. Adabiyotlar tahlili, pedagogik kvalimetriyaning metodologik asoslari jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi, ta'lim muassasalarini oldiga qaytarishidan davlat va ijtimoiy buyurtmalarga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, uning metodologik asoslarini yuzasidan amalga oshirilgan ishlar jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishining mantiqiy birligi qonuniyatini aniqlashda rivojlanganligini ko'rsatdi.

Pedagogik kvalimetriyaning tadqiqot obyekti davlat va ijtimoiy buyurtmalari zimmasiga yuklangan ta'lim muassasasinig mazkur buyurtmalarni bajarish maksadida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, taxsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etilishi va boshqarilishi, o'qituvchi pedagogik faoliyatining maksadga muvofiq tashkil etilishi sifatini nazorat qilish va baholash sanaladi. Pedagogik kvalimetriyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixini shartli ravishda uch davrga bo'lib o'rganish mumkin:

1.Antik davr va o'rta asrlarda rivojlanishi, ya'ni xali ilmiy asoslanmagan, empirik rivojlanish davri.

2.XVI asr va XIX asrning oxirigacha bulgan davr, ta'lim-tarbiya jarayonining sifati bo'yicha dastlabki tasavvurlar paydo bulgan davr.

3.Pedagogik kvalimetriyaning yangi va eng ya'ni rivojlanish davri, ya'ni ilmiy asoslangan metodologik asoslari aniqlangan, nazariy, maxsus va amaliy tarmoqdariga chga ilmiy ulchov parametrlariga ega davri.

Pedagogik kvalimetriya rivojlanishining mazkur davrlarga ajratilishida jamiyat, din va fan rivojining ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'rsatgan ta'siri, shuningdek, liniy ta'lim, diniy-dunyoviy ta'lim, dunyoviy ta'lim paradigmalarini asosida ta'lim-tarbiyaning tashkil etilishi nazarda tutilgan. Har bir ta'lim paradigmasi ilmiy-nazariy bilish, ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari, ularga mos holda tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatidan erishiladigan natijalarni baholash me'yorlariga ega bo'lgan.

Antik - davr va O'rta asrlarda rivojlanishi, ya'ni xali ilmiy asoslanmagan, empirik rivojlanish davri ta'lim muassasalarining asosiylarini vazifasi tahsil oluvchilarning ongiga tabiiy, falsafiy, shuningdek, diniy mazmundagi bilimlarni yetkazish sanalgan.

Asosiy e'tibor jamiyatni barqarorlashtirish jamiyat a'zolari tomonidan diniy savodxonlikni egallashlariga qaratilgan. O'sha davrda oliy ta'lim muassasalarining shakllapish jarayoni bog'lanishiga to'g'ri keladi va u ta'lim muassasalarida ixtiyoriy ravishda 7 ta san'at yo'nalishini o'rganish yo'lga qo'yilgan. Mazkur san'at yo'nalishini o'rganish jamiyat a'zolarining ma'naviy -

tilingly, aqly, jismoniy rivojlanishi, estetik did, ekologik qarashlarning vujudga kelishiga zamin tayyorlagan.

O'rta asrda yashagan allomalar tomonidan o'sha davrning ta'lim muassasalarining tu'limiy maqsadi sifatida tahsil oluvchilarning intellektual va jismoniy barkamolligini ta'minlash, mantikiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib ishlash belgilaganliklari bois ta'lim - tarbiya jarayonida tahsil oluvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish barobarida o'qitish jarayonida vujudga kelishiladigan muammoli vaziyatlarda muammolarni aniqlash, tahlil, sintez, hisoslash, qlyoslash, umumlashtirish va xulosa yasash kabi aqliy operatsiyalarni hisorish ko'zda tutilgan. Shu tarzda tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pinvard natijasi sifatida jahon sivilizatsiyadan munosib o'rin olgan kashfiyotlar yaratilgan, lekin, tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar og'zaki savol-javob va suhbat orqali nazorat qilingan va baholangan. Ta'lim-tarbiya jarayonining yakuniy natijasi og'zaki savol-javob va suhbat orqali nazorat qilingan ko'zlangan natijani bermaganligi sababli, nazoratning keng qamrovli va muvofiq shakl va vositalarini ishlab chiqish zarurati vujudga keldi.

XV asr va XIX asrning oxirigacha bo'lgan davr, ta'lim-tarbiya jarayonining bo'yicha dastlabki tasavvurlar paydo bo'lgan davrda ta'lim-tarbiya jarayonining yakuniy natijasi va o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini baholash yasidak muayyan izlanishlar olib borilgan, lekin mazkur izlanishlar ko'zlangan natijani bermagan. Atoqli pedagog Ya.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" nomida didaktik kategoriyalar, o'qitish maqsadi, ta'lim mazmuni, bilimlarni nazorat qilish, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini belgilash didaktik jihatdan surʼanligan. Olim tomonidan pedagogika faniga yangi atama va tushunchalar "Bilimlarni nazorat qilish va baholash", "Imtihon", "Kollokvium", "Diktant" kiritildi.

Ma'lumki, o'qitish jarayonini baholashda yakuniy natija sifatida tahlil oluvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarga asoslanadi. Ta'lim muassasalarining yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash sifatini iftirish maqsadida besh balli baholash tizimi yo'lga qo'yildi.

## *Pedagogik kvalimetriyaning yangi va eng yangi rivojlannish davri*

XX asrning boshlarida ta'lim muassasalarini pragmatik pozitsiyada, ya'ni tahlil oluvchilar tomonidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni va keyinchalik kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholash yo'lga qo'yilgan. O'sha davrda Rossiya ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni g'oyaviy-siyosiy yo'nalihsiga urg'u berilib, ta'lim-tarbiyaning uzviyligiga asoslangan nazariy tizni yo'lga qo'yilgan va nazariy reproduktiv bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va ta'lim-tarbiyanish yakuniy natijasi sifatida har tomonlama rivojlangan shaxsnii shakllantirish nazarda tutilgan.

Pedagogik kvalimetriyaning eng yangi rivojlanish davrida tahlil oluvchilar shaxsiga yunaltirilgan ta'lim paradigmasi maydonga chikdi. Shaxsga yunaltirilgan ta'lim asosida umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirilgan, tahlil oluvchi shaxsning qiziqishlari, extiyojlari, ichki va tashqi o'quv motivlari e'tiborga olingen holda ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish nazariysi turadi.

Ushbu paradigma asosida pedagogik kvalimetriyada, shuningdek, ta'lim - tarbiya tizimida ijobji o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Ular jumlasiga:

- ta'lim tizimida hukmronlik qilayotgan shaxsning ijtimoiylashuvi va moslashuviga asoslangan frontal ta'lim-tarbiya jarayon dan o'qitish maqsadlarini amalga oshirishga imkon beradigai shaxsning individual rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga o'tish;

- tahlil oluvchilarni nafaqat ilmiy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasdan, balki umummadaniy, umuminsoniy qadriyatlar asosida nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib tontirishga e'tiborni qaratish;

- majburiy o'qitish shakllari bilan birgalikda tahlil oluvchilarni mustaqil ta'lim ofish va mustaqil tayyorgarlikka yo'llash;

- ta'lim mazmunidagi bilimlar, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribalari va qadriyatlarni tarkib toptirishda saqat o'quv kurslarining nazariy masalalari bilan emas, balki integrallashgan mazmun, fanlararo bog'lanish modullar tizimidan foydalanishga o'tish;

O'qitishning reproduktiv metodlari va an'anaviy texiologiyalari bilan bir qisorda tahlil oluvchilarining ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlanishiga imkonini beradigan innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalananish:

- ta'lim - tarbiya jarayonining yakuniy natijasini nazorat qilish va baholashda bilim, ko'nikma va malakalar paradigmasidan voz kechib ta'lim tizimini modern texnologiyalarning istiqbolli yo'naliishi sifatida qabul qilingan kompetentsiyalarni nazorat qilish orqali shaxsning rivojlanganlik va tarbiyalanganlik darajasini aniqlashni yo'lga qo'yish zarurligi kiritilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritilishi nazarda tutilgan ijobji o'zgarishlar o'z naybatida tahlil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyasini baholash jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

*Pedagogik kvalimetriyaning jan sifatida quyidagi kontsentual asoslari mayjud:*

- 1. Pedagogik kvalimetriya uzlusiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, tahlil oluvchilarning o'zlashtirish darjasini va sifati, pedagogik kadrlarning kasbiy malaka darajasini aniqlash va umumlashgan xulosa yasash imkonini yaratadi.

- 2. Pedagogik kvalimetriya tadqiq etilayotgan obyektning sifat ko'rsatkichini dinamik kategoriya sifatida qabul qiladi va kelgusida zamon bilan hamnafaslik, ushlashiyligi ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan davlat va ijtimoiy buyurtmachalar asosida ushbu sifat ko'rsatkichi darajasining ortishini nazarda tutadi.

- 3. Pedagogik kvalimetriya o'zaro uzviy va uzaro bog'langan ikkita soha mazkur kvalimetriya va amaliy kvalimetriya yutuqlari asosida shakllangan va bu sifatida rivojlanib boradi.

- 4. Pedagogik kvalimetriya bo'lajak pedagogik kadrlarning pedagogik faoliyatga inayotga beradigan malaka talablariga mosligi, uzlusiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kasbiy malakasi, mazkur funqsiyedagi tashkil etiladigan ta'lim - tarbiya jarayonining sifatini aniqlaydi.

5.Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari, kasbiy kompetentsiyasi (layoqati)ning DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarga mosligini nazorat qiladi.

6. Oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan mavjud kafedralarning pedagogik kadrlar tayyorlash sifati o'quv rejadan o'rinni olgan kurslarning moddiy-texnik bazasi va didaktik ta'minoti sifatini belgilangan tartibga muvofiq reyting asosida nazorat qiladi va baholaydi.

### Pedagogik kvalimetriyaning maqsadi va vazifalari

Pedagogik kvalimetriya fan sifatida quyidagi maqsadlarga erishish yo'llini belgilaydi:

1.Ta'lim xizmatlarining istiqbol rejalarini shakllantirish bosqichida ta'lim davlatimizning ijtimoiy sohadagi ustuvor yo'nalish ekanligi nazarda tutilgan holda, axborotlar globallashgan, dunyoda sodir bo'layotgan g'oyaviy-siyosiy o'zgarishlar, jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim muassasalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, jamiyat hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy yaigilanishlarni e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonining zamoy talablariga mos tashkil etilishini nazorat qilish imkonini beradigan me'yoriy talablarni ishlab chiqish;

2.Ta'lim - tarbiya jarayonining huquqiy-me'yoriy hujjatlarini yaratish bosqichida davlat va ijtimoiy buyurtmalarga asoslangan DTS, pedagog kadrlarga qo'yiladigan malakaviy talablar asosida namunaviy o'quv rejalar, uzlusiz ta'lim tizimida joriy etilgan modernizatsiyalashtirilgan va uzviylashtirilgan namunaviy dasturlar, o'quv kurslarning moddiy - texnik, o'quv - metodik ta'minotining maqsadga muvofiqligini nazorat qilish va sifatini baholash yo'llarimi ishlab chiqish;

3.Oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan tapabalarning modernizatsiyalashtirilgan va uzviylashtirilgan namunaviy dasturlar, DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma, malakalari va layoqatini amalga joriy etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim - tarbiya jarayoni, o'quv va pedagogik amaliyotning sifatini nazorat qilish va baholash me'yorlarini shakllantirish;

4.Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarinn ish bilan ta'minlash, ularni pedagogik jarayonga moslashgirish, pedagogik faoliyatning talab darajasida olib borish, ustoz-shogird yo'nalishida olib borilayoggan ishlarning mazmun-muhiyatini tahlil qilish va baholash me'yorlarini ishlab chiqish.

### Pedagogik kvalimetriyaning fan sifatidagi asosiy vazifalari:

ta'lim to'g'risidagi Qonun, Davlat dasturlari, Prezident Farmoni va farmoniyashlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish mezonlarini ishlab chiqadi;

ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiyalash jarayonining me'yoriy hujjatlar va reyting tizimini talablarini aniqlaydi;

ta'lim muassasalarini tarkibidagi kafedralarning ilmiy salohiyati, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlari tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini aniqlash mezonlarini belgilaydi;

pedagoglarning pedagogik faoliyati, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlari, o'qitishdigan kurslarning moddiy-texnik, o'quv-metodik majmualarining sifatini aniqlash ko'rnatichilarini zamon talablariga moslashtiradi;

fanlar bo'yicha ta'lim oluvchilarning DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish, kompetentsiyalarni tarkib topganlik darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha standart va nostandard test topshiriqlarini tuzadi.

### 6.3.Pedagogik kvalimetriya fanining nazariy – metodologik asoslari

#### Pedagogik kvalimetriya faniga metodologik yondashuvlar

Uzuksalz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri ta'lim - tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish sanaladi. Avvalo, innovatsiya yaratishning ma'nosini tahlil qilish lozim.

**Innovatsiya** - inglizcha so'zdan olingan bo'lib, *in* — kiritish, *novatsiya* — yangilik, degan ma'noni beradi. O'qitishda innovatsion muhitni yaratish o'qituvehdidan ko'p qirrali izlanish va amaly faoliyatni talab etadi.

Respublikamizda uzlusiz ta'limni joriy etish jarayonida ta'lim mazmuni yangilandi.

O'quv dasturlari va o'quv fanlari bo'yicha DTS modernizatsiyalandi. Ushbu jarayon ta'lim - tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari:

o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyashni talab etmoqda.

Zamon bilan hamnafas pedagogik faoliyag yuritayotgan moderator o'qituvchilar yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o'qitishda interfaol metodlar, pedagogik va axborot - kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalarni egallamoqda. Respublikamizda joriy etilgan uzlusiz ta'lim tizimiga innovatsiya quyidagi yo'llar orqali tatbiq etilmoqda:

\*axborot va kommunikatsion texnologiyalar - texnologik innovatsiyalar;

\* ta'lim - tarbiya jarayonining mazmunini yangilash, uning borishi va o'quvchilarning bilish faoliyatini faollantiruvchi texnologiyalar - pedagogik innovatsiyalar;

\*ta'lim sohasidagi zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar - iqtisodiy innovatsiyalar;

\*ta'lim sohasidagi zamonaviy tuzilmalar - tashkiliy innovatsiyalar;

Ma'lumki, yuqorida qayd etilgan innovatsiyalar ta'lim-tarbiya jarayoniga kompleks holda joriy etilishi o'qituvchidan muayyan metodik bilim, ko'nikma va malakalar. shuningdek, pedagogik kompetentlik(layoqat)ni talab etadi. O'qituvchining zamonaviy metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi. Shuningdek, pedagogik kompetentlik(layoqat)ning mavjudligi uning o'z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsnı voyaga yetkazishni nazarda tutishiga asos bo'ladi.

Innovatsion ta'lim muhiti o'qituvchilardan qaysi bilimlarni egallah va amaliy faoliyatni talab etmoqda?

- o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan amaliy faoliyati;
- o'qitishning moddiy - texnik bazasini mustahkamlashdagi amaliy faoliyati;
- o'qitishda kasbiy yunaltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta'lim - tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

\* innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash, innovatsion texnologiyalar ishlabchi asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash;

\* o'qitishning barcha shakllari ma'ruba, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'limning didaktik ishladilarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

\* o'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruba, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzuning mazmunnini e'tiborga olgan holda axborot - kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni o'q'umlashtirish va amalda qo'llash;

\* mazkur jarayondan olingen natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, ta'lim o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash borasida ma'lum qiyinchiliklarga uchrayotganligi sir emas. Mazkur jarayon jadval tarzida berilmoqda. Dastlab oliy ta'lim muhammasalarida tashkil etiladigan ta'lim - tarbiya jarayonining yaxlitligi va tizimligini tasavvur etish lozim.

### **O'qitish jarayonining yaxlitligi va tizimligi**

*Oliy ta'limda tashkil etiladigan ta'lim jarayoinga qo'yiladigan talablar:*

O'qituvchining pedagogik faoliyati;

Ta'lim mazmuni;

Ta'lim o'quvchilarning o'quv - bilish faoliyati;

Pedagogik va axborot texnologiyalari;

Ma'ruza – laboratoriya mashg'uloti - amaliy mashg'ulot – seminar mashguloti – Mustaqil ta'lif - nazorat, o'z - o'zini o'quv va nazorat amaliyoti - bitiruv malakaviy ishi - olingan natijalarini tahlil qilish, tegishli o'zgartirishlar kiritishda Oliy ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining yaxlitligi va tizimliliqi tahlil etilganda, ta'lif muassasasida - tashkil etiladigan ta'lif - tarbiya jarayoniga qo'yiladigan talablar, davlat va ijtimoiy buyurtmalarni aniqlab olish zarur. Oliy ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan ta'lif - tarbiya jarayoniga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'rg'isidagi Qonun"ida o'z ifodasini topgan.

Mazkur talablar asosida oliy ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining ta'lif mazmuni belgilanadi. Mazkur mazmun huquqiy va me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Oliy ta'lif muassasalarida pedagogik faoliyat yuritadigan pedagoglar zimmasiga mazkur mazmunnish muayyan bir qismi, ya'ni belgilangan o'quv kursi bo'yicha o'qitish jarayonini tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Pedagoglar o'z zimmalariga yuklatiltan kurs mazmuni ta'lif oluvchilar ongiga yetkazish maqsadida ta'lif oluvchilarning o'quv - bilish faoliyatini tashkil etadi. Ta'lif oluvchilarning muayyan bir o'quv kursi bo'yicha o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish uchun o'rganiladigan mavzu mazmuniga mos holda o'qitish vositalari, metodlarini maqsad ga muvofiq tanlashi, ta'lif mazmuniga mos o'qitish vositalari, o'qitish metodlari o'qitish shakllarida mujassamlashadi.

Oliy ta'lif muassasalarida o'qitish shakllariga: ma'ruza, laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'lif, o'quv pedagogik va ishlab chiqarish amaliyotlari, bitiruv malakaviy ishlari kiradi. Pedagoglar mazkur o'qitish shakllarida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'llarini loyihalashi zarur. Ta'lif - tarbiya jarayonida hamkorlik aloqani amalga oshirish uchun, ya'ni olingan natijalarini tahlil etish uchun ta'lif oluvchilarning o'zlashtirishdagi bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyalarini nazorat qilishi va o'z - o'zini nazorat qilish jarayoni yo'lga qo'yilishi lozim.

Pedagoglar tomonidan tashkil etiladigan ta'lif - tarbiya jarayonining nazoradorligini o'rganish va tahlil qilish natijasi ta'lif oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish yuzaki, ya'ni standart o'quv va test topshiriqlari asosida olib borilayotganligi, umumiy va shuylig kompetentsiyalarini nazorat qilish e'tibordan chetda qolayotganligi, ta'lif oluvchilarning o'z - o'zini nazorat qilish jarayoni tashkil etilmayotganligini hisobadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida pedagoglar tomonidan o'quv kursi mazmuni bo'yicha test topshiriqlari bankini tuzib, mazkur testlardan My test dasturi vositasida adaptiv test topshiriqlarini yaratib, ta'lif oluvchilarning o'z - o'zini nazorat qilish jarayoni tashkil etilmoqda va bu jarayon ta'lif nazoradorligining ortishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatayotganligi ma'lum bo'lib, shuni qayd etish kerakki, ta'lif oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyalarini nazorat qilish va o'z - o'zini nazorat qilish jarayoni oliy ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan ta'lif-tarbiya jarayonining ajralmas uzviy qismi bo'lib, mazkur jarayonni maqsadga muvofiq tashkil etilishi ta'lif samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi. Har bir o'quv kursining ta'lif mazmunini tahlil qilish uchun quyidagi nazariy asosga tayanish bo'lim:

1. Ya'lerner tomonidan ta'lif mazmunining tarkibiy qismlariga;

2. Bilimlar (ilmiy tushunchalar, g'oyalar, qonunlar, ilmiy nazariyalar);

3. Faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar);

4. Ijodiy faoliyat tajribalari;

5. Qadriyatlardizimi kiritilgan.

Analojagi nazorat turlarida aksari hollarda bilimlarga urg'u berilib, ta'lif mazmuminining keyingi uchchala tarkibiy qismlari:

6. Faoliyat usullari (ko'nikma va malakalar);

7. Ijodiy faoliyat tajribalari;

8. Qadriyatlardizimi e'tibordan chetda qolmoqda.

O'quv kurslari bo'yicha tuzilgan test topshiriqlarining aksari reproduktiv darajadagi test topshiriqlari bo'lib, ishchi dasturda ko'rsatilgan bilim, ko'nikma va malakalarning faqat bilimni aniqlash imkonini beradi. Ko'nikma va malakalarni aniqlash uchun tavsiya etilgan topshiriqlarning aksari qismi bir xil tarzda tuzilgan bo'lib, ta'limga oluvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish e'tiborda chetda qolayotganligini ko'rsatadi.

Pedagoglar pedagogik faoliyatida vujudga kelayotgan mazkur qiyinchiliklari ta'limga oluvchilar tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash va ularni baholash uchun foydalilaniladigan nazorat topshiriqlarini xilma-xillashtirish jarayonida vujudga kelayotgailigi sababli, ushu muammoni yoritish lozim deb topildi.

Pedagoglar tomonidan ta'limga oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun tayyorlangan test topshiriqlari shu kurs darsligidagi olingan bo'lib, ularning qiyinlik darajasi reproduktiv, ya'ni o'quv materialini qayta ishlanmasdan, aqliy operatsiyalar bajarilmasdan, xotirada saqlangan ma'lumotlar asosida javob qaytariladigai test topshiriqlari sanaladi.

Mazkur test topshiriqlari ta'limga oluvchilarning o'zlashtirgan bilimlari ni yuzaki aniqlash imkonini beradi. Bu holatda ta'limga samaradorligini aniqlash ancha mushkul. Shuningdek, yuqorida qayd etilgan qiyinlik darajasiga ega testlar ta'limga oluvchilarda tarkib toptirilgan ko'nikma va malakalarni aniqlash imkoniyatiga ega emas. Yuqorida tasvirlangan holat olyi ta'limga muassasalarida ta'limga - tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lgan teskari aloqa, ya'ni nazorat va o'z - o'zini nazorat jarayoni talab darajasida tashkil etilmayotganligidan dalolat beradi. O'qitishda ta'limga mazmunining tarkibiy qismlari va ularni o'zlashtirish darajasini aniqlash jadval tarzida berilmoqda.

O'qitishda ta'limga mazmunining tarkibiy qismlarini o'zlashtirish darajadini aniqlashda bilim, ko'nikma va malakalar ijodiy faoliyat tajribalarini ta'limga oluvchilar bilimiga qo'yiladigan talablar minimal talablar davlat ta'limga standarti, maksimal talablar, ta'limga oluvchilar bilimini nazorat qilish oraliq, yakuniy nazorat ta'limga tarbiya jarayoni samaradorligi aniqlanadi.

Ta'limga oluvchilar tomonidan ta'limga mazmunining asosiy tarkibiy jumladan biri bo'lgan ijodiy faoliyat tajribalarini aniqlashda foydalilaniladigai nazorat turlari ta'limga oluvchilar tomonidan aqliy operatsiyalar: tahlil, sintez, qaylash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosalashni, ya'ni ijodiy fikr yuritishni ishlashi etadi.

Ta'limga oluvchitarida ijodiy faoliyat tajribalarini tarkib toptirish va foydalishda o'quv kurslari mazmunidan o'rinni olgan keys-stadi topshiriqlari va qiyinlik darajalari produktiv, qisman - izlanishli va ijodiy (kreativ) testlar muhim roli oynadi.

Bunun qayd etish lozimki, pedagoglar ta'limga - tarbiya jarayonida ta'limga oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyalarini nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri, test topshiriqlardan foydalinish, nazorat tarkibiga standart va nostandart test topshiriqlari kiritishi lozim.

Yugoridagi fikrlar e'tiborga olingan holda ta'limga oluvchilar tomonidan ta'limga mazmunining barcha tarkibiy qismlarini o'zlashtirish darajasini aniqlashda standart test topshiriqlari bilan bir qatorda nostandart test topshiriqlaridan foydalinish surʼati kelib chiqmoqda. Ta'limga oluvchilar tomonidan ta'limga mazmunining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlashda foydalilaniladigai nazorat turlaridan biri test topshiriqlari bo'lib, ularni maqsadga muvofiq holda shakllantirish va o'z o'rnda foydalanih uchun mazkur jarayonning nazarini qilish zarur.

Ta'limga - tarbiya jarayonining tashkil etilishi va uning samaradorligini aniqlashda o'tkaziladigan nazorat va uning turlarini xilma - xillashtirish muhim shuniyat kasb etadi. Ta'limga - tarbiya jarayoni yaxlit tizim bo'lib, uning tashkil etilishi, borishini nazorat qilish, olingan natijalarga muvofiq avvalo o'qituvchining profesionallik faoliyatini tahlil etish, reyting tizimiga muvofiq tahlil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridagi tipik kamchiliklarni aniqlash va unani korreksiyalash yo'llarini belgilashni taqozo etadi.

Tahsil oluvchilarning o'quv rejadan o'rın olgan kurslar bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholashda nazornaturlaridan biri test topshiriqlari sanaladi.

Test topshiriqlari didaktik materiallar sirasiga mansub bo'lib, u quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

\*Test topshiriqlarining ta'limiyl funktsiyasi.Test topshiriqlari tahlil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridagi tipik kamchiliklarni aniqlash barobarida, ularni o'z bilimlarini orttirish maqsadida muntazam va tizimli fan asoslarini o'rganishga undaydi.

#### *Test topshiriqlarining tarbiyaviy funktsiyasi*

Test topshiriqlari tahsil oluvchilar tomonidan to'g'ri javobni topish jarayonida muayyan bilish qiyinchiliklarini his etishi, muammoni hal etish maqsadida aqliy operatsiyalar: tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa yasash kabilarini bajarishi orqali ularda barkamollikka zamin tayyorlaydigan sifatlar: iroda, ongli intizom, muayyan o'quv muammolarini hal etishga safarbarlik, chidamlilik, sabutotqat, yutuqlarga erishish uchun bilimi va kuchini sarf etishi orqali shaxs sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

#### *Test topshiriqlarining rivojlantiruvchi funktsiyasi*

Test topshiriqlari tahsil oluvchilarining egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, rivojlantirish, erishilgan natijalarda o'zining ulushi muhim o'rın tutishini e'tiborga olgan holda shaxs va kelgusi faoliyatidagi mas'uliyatini anglagan holda o'z - o'zini rivojlantirishga undaydi. Yuqorida fikrlarni e'tiborga olgan holda, test topshiriqlari didaktik material sifatida quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir test topshirig'i tegishli ta'lim turi bo'yicha o'quv rejadan o'rın olgan o'quv kurslari bo'yicha Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi asosida tuzilishi shart. Integrativ testlar ham o'zaro uzviy bog'langan aloqador funktor Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilishi maqsadga muvofiq.

2. Test topshirig'i umumiyl qabul qilingan atamalar asosida tuzilib, unda tahlil oluvchilarning shiqib ketgan, shuningdek, kam ishlataladigan yoki kup ma'noni ishlataladigan so'zlar, iboralar, belgililar, sifatlar va ma'joziy ma'noni beradigan shunchalar bo'lmasligi kerak.

3. Test topshiriqlari ilmiy asoslangan ma'lumotlar asosida yagona o'quv maydoni o'quv jarayonida tahsil oluvchilar tomonidan muayyan bilim yoki ko'nikmani o'zlashtirganlik darajasini aniqlashni nazarda tutgan holda tuzilishi kerak.

4. Ta'lim - tarbiya jarayonida foydalananiladigan test topshirig'i to'rt qiyinlik shunchasi asosida tuzilishi va har bir topshiriqning qiyinlik darajasi topshiriq jismoniy ko'matilishi kerak:

• qiyin (reproduktiv) (I) - tahsil oluvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlashdan, ularning xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, xodisa, voqeа, nom va umumlashtirishning mahiyati bilishni talab qiladigan daraja;

• qiyin (produktiv) (II) - tahsil oluvchilardan obyektlarni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarini bir vaqtida qayta ishlash, umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja;

• qiyin (qisman - izlanishli) (III) - tahsil oluvchilar tomonidan avval o'zlashtirilan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qayta ishlash, obyektlarni tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarini qo'llab, umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja;

• eng qiyin (kreativ) (IV) - tahsil oluvchilar tomonidan avval o'zlashtirilan bilim, ko'nikma va malakalarini kutilmagan vaziyatlarda vujudga keltirilgan qayta ishlash, qonuniyatlarini qayta ishlash, obyektlarni tahlil, sintezlash, qiyosiy taqqoslash umumlashtirish, xulosa yasash kabi aqliy operatsiyalarini bajarishni talab qiluvchi daraja;

5. Test topshirig'ining savoli aniq, lo'nda, qisqa ifodalangan bo'lishi, unda muhim ma'lumotlar keltirilishi, keraksiz, ortiqcha so'zlarni ishlatmaslik, shuningdek, savol ikki xil ma'noni aiglatmasligi kerak.

6. Standart test topshirig'ining javobi to'rtta bo'lib, ulardan bittasi mutloq to'g'ri bo'lishi, muqobil javoblar orasida "Javoblarning barchasi to'g'ri", "Javoblarning barchasi noto'g'ri" "To'g'ri javob yo'q", "To'g'ri javob A va V" yoki "Tog'ri javob S va D" kabi iboralar ishlatalmasligi kerak.

7. Test topshirig'ining to'g'ri javobi ham, noto'g'ri javoblari ham bitta mavzu doirasida bo'lishi, shakl jihatidan bir - biriga yaqin bo'lishi, to'g'ri javob shaklan ajralib turmasligi, muqobil javoblar variantlarida so'zlarni kerakli takrorlamaslik, shuningdek, tushunarli, aniq va qisqa bo'lishi, asosli ravishda tanlanishi talab etiladi.

8. Test topshirig'i savolida to'g'ri javobni topishga yordam beruvchi so'z va iboralar ishlatalmasligi, orfografik va grammatik xatolarga yo'l qo'yilmastigi lozim.

9. O'quv kurslari bo'yicha DTMga topshiriladigan test topshiriqlarining soni 200 tadan kam bo'lmasligi, shaklan har xil va mazmunan bir xil test topshiriqlari bo'lmasligi va takrorlanmasligi zarur. Test topshiriqlarining materiallari Microsoft Word dasturiga kiritishda klaviaturadagi belgilardan foydalanish, chizma va rasmi li testlarni kiritish qatiyan man etiladi.

10. Har bir test topshirig'i o'z pasportiga ega bo'lishi ulani rasmiyta shirishda quyidagi jadvaldan foydalanish tavsiya etiladi. Unda o'quv kursiniig nomi, bob va bo'lim raqami, test topshirig'ining qiyinlik darajasi, to'g'ri javob variantidan oldin "\*" belgisi qo'yilishi, to'g'ri javob esa javob variantlarining birinchi ustuniga joylashishi lozim.

**Testologiya** - (inglizcha so'zdan olingan bo'lib, test — sinov), yunoncha logos — bilim) so'zlar birikmasidan iborat.

Testologiya fanlararo fan bo'lib, ilmiy asoslangan va sifatlidi diagnostik o'chov metodikasi haqidagi fan sanaladi.

Psixologiyada testologiyaning mazmuni asosan tabaqalashtirilgan psixometriyaning mazmuniga mos keladi. Testologiyaning printsiplari va metodlari psixologiyaning chegarasidan chiqib, hozirgi kunda pedagogika, tibbiyot, texnika, menejment sohalarida ham muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda.

Testologiyani qo'llashda umumi y xususiyatlar: test topshiriqlarini tuzish imkonlari, namaradorlik, variativlik, ishonchlik, validlik bilan bir qatorda har bir fan sohasining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, fanning ta'llim mazmuni, testning mantiqly tuzilishi, test sinovining o'tkazilish maqsadi, kasbiy va umumta'llim bilimlarni nazorat qilish va baholash tartibi va o'chovi ham e'tiborga olishi lozim.

Hozirgi zamondagi testologiya fani amaliy fan bo'lib, tadqiqotchilar oldiga narsalar muammolar, matematik yondashuvlar, model va metodlarni tavsiya etishda. Test metodining keng tarqalishi, rivojlanishi va takomillashuviga uning quyidagi afzalliklari:

1. Test topshiriqlari tadqiqot maqsadiga muvofiq respondentlarning bilim, ko'nikma va malakalariga aniq baholash imkonini beradi;

2. Jimony so'rovlarda ishtiroy etgan qonunni respondentlarning fikr va muhabazarini aniqlash va umumlashtirish imkoniyati mavjud;

3. Tahsil oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, baholash imkonini obyektiv amalga oshiriladi, baholovchi tomonidan subyektivizmga yo'l qo'yish oldini oladi.

Turi guruh respondentlaridan olingan ma'lumotlarni qiyosiy-statistik tahlilini oshirish imkon berishi kabilar zamin yaratgan. Test topshiriqlarining yalpi joriy tahlilidan avval tanlangan maqsadli guruhda sinovdan o'tkazish, olingan natijalar va baholashning obyektligi tahlil qilinishi lozim. Olingan natijalar va testlarning oshirilishiga muvofiqligi quyidagi mezonlar bo'yicha tahlil qilinadi.

1. *Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezonlari*:

*Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezonlari o'r ganilayotgan obyekting xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettirib, u tahsil oluvchilar tomonidan mazkur xususiyatlarini aniqlash uchun bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko'ra:*

1. Reproduktiv daraja;

2. Produktiv daraja;

3. Olshan - izlanishli daraja;

4. Juddiy (kreativ) darajada bo'lishi mumkin

Reproduktiv o'qitish darajadagi test topshiriqlari tahlil oluvchilar tomonidan yodda saqlangan bilim, ko'nikma va malakalarni tanish odatiy vaziyatda axborotlarni qayta ishlamasdan javob qaytarishni talab etadi. Bu darajada tuzilgan testlar tahlil oluvchilar tomonidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq baholash imkonini bermaydi.

Produktiv darajada tuzilgan test topshiriqlari tahlil oluvchilar tomonidan o'r ganilgan obyektlarni qiyoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, umumiyl xulosa chiqarish orqali javob berishni talab etadi.

Qisman - izlanishli darajadagi test topshiriqlari tahlil oluvchilar tomonidan o'r ganilgan obyektlarning xususiyaglarini boshqa obyektga ko'chirish, mazkur obyektlarni taqqoslab, keyingi obyektning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi xulosa chiqarish, qisman izlanish olib borishni talab etadi. Tahlil oluvchilar tomonidan mazkur darajadagi test topshiriqlariga javob berishda avval o'zlashtirilgan bilimlar yangi vaziyatlarga ko'chiriladi.

Ijodiy (kreativ) darajada tuzilgan test topshiriqlari tahlil oluvchilar tomonidan ijodiy fikr yuritish ko'nikmalariga ega bo'lism, mazkur test topshiriqlarini bajarish jarayonida tahlil oluvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashni talab etadi.

Dastlabki reproduktiv va produktiv darajadagi test topshiriqlari o'quv fan bo'yicha tasdiqlangan DTS ning minimal darajasiga, qisman - izlanishli va ijodiy (kreativ) darajadagi test topshiriqlari DTSning maksimal darajasiga mos tuzilishi zarur.

#### **Test topshiriqlarining tabaqlashtirish mezoni**

Tahlil oluvchilar tomonidan qiyinchilik darajasi va mazmunan bir xil test topshiriqlarni bajarish orqali olingen natijalariga muvofiq tabaqlashtirish mezoni ularni kuchli, o'rta va kuchsiz guruhlarga ajratish mumkin.

Muzkur tabaqlashtirish orqali tahlil oluvchilar tomonidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridagi tipik kamchiliklar va bo'shliqlarni aniqlash, ularga barham berish yo'llarini topish imkonini beradi.

Pedagogik testlar - bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega, tahlil oluvchilarining muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga imkon beradigan topshiriqlar tizimi sanaladi. Topshiriqlar tizimi deyilganda, muayyan mavzu, bob, bo'lim yoki kurs mazmunini o'zida mujassamлагitirgan va tizim hosil qiluvchi xususiyatga ega bo'lgan o'qituvchi tomonidan tanlangan topshiriqlar majmuasi tushuniladi.

Test topshiriqlarining o'ziga xos shakli oddiy savol -javobdan farq qilib, test topshirigi savollari va javoblari qisqa va lo'nda bo'lishi bilan izohlanadi. Tesg topshiriqlarining muayyan mashqi deyilganda kurs mavzulari va ularning mazmunidagi nazorat qilinishi lozim bo'lgan o'quv materiallari tushuniladi. Test topshiriqlarining o'sib boruvchi qiyinlik darajalari tizim shaklida mujassamlashtirilgan topshiriqda dastlabki testlar reproduktiv, produktiv, keyingilari qisman-izlanishli va ijodiy (kreativ) bo'lishi nazarda tutiladi. Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi ko'rsatkichlari tizim hosil qiluvchi, shu bilan bir qatorda topshiriqlar strukturasiini aniqlovchi omil sanaladi.

Test topshiriqlarining mantiqiy jihatdan asoslanganligi mezoni o'zida savol va topshiriqdarning mantiqiy ketma - ketlikda aks ettirilishi tushuniladi. Test topshiriqlari mantiqiy tuzilishiga ko'ra induktiv yoki deduktiv bo'lishi mumkin. Test topshiriqlarining javoblari mazmunga mos, qisqa fikrli, aniq, lo'nda, to'g'ri va noto'g'ri jumlalardan iborat bo'ladi. Test topshiriqlaridagi to'g'ri va noto'g'ri javoblarning tarkibidagi so'zlar birikmasi va soni bir hil bo'lishi talab etiladi.

Tahlil oluvchilarining bilim darajasi test topshiriqlari orqali nazorat qilingan va olingen natijalarni tahlil etish orqali ularning mazkur kurs bo'yicha DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganlik darajasi aniqlanadi. Shuni qayd etish kerakki, test topshiriqlarida bilimlar strukturasing ketma-ketligi to'g'ri va noto'g'ri javoblarning mantiqiy yo'nalishda talab darajasida berilishi lozim. Talab darajasida tuzilgan test topshiriqlarining natijalari, ya'nii tahlil oluvchilarining to'plagan ballari va ko'rsatkichlari mazkur kurs bo'yicha o'quv jarayonining maqsadga muvofiq tashkil etilganligi, ta'limning

individuallashtirilganligi, tabaqalashtirilgan yondashuvning mavjudligi, pedagogning pedagogik mahorati, nazoratning haqqoniyligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

O'qituvehi muayyan kurs bo'yicha tahsil oluvchilarining shu kurs bo'yicha DTS bilan me'yorlaigan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash reyting tizimining joriy, oraliq va yakuniy nazorat uchun test topshiriqlarini tuzishda avvalo asosiy e'tiborni, DTS talablariiing qamrab olinishi, ya'ni mazmuni va shakliga, test topshiriqlari o'rtasida uzziylik va izehillikka qaratishi lozim.

#### **Standart testlar**

Test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talab, har bir test muayyan mazmun, tartib, yaxlitlik va strukturaga ega bo'lishi lozim. Shuni nazarda tutgan holda, u topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo'lган ball va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'lishi zarur.

Test topshiriqlarining yaxlitligi u bir mavzu, bob, bo'llim yoki kurs mazmunini qamrab, ularni nazorat qilish imkoniyatiga ega ekanligida ko'zga tashlanadi. Har bir test topshirig'i yaxlit topshiriqning bir bo'lagi sifatida muayyan mazmunni qamrab oladi va ma'lum bir vazifani bajarali, shu sababli ularning birortasini olib tashlash bilimlarni aniqlash jarayoni va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Test topshiriqlarining strukturasiga topshiriqning o'zaro aloqadorligini amalga oshirish orqali erishiladi. Asosan, har bir test topshirig'i bir - biri bilan umumiyligi mazmun va erishilishi nazarda tutilgan natijalarning umumiyligi variatsiyasi orqali bog'liqligini ko'rish mumkin. Standart pedagogik testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra gomogen va geterogen testlarga ajratiladi.

**Gomogen testlar** qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarining muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatlari va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bitta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

**Geterogen testlar** qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarining muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatlari va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bir nechta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

**Nostandard testlar.** Standart testlar mazmuni bo'yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig'i savoli va to'g'ri za noto'g'ri javoblardan iborat bo'lsa, nostandard testlar o'zining mazmuni, tuzilishi va qo'llanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farq qiladi. Nostandard testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli- mo'ljal olingen testlar.

**Integrativ testlar** mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, ta'lim muassasasi bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashtigan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

**Adaptiv testlar** avtomatlashtirilgan, tahsil oluvchilarga nisbatan individual yondashish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo'lган ball va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi.

Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidalni adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra o'rtacha og'irlikdagi, tahsil oluvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin. Adaptiv testlar ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etishning modul - kredit paradigmaida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Shuning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bulim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Mezonli – mo'ljal olish testlari tahlil oluvchilarining umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'llim - tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

**Mazkur test** topshiriqlarini tuzish uchun avvalo o'quv kursi mazmuni DTS asosida tahlil etiladi, bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanadi, ularni aniqlash uchun topshiriqlar majmuasi tuziladi, mazkur topshiriqlar test topshiriqlariga aylantiriladi va sinov o'tkaziladi, pirovard natijada tahlil oluvchilarining shu kursni o'zlashtirish darajasi yuzasidan xulosa tayyorlanadi.

Mezonli-mo'ljal olish test sinovlari orqali tahlil oluvchilarining bilimlaridagi bo'shlisqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi. Yuqorida qayl etilgan nostandard test topshiriqlarini ta'llim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni tahlil oluvchilarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

*1-printsip.* Nostandard test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash printsiplari haqida fikr yuritish lozim.

*Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi printsipi.* Mazkur printsip tahlil oluvchilarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab egadi. Shuni qayd etish kerakki, reyting tizimining nazorat turlari joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari bir-biridan nafaqat didaktik maqsadi, balki mazmuni va mazmunning yoritilish darajasi bilan farq qilishini nazarda tutish lozim.

*2-printsip. Nazorat va baholanayoggan bilimlarning muhimligi printsipi.*

Muhimlik printsipi test topshirig'i savollariga o'quv dasturidagi eng muhim qonun, nazariya, tushuncha va ko'nikmalarni kiritishni talab etadi. Shu jarayonda ikkinchi darajali ma'lumotlar, raqamlar va fan materiallar test topshiriqlariga kiritish tavsija etilmaydi.

*3-printsip. Mazmuni va shakl birlign printsipi.*

Mazkur printsip test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi. Test topshiriqlarining mazmunini tanlashda bilimlarning turlari va ularning o'ziga xosligini e'tiborga olish va mos ravishda shaklni tanlash lozim.

*4-printsip. Test topshiriqlarining mazmunan to'g'riligi printsipi.*

Test topshiriqlariga o'quv kursi mazmunidagi obyektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Mazmundagi baxs va munozaraga olib keladigan masalalar test topshiriqlariga kiritilmasligi lozim. Shu holat tahlil oluvchilarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini bermaydi.

*5-printsip. Test topshiriqlari mazmunida o'quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi printsipi.*

Mazkur printsip test topshiriqlarini tayyorlashda o'quv kursi mazmuni to'liq va yyetarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi. O'quv kursi bo'yicha tashkil etiladigan ta'llim-tarbiya jarayonida mavzulararo, boblararo, bulimlararo va fanlararo bog'lanishlarga yetarli darajada e'tibor qaratilgan, mazmunan bu jarayon o'quv materialida o'z aksini tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar shaklida bo'lsa, bunda hamma mavzular bo'yicha emas, balki tanlangan asosiy mavzular va boblar bo'yicha test topshiriqlari tayyorlanadi.

*6-printsip. Test topshiriqlari mazmunishshg fanniig hozirgi zamon holatiga mosligi printsipi.*

Mazkur printsip test topshiriqlari mazmuni jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar, huquqiy me'yorlar, fanning o'quv kursi ta'llim mazmuniga kiritilgan; fan yangiliklariga moslashni talab etadi. Shuni qayd etish kerakki, o'quv kursi mazmuni tahlil oluvchilar tomonidan shu kursga oid ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'ziga xos va mos proektsiyani hosil qiladi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinish turibdiki, test topshiriqlarining mazmuni ham zamonaviy, ham tahlil oluvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirish bosqichlariga mos bo'lishi lozim.

*7-printsip. Test topshiriqlari mazmunini majmuali va muvozanatlashgan bo`lishi printsipi.*

Mazkur printsip test topshiriqlari mazmunini tanlashda maqsadga muvoqlikni keltirib chiqaradi, ya`ni reyting tizimining oraliq va yakuniy nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlarining mazmuni uning turi va qo'llanishini e'tiborga olingan holda bob, bo`lim yoki kurs mazmunini to'liq qamrab olishini taqazo etadi. Shuningdek, yakuniy nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlari o`zida kursning nazariy masalalar, tushunchalar, qonunlar va qonuniyatlar, gipotezalar, faktik materiallar, masala va mashqlarni mujassamlashtirishi lozim.

*8-printsip. Test topshiriqlari mazmunining tizimlilik printsipi.*

Mazkur printsipga asosan, test topshiriqlarining mazmunini tanlashda, mazmun tahsil oluvchitariing o`zlashtirgan bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilishda tizimlilik talablariga javob berishi lozim. Undan tashqari test topshiriqlarining tizimli mazmuni, bir-biri bilan uzviy bog`langan bilimlarning umumiyligi strukturasini aks ettirish zarur. Demak, har bir test topshirig`i umumiyligi bilimlar tizimidan uning muayyan qismini nazorat qilishiga e'tibor qaratish lozim.

*9-printsip. Test topshirig`i mazmunining variativligi printsipi.*

Test topshirig`i birinchi marta amaliyotga joriy etilganda, ularning mazmuni tahsil oluvchilarga ma'lum bo`lib qoladi va test javoblari haqidagi axborotning chetga chiqib ketish hollarining oldini olish uchun, mazkur printsip test savollari va javoblarini ko`p variantli qilish, ularni almashtirib, yangilab turishni taqozo etadi. Bu holatda test topshiriqlarining mazmuni va uni bajarish qiyinchilik darajasini saqlash talab etiladi.

*Test topshiriqlariga qo`yiladigan talablar.*

Test topshiriqlariga quyidagi talablar qo`yiladi:

- test topshirig`i mazmunining to`g`riligi;
- savolning mantiqiy jihatdan to`g`ri tanlanishi;  
test topshirig`i shaklining to`g`riligi;
- test topshirig`ining savol va javobning qisqaligi;  
test topshirig`i elementlarining to`g`ri joylashganligi;

- test topshirig`ining to`g`ri javoblari bir xil baholanishi;
- tahsil oluvchilarga test topshirig`ining bajarish bo`yicha bir xil ko`rsatma berilishi;
- ko`rsatmalarning test topshirig`i va mazmuniga mosligi.

Bundan tashqari test topshiriqlari Davlat test markazi tomonidan belgilangan talablarga javob berishi lozim. Test topshiriqlarini tuzishda mazmun asosiy o`rinni egallaydi, shu sababli o`quv kursi mazmunidagi bilimlarni aniqlash va ularga mos o`quv maqsadlariga erishish darajasini belgilaydigan test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq. Pedagoglar o`rganiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda Blum taksonomiyasiga asosan o`quv maqsadlarini aniqlashi va shu asosda mashg`ulotlarni tashkil etishi lozim.

O`quv maqsadlarini mashg`ulotning didaktik maqsadlariga muvofiq belgilanishi ta`lim samaradorligini aniqlash va kamchiliklarga barham berilishiga zamin tayyorlaydi. O`quv maqsadlari taksonomiyasi Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib, u o`z ichiga bilish, tushunish, amaliyotga qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, baholash kabilarni o`z ichiga oladi.

*Blum taksonomiyasini quyidagicha izohxlash mumkin :*

O`quv maqsadlari ta`rifi kalit so`zlar mashgulotdag`i nazorat turi reyting tizimidagi test toishiriq turi.

bilish, axborotni o`zlashtirish, aniqlash; ta`riflash; qayta ishslash; aytilib berish; mohiyatini tushuntirish; ajratib ko`rsatish; test topshirigi, og`zaki javob, klaster tuzish, og`zaki javob, og`zaki javob, reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ daraja, tushunish, ahamiyatni anglash, asosiy g`oyani ajratib ko`rsatish.

#### 1-vazifa

1. Umumlashtirish;
2. Qayta ishslash;
3. Asosiy g`oyani qayta ishslash;
4. Misollar keltirish;
5. Himoya qilish;

#### 2-vazifa

1. Moslashtirish;
2. Qayta ishlash;
3. Loyihalash;
4. Modellashtirish;
5. Qayta aytib berish;

Og'zaki javob, Klaster tuzish, Tahlil, Axborotii yoki obyektni qismlarga ajratish  
3-vazifa

1. Taqqoslash
2. Qismlarga ajratish
3. Ajratib ko'rsatish
4. Qiyoslash, Venn diagrammasi
5. Tanqidiy fikr yuritish
6. Fikrga qarshi fikr bildirish
7. Qo'llab - quvvatlash
8. Inkor etish.

Ushbu jadvalda o'quv maqsadlari, ularning nomi ya'ni bilimlarni maqsadga aylantirishda foydalaniladigan ma'ruba, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari davomida baholash turlari, hamda reyting tizimi nazorat turlarida foydalaniladigan topshiriqlar o'z aksinn topgan. Mazkur bilimlarni ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtiritanligini obyektiv va haqqoniy aniqlash va baholash maqsadida test topshiriqlaridan foydalaish muhim ahamiyat kasb etadi. Test topshiriqlarini tuzish, pedagogik amaliyatda qo'llash va olingan natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish testologiya, pedagogik kvalimetriya fanining obyekt sanaladi.

#### **§4. Pedagogik kvalimetriya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari**

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlaringning g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiharish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik

shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon etkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi.

Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mayjud ko'rsatkechlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul. Ayni vaqtida samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va biliш usullaridir.

Ayni vaqtida, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayondlarning umumiyligi aloqasi, ularning izehil, uzlusiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvehi, izehillik, uzlusizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- muammoning dolzarbliyi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;
- tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;

-tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o'tish;  
-tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

Pedagogik kuzatish metodi.

Suhbat metodi.

Anketa metodi.

Intervyu metodi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.

Test metodi.

Pedagogik tahlil metodi.

Bolalar ijodini o'rghanish metodi.

Pedagogik tajriba metodi.

Matematik-statistik metod.

**Pedagogik kuzatish metodi.** Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rghanish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba - avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkchlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'ldi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzlusiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;

kuzatishning har bir bosqchida muayyan vazifalarni hal etish;

har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rghanish;

xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

**Suhbat metodi.** Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individuall, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;

suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;

suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;

suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;

suhbatdoshning o'z likrlarini erkin va batatsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

**Anketa metodi** (frantsuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi.

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qillishi lozim;

anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;

anketa savollari o'quvchilarning dunyošarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtini kafolatlay olishi zarur;

anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

**Intervyu metodi** respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatimi yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

#### **Pedagogik kvalimetriya fanining asosiy metodlari: tahlil, sintez, qiyoslash va taqqoslash**

**Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi.** Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rghanish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: -o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftар, pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlari rejsasi, o'quv-tarbiya ishlarni tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rghanishda muhim ahamiyatga ega.


**Bolalar ijodini o'rghanish metodi.** Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'ycha bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rghanishning quyidagi shakllari mavjud:

- fan olimpiadalar;
- turli mavzulardagi tanlovlari;
- maktab ko'rgazmalari;
- festivallar;
- musobaqalar.

**Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha "Sinab ko'rish", "Tajriba qilib ko'rish") metodi.** Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rghanish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalilanadi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalinish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga bera olishi zarur.

Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi (1-rasm):



1- rasm. Pedagogik tajriba turlari

Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;  
tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;  
tadqiqot obyektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi;  
tajriba o'tkazilish vaqtini hamda davomiyligini aniqlanishi;  
zurur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;

tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingen natijalarga asoslanib umumiyligida xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Matematik-statistik metod** tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiylidagi tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash, samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkchilar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkchisi hisoblanadi. Ayni vaqtida, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlar olib borishda Styudent, Ko'virlyag, Rokch, V.P.Bespal'ko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanimoqda.

Shular jumlasiga taqqoslash, olingen natijalarni matematik statistik metod vositasida tahlil qilish va xulosa yasash, pedagogik kadrlarni suhabatdan o'tkazish o'qituvchilarning fikr - mulohazalarini aniqlash maqsadida so'rovnomada o'tkazish, ekspertizadan o'tkazish, ijtimoiy metodlarni kiritish mumkin.

#### **Ta'limgardagi qo'llaniladigan pedagogik innovatsiya va o'qituvchining pedagogik kvalimetrik faoliyatini yaxlit o'rGANISH**

Uzluksiz ta'limgardida tashkil etilayotgan ta'limgardagi qo'llaniladigan pedagogik innovatsiya va o'qituvchining pedagogik kvalimetrik faoliyatini yaxlit o'rGANISH

Pedagogik kvalimetriya nazariyasiga asoslangan kvalimetrik yo'nalish o'zining keng qamrovliligi, test jarayonining dahlsizligi, olingen natijalarni matematik-

statistik tahlil qilish, tahlil oluvchilarning rivojlanish darajasi va bilimlarni o'zlashtirish sifati haqida qat'iy anisqalarini olish imkonini beradi. Nazariy kvalimetrik yo'nalishda tashkil etilayotgan nazorat an'ananiy nazorat turlaridan tadqiq etilayotgan obyektning o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari sifatini baholashda ko'p miqdordagi axborot va miqdoriy baholash imkoniyati mayjudligi bilan farklanadi. Ta'limgardagi ilmiy asoslangan va o'zaro uzviy bog'langan nazorat turlari va axborot tehnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'limgardagi qo'llaniladigan pedagogik innovatsiya va o'qituvchining pedagogik faoliyatini yaxlit o'rGANISH

Jahoning rivojlangan mamlakatining ta'limgardagi test topshiriqlaridan foydalaniлади va bu metod yordamida ko'p sondagi tahlil oluvchilarning qisqa muddatda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari sifatini aniqlash, olingen natijalarga muvofiq ta'limgardagi tahlil oluvchilarga individual yondashish, uzlusiz ta'limgardagi tahlil tarbiya jarayonning sifatini aniqlash, ularning o'rtacha qiymatini aniqlash va baholash, olingen natijalarni qayd etish amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda ta'limgardagi muassasalarida test topshiriqlaridan samarali foydalinish yo'llari ishlab chiqilgani bo'lib, ta'limgardagi makonida pedagogik munosabatlarning yangi paradigmalarini tahlil oluvchi - o'qituvchi", "Tahsil oluvchi - ota-onalar", "O'qituvchi - rakhatiyat", "Ta'limgardagi muassasalarini - ta'limgardagi boshqaruva organlari" kabi nazorat-baholash tizimi amaliyotga joriy etilmoqda. Test topshiriqlarining dahilsiz va mustaqil tashkil etilishi ta'limgardagi qo'llaniladigan pedagogik innovatsiya va o'qituvchining pedagogik kvalimetrik faoliyatini yaxlit o'rGANISH

## **II.BOB.TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK KVALIMETRIYA METODLARI**

### **§1.Pedagogik o'chov metodlari va ularning turlari**

Xorijiy mamlakatlarda chop ettilgan adabiyotlar tahlili, kvalimetriya metodlaridan iqtisodiyotda, iste'mol buyumlarni indekslash, bunda tahlil, eksperimental, indeksli metodlardan foydalanish metodikasi G.Apalov, A.Kostin, A.Omistelar tomonidan chop etilgan The ABC of Qualimetry kitobida o'z ifodasini topganligini ko'rsatdi.

Respublikamizda joriy etilgan uzlusiz ta'limgiz tizimining barcha bo'g'inlarida ta'limg - tarbiya jarayonining samaradorligini nazorat qilish va baholash, mazkur tizimda pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy - pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlashda pedagogik kvalimetriya metodlari muhim o'rinni tutadi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, uzlusiz ta'limgiz tizimining barcha bo'g'inlari shu jumladan, ta'limgiz muassasada pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagoglar pedagogik kvalimetriyani fan sifatida obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, printsinlari, kvalimetrik shkala, kvalimetrik jarayonning bosqichlari, pedagogik kvalimetriya metodlari vositasida ta'limg - tarbiya jarayonini tashhislash va baholash, olingan natijaga muvofiq, umumiylash, kasbiy - pedagogik faoliyatda kvalimetriya metodlarini qo'llashdagi yondashuvlarning mazmun - mohiyatini anglashi lozim.

Bu bilan bir qatorda pedagog ta'limg - tarbiya jarayonida ta'limgiz oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalar va kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri, test topshiriqlaridan foydalanish, standart va nostandart test topshiriqlarini tuza olishi, test o'tkazish jarayonining metodikasi, olingan natjalarni ekspertizadan o'tkazish, yakuniy natjalarni umumlashtirish, pedagogning kasbiy - pedagogik modelini tuzish va modelning har bir tarkibiy qismining egallanganlik

darajasini aniqlash, ta'limgiz oluvchilarning umumiy va kasbiy layoqatini aniqlash metodikasi, ta'limgiz oluvchilar tomonidan bilimlarni egallaganlik va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va pedagogik xulosa yashash malakasini egallagan bo'lishi zarur.

Pedagogik kvalimetriya pedagogning kasbiy mahoratini aniqlashda ham muhim o'rinni tutadi. Pedagog kadrlarning o'z kasbiy - pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o'z-o'zini baholash uchun pedagogik kvalimetriyaning quyidagi metodlaridan foydalilanadi:

1. Ekspertiza metodi;
2. Tahlil metodi;
3. Pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilish;
4. So'rovnoma o'tkazish;
5. Test topshiriqlari;
6. Suhbat metodi;
7. Matematik - statistik tahlil qilish;
8. Umumlashtirish.

#### **Ta'limg - tarbiya jarayonida pedagogik o'chov metodlaridan foydalanish**

Ta'limg - tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya yutuklaridan juda keng miqyosda foydalanish istikbollari mavjud. Jumladan, pedagogik faoliyatda tashsil oluvchilarning ta'limgiz muassasalarida fanlar bo'yicha DTS bilan me'yorlangan talablar asosida bilim, ko'nikma, malakalar va kompetentsiyalarni o'zlashtirish imkoniyatlari, ularning ehtiyojlari va o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash va olingan natjalarga muvofiq ularga nisbatan individual yondashuvni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar tayyorlash.

Pedagogik kvalimetriya jarayonini amalga oshirishda quyidagi mantiqiy yondashuvlar mavjud:

1. Pedagogik kvalimetrik jarayonni deduktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish;
2. Pedagogik kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish.

Pedagogik kvalimetrik jarayonning deduktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga oliy ta'lif muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiyalash, oliy ta'lif muassasalarining reytingini aniqlash jarayonlarini misol qilib olish mumkin.

Mazkur jarayonda ekspertiza metodi vositasida oliy ta'lif muassasasida ta'lif - tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy - meyoriy hujjatlari, o'quv kurslariiing didaktik va metodik ta'minoti, moddiy - texnik bazasi tahlil qilinib, ekepertizadan o'tkaziladi. Yuqorida qayd etilgan hujjatlar ekspertizadan o'tgandan so'ng, ta'lif muassasada tashkil etiladigan pedagogik jarayon kuzatiladi va tahlil qilinadi. Ta'lif - tarbiya jarayonini samaradorligini aniqlash maqsadida ta'lif oluvchilardan muayyan masalalarni qamrab olgan so'rovnama o'tkaziladi.

So'rovnama natijalari tahlil qilinib, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar tayyorlanadi. Ta'lif - tarbiya jarayonida o'quv kurslari bo'yicha ta'lif oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida fanlardan tuznigan test o'tkaziladi va olingan natijalar tahlil etilib, oliy ta'lif muassasasnda tashkil etiladigan pedagogik jarayonning samaradorligi aniqlanadi.

Muayyan o'quv fanlari bo'yicha ta'lif oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida suhbat o'tkaziladi va natijalar tahlil etiladi. Yuqorida qayd etilgan barcha jarayonlardan olingan natijalar matematik - statistik metod vositasida tahlil qilinadi va ma'lumotlar umumlashtirilib, ta'lif muassasada tashkil etiladigan pedagogik jarayonning samaradorligi haqida umumiyl xulosa tayyorlanadi. Pedagogik kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishi sirasiga pedagog kadrlarning kasbiy - pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o'z - o'zini baholash jarayoni kiradi. Bu jarayonda pedagogi attestatsiyadan o'tkazish maqsadida ularning pedagogik faoliyati tahlil etiladi. Tanlovdan tanlovgacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan o'quv, ma'naviy - ma'rifiy ishlari, ilmiy, ilmiy - metodik sohada olib borilgan izlanishlari, chop etilgan ilmiy ishlari, mas'ul

bo'lgan o'quv kursi bo'yicha tayyorlangan oquv - metodik majmuuning maqsadga muvofi qligi ekspertizadan o'tkaziladi.

Mazkur o'qituvchining pedagogik faoliyatining samaradorligini aniqlash maqsadida namunaviy mashg'ulotlar mutaxassislar va ekspertlar tomonidan tahlil etiladi va samaradorligi haqida xulosa chiqariladi.

Muayyan o'quv kursi bo'yicha ta'lif oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalar va kompetentsiyalarini nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri, test topshiriqlaridan foydalanish ham kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga misol bo'ladi.

## **§2. Pedagogik kvalimetriya metodlari vositasida test topshiriqlarini tuza olish, test o'tkazish jarayoni metodikasi**

**Test metodi.** Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va umaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

ochiq turdag'i savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdag'i savollar (respondentlar "Ha", "Yo'q", "Qisman" yoki "Ijobiy", "Qoniqarli", "Salbiy" va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mayjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini

tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyagà ega emas.

**Pedagogik tahlil metodi.** Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

*Ta'lim metodlari: tushuncha, funksiya, tasnif.* "Metod" so'zining yunoncha tarjimasi "Tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni anglatadi. Filosofiya sifatida ushbu tushuncha umumiylar tarzda "Maqsadga erishish usullari" deya sharhlangan. Ayni vaqtida, pedagogik manbalarda "Ta'lim metodi" tushunchasiga berilgan ta'riflarning xilma-xil ekanligiga guyoh bo'lish mumkin.

Shuningdek, ta'lim metodlarining o'qituvchi va o'quvchilarining o'zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlarini usullari ekanligi to'g'risidagi fikrlar ham mayjud.

Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida, muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida, umumiylar holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi.


1.Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to'laqonli yorituvchi ta'rifni aniqlashga bo'lgan urinish bugun ham davom etyapti, yangi-yangi ta'riflar ilgari surilmoqda. Biroq, "Ta'lim metodi" tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlcha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiylilik mayjud. Aksariyat mualliflar "Ta'lim metodlari o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari" degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir.

Mazkur o'rinda ularning ayrimlarini keltiramiz (2-rasm):

<p><b>Ta'lim metodi –</b> zamonaviy darajada o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog va o'quvchilarining o'zaro bog'liq faoliyat usullaridir (V.I.Zagvyazinskiy)</p>	<p><b>Ta'lim metodlari –</b> o'quv jarayonining murakkab tarkibiy unsuri (komponenti) bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining barcha yo'nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o'tasida ko'p sonli aloqa va bog'lanishlarni yuzaga keltiradi (G.I.Hukina)</p>	<p><b>Ta'lim metodlari</b> deganda o'qituvchining o'rgatuvchanligi va o'quvchilarining o'quv materialini egallashga yo'naltirilgan turli didaktik masalalar echimini topishga oid o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etish usullari tushuniladi (I.F.Xarlamov)</p>	<p><b>Ta'lim</b> metodi – belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi algoritmlashtirilgan, muayyan mazmunga ega harakatlar tizimdir (P.I.Podlaso'y)</p>
---	---	---	---


2- rasm. "Ta'lim metodi" tushunchasining mohiyatini yorituvchi qarashlar

Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi. o'qituvchi va o'quvchilarining o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Metod, bir tomondan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi. Ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz. Tabiiyki, umumiylar holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilangan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishma tushadi. Ta'lim metodi tuzilmasi chizmada quyidagcha namoyon bo'ladi (M.N.Skatkin qarashlariga ko'ra) (3-rasm):



3 - rasm. Ta'lif metodi tuzilmasi


Chizmadan anglanib turibdiki, ta'lif metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib; faoliyatli tarkib; ta'lif vositalari. Ta'lif tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi. Ta'lif metodlari quyidagi asosiy funksiyalarini bajaradi (4-rasm):



4 - rasm. Tarbiya metodlarining asosiy funksiyalari

Bu funksiyalar ta'lif metodini qo'llash jarayonida, bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o'zaro singib ketadi. Misol uchun, tashxisli funksiya o'qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalaniishi evaziga bajariladi. "Ta'lif metodi" atamasi bilan birga ko'p hollarda "Metodik usul" (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lif

metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi. Har bir ta'lif metodi muayyan ta'lif usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi. Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o'qituvchi faoliyatida tez-tez qo'llaniladigan usullarni ajratib ko'rsatish mumkin (5-rasm):



5 - rasm. Metodik usullarning turlari

Har bir metod ma'lum ta'lifiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo'lishi mumkin. Universal ta'lif metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta'lif metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin. Ta'lif metodlarini tanlash quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- didaktik maqsad asosida;
- ta'lif mazmuni asosida;
- o'quvchilarning o'quv ko'nkmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida;
- o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.

O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lif metodlari majmuasi boshlang'ch inflardan yuqori sinflarga o'tish asosida o'zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo'llash chastotasi oshsa, ayrim metodlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lif metodlaridan foydalanish ko'lami, holati o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Didaktikada munozaralarga sabab bo'layotgan yana bir muhim obyekt ta'lif metodlarining tasnididir. Ta'lif metodlari tasnidisi ularning ma'lum belgilari bo'yicha tartibini ifodalovchi tizimdir.

Hozirgi vaqtida o'nlab ta'lif metodlari ma'lum, ekanligini ta'kidlagan holda I.P.Podlaso'y fikrini quyidagecha davom ettiradi, "Bugungi kunda yetakchi sanaluvchi didaktik g'oya yagona va o'zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini tushunishga yordam beradi. O'qitish – favqulodda harakatchan, dialektik jarayon. Metodlar tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo'shqin bo'lishi, metodlarni qo'llash amaliyotidagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olishi kerak".

Ta'lif metodlarini tanlash muammosi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko'p bo'lsada, bu borada yagona to'xtamgan kelinmagan. Ushbu o'rinda, ta'lif amaliyotida qo'llanilib kelayotgan metodlar tizimi (tasnifi)ga to'xtolib o'tamiz (6-rasm).

Ta'lif metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo'yicha tizimlashtiriladi.

M.A.Danilov va B.P.Esipovlarning qarashlariga ko'ra

1. Bilimlarni egallash metodlari.
2. Ko'nikma va malakalarni shakkllantirish metodlari.
3. Bilimlarni qo'llash metodlari.
4. Nazorat (bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va tekshirish) metodlari

6 -rasm. Ta'lif metodlarining tasnifi

Mualliflar tavsiya etilayotgan metodlarni quyidagi chizma bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar:

**1. Materialni og'zaki bayon qilish** (hikoya, tushuntirish, muktab ma'rufasi). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'yash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositali sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, o'quvchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

**2. Suhbat**. O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayoni: ular e'tiboriga havola etilayotgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid obyektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'yash va savollarga

to'g'ri javob tayyorlashdan iborat. O'qituvchining rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Suhbat metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar.

**3. Darslik (umuman, kitob) bilan ishlash (umumlashma va xulosalarni anglash, ularni xotirada saqlashga xizmat qiladi).** Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib bosma matn xizmai qiladi. O'qituvchining rahbarligi esa topshiriqni ifodalash, faoliyat maqsadini belgilash, o'quvchilarga darslik bilan ishlashning yangi usullarini o'rgatish, o'zlashtirilgan bilimlarning tushunilish va mustahkamlilik darajasini tekshirish kabi ko'rinishlarda aks etadi.

**4. O'qituvchilarining kuzatuvu** (sinfda va sinfdan tashqari (shu jumladan, sayohat va ekskursiyalar) jarayonlarda). O'quvchilarining o'quv predmetlari bo'yicha o'zlashtirish holati va hodisalarini kuzata borib, turli fan o'qituvchilarining ko'rsatmalari bo'yicha ularni qismlargacha taqsimlab har bir o'quvchining o'ziga xos, o'xhash va muhim jihatlarini aniqlashga yo'naltiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib muayyan predmet (yoki jarayon), tajriba, model, xaritalar xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi kuzatish vazifasini belgilash, uni ma'lum shaxs zimmasiga yuklash, obyektni belgilash, umumiyo rahbarlikni olib borish, qismlargacha atish, asosiylarini aniqlash va umumlashtirishdan iboratdir.

**5. Laboratoriya ishlari.** Mazkur jarayonda aniq vazifa, ya'ni, ma'lum sharoitda muayyan hodisalarini kuzatish yuklanadi. O'quvchilar hodisalarini kechish jarayonini kuzatadilar va tahlil qildilar. Bilimlar manbai kuzatilayotgan hodisalar va ularning kechish jarayonidir. O'qituvchi vazifa mohiyatini ifodalaydi, o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan qurollantiradi, umumiyo jarayon va bosqchlarni kuzatish yo'llari hamda yakuniy xulosa chiqarishni o'rgatadi.

**6. Mashq (aqliy va faoliyatli mashqlar).** O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xosligi, nazariy asoslar o'zlashtirilgach, ayrim materiallardagi o'xhash harakatlarning ko'p bora takrorlanishi kuzatiladi. Bilimlar manbai: o'zlashtirilgan bilimlar va xususiy tajriba sanaladi.

O'qituvchi mashqni bajarish uchun joy hamda vaqtini belgilaydi, topshiriqni ifodalaydi, uni bajarish bosqichlarining borishini nazorat qiladi, boshqaradi, shuningdek, yakuniy natijalarini tekshiradi.

7. **Ijodiy mashq.** Ushbu metod o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan mustaqil yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlardan tavsiflanadi. Bilimlar manbai va materiali sifatida avval egallangan ijodiy ishlarni tajribasi, mayjud bilimlar, kuzatuvlari, shaxsiy tajriba, o'qilgan hikoya, ijtimoiy-foydali ishlarni boshqarish kabilalar qayd etiladi.

O'qituvchining rahbarligi: nazariy materiallarni o'zlashtirishini ta'minlash, mavzuni ifodalash, ijodiy ishlarni xarakterini belgilash, ularning bajarilishini nazorat va tahlil qilish, sintezlash, xatoni ko'rsatish hamda to'g'rilashdan kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Keltirilgan tasnif "Bilimlar manbai" bo'yechta tizimlashtirilgan metodlar – og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni u yoki bu darajada o'zida mujassamlashtiradi. Biroq, M.A.Danilov va B.P.Espipovlar asosiy e'tiborni "Ta'lim metodini to'g'ri tanlash"ga qaratishadi. Gap shundaki, sobiq Sho'ro umumta'lim maktabalarining o'quv jarayonida metodlarning cheksiz ko'pligi, hatto ularni bir necha tasnif bilan ham qamrab olish mumkin emasligi, shu boisdan ham o'quv-tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatining bosh omili va eng muhim to'g'ri, asoslangan metodni tanlash hisoblangan, Ana shu "G'oya" mohiyat jihatidan noto'g'ri bo'lishiga qaramay, o'n yillardan davomida didaktika "Rivoji"da muhim o'rinni tutib keldi. Nihoyat, har ikki tasnif bilimlar manbai bo'yechta ham, didaktik maqsadlar bo'yechta aniqlangan ta'lim metodlari tizimi muktab amaliyotining asosiy muammosini hal eta olmasligiga tanqidiy yondashildi, ularni qo'llash ta'lim sifatining yuqori darajasini ta'minlaganligi anglab etildi va bu boradagi izlanishlar davom ettirildi. O'tgan asrning 80-yillardan boshlab o'quvchilarning bilish faoliyatini xarakteriga mos ta'lim tasnifi yaratildi (7-rasm).

I.Ya.Lerner va M.N.Skatkinlarning qarashlariga ko'ra

Izohli-tasvirli.  
Reproduktiv.  
Evristik yoki qisman-izlanuvchan muammoli bayon.

7 - rasm. Ta'lim metodlarining tasnifi

Ushbu metodlar, mualliflarning ta'kidlashlarcha, bir-biridan o'quvchilarning ta'lim mazmuni turlarini o'zlashtirishda amalga oshadigan bilish faoliyatlarini xarakteri va o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini tashkil etuvchi o'qituvchi holati bo'yicha farqlanadi. Izohli-tasvirli ta'lim metodlari (boshqa nomlanishi axborotli-repsepsiya)ning mohiyati: odatda nazariy bilimlar tayyor holda uzatiladi, o'quvchilar esa ularni qabul qiladilar (repsepsiya). Bu yo'lda turli ta'lim vositalari (shu jumladan, ko'rgazmali vositalar)dan foydalananidir. O'qituvchi faoliyati bunda nafaqat axborotlarni uzatish, balki ularning o'quvchilar tomonidan qabul qilinishini ham tashkil etishdan iborat bo'ladi. Izohli-tasvirli metoddan ta'lim jarayonlarida foydalananidagi quyidagi holatlardan yuzaga keladi (1-jadval):

#### Izohli-tasvirli metoddan ta'lim jarayonlarida foydalanish

1-jadval

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
-tushuntirish;	-axborotlarni qabul qilish;
-harakatni ko'rsatish;	-o'quv materialini tushunib olishga intilish va dastlabki ma'lumotlarni yodda saqlash;
-dalillardan xabardor qilish;	
-o'quvchining materialni anglab etishini rag'batlanirishga yo'naltiruvchi usullar;	-o'quv materialini tushunish
-turli didaktik materiallardan foydalanish	

Reproduktiv ta'lim metodlari yuqorida keltirilgan metodlardan quyidagi unsurlarning mavjudligi bilan farqlanadi: o'qituvchining bilimlarni tushuntirishi,

ularni o'quvchilarning yodida saqlanishini ta'minlashi va qayta ishlab chiqishi (reproduksiya).

O'zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo'lishiga ularni ko'a marta takrorlash evaziga erishiladi. Mazkur metod ta'limga barcha bosqchlari, asosan, boshlang'ch sinflarda o'qish va yozish, arifmetik harakatlarni amalga oshirish ko'nikmalarini o'zlashtirishda muhim o'rinni tutadi.

Reprodukтив методдан foydalanishda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar tashkil etiladi (2-jadval):

### Reprodukтив методдан foydalanish

2-jadval

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
-avval o'zlashtirilgan mavzu, paragraf yoki bob bo'ycha so'rov;	-turli kontekstsda bilimlarni qayta ishlash;
-o'quvchilar uchun turli mashqlarni saralash va taklif qilish;	-namuna bo'ycha topshiriqlarni bajarish;
-masalalarni echishdagi o'quv harakatlarining namunasi va algoritmini namoyish qilish;	-mashqlarni bajarish;
-o'quv harakatlari ko'nikmasi va malakasini shakllantirish	-namunaviy masalalarni echish usullarini egallah;
	-namunaviy masalalarni echish algortmini egallah

Evristik ta'limga metodini qo'llashda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish talab etiladi. O'qituvchi bilimlarning bir qismini o'quvchilarga ma'lum qiladi, qolganini esa o'quvchilar bilish topshiriqlarini echish jarayonida savollarga javoblar topish asosida o'zlashtiradi, o'zları bilimlarni mustaqil egallahadi. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilishi, ularni bajarishda o'quvchilarning ketma-ketlikka rioya etishlari muhim metodik jihat sanaładi. Shu bois mazkur metod qisman izlanuvchan metod ham deb ataladi.


Evristik metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi (3-jadval):

### Evristik metodni qo'llash

3-jadval

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
-o'quvchilarni masalaning mohiyatini o'rganishga jalb etish;	-evristik suhbatda qatnashish;
-yechim rejasini aniqlashda mulohaza yuritish namunasini ko'rsatish;	-masalani yechish rejasini olg'a surish;
-masalani bosqchlarga ajratish;	-izlanuvchan harakat usullarini egallah;
-evristik suhbat	-masalalar yechish yo'llarini izlab topish

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va echishdan iborat bo'lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'lli balki, shu bilan birga o'quv yo'lli hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:



8- rasm. Muammoli o'qitish metodining tuzilmasi

Muammoli ta'limga konsepsiyanining asosiy tushunchalari "Muammoli vaziyat", "Muammo", "Muammoni topish" kabilalar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki, muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib, o'zida sub'ektning unik yoki qisman tushunib etilgan muammoni ifodalaydi, uni bartaraf etish yangi bilimlar, usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ch ma'lumotlar bo'limasa, shubhasiz, muammoli vaziyat yechimini u qabul qilmaydi, ya'ni, muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muammo

mohiyatini tushunib etilishi, ifodalanishi, mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi, biroq, barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi. Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammo yechimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa, u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni, demak, muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa, uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni, uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda u boshqa ko'rsatkehlarni qidiradi va shu muammo bo'yechi yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi. Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi (4-jadval):

Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llash

4-jadval

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
-o'quv materialiga oid tafovutlarni taklif etishi;	-o'quv materiali mohiyatining anglab etishi;
-muammoli vaziyatlarni tuzish;	-muammoli vaziyat yuzasidan fikrlesh;
-muammoning mavjudligini aniqlab berish;	-mavjud bilimlar va tajribani qayta tiklash;
-muammoli topshiriqlarni loyihalash	-muammoli masalaga o'tkazish; topshiriqni bajarish

Tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda, o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi, o'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni

o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yechi boshqa vaziyatlar bilan taqoslaydi. O'rnatilgan masalani echish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi, tajribasini egallaydilar. Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi (5-jadval):

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llash


5-jadval

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
-o'quvchilarga o'quv muammosini taklif etish;	-o'quv muammolari mohiyatini anglab olish;
-o'quvchilar bilan hamkorlikda tadqiqot masalasini o'rnatish;	-tadqiqot muammosini o'qituvchi va o'quvchilar bilan birgalikda o'rnatishda faoliyati tashkil etish;
-o'quvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish	-ularni echish usullarini topish; -tadqiqiy masalalarni echish usullarini o'zlashtirish

Evristik va tadqiqotchilik metodlari o'quvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra bir muncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzuksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan.

Shuningdek, buyuk didakt I.Ya.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan. Didaktikada ta'lim metodlarining binar (ikki)li va ko'pbinarli omil

asosida tizimlashtirishga bo'lgan urinislarni ham kuzatish mumkin. Chunonchi. M.I.Maxmutov tomonidan ta'lif metodlari va o'qish metodlari ajratiladi (9-rasm):



9- rasm. Ta'lif metodlarining tasnifi

Shunday qilib, juft (binar)li metodlar vujudga keldi:

- 1.Axborotli-malumotli va bajaruvchi.
- 2.Tushuntiruvchi va reproduktiv (nomahsul).
- 3.Yo'riqli-amaliy va produktiv (mahsuldor)-amaliy.

10-rasm. Juft (binar)li ta'lif metodlarining tasnifi

Shuningdek, V.F.Palamarchuk va V.I.Palamarchuklar ta'lif metodlarining uch o'Ichovli modelini taklif qilishgan. Unda bilimlar manbai, o'quvchilarning bilish faolligi va mustaqillik darajasi hamda o'quv-bilishning mantiqiy yo'li yaxlit tarzda chog'ishtiriladi.

S.G.Shopavalenko ta'lif metodlari tasnifini to'rt belgi asosida asoslovchi quyidagi tetroeddik yondashuvni taklif etadi:

- mantiqiy-mazmunli;
- manbal;
- mazmunli;
- tashkiliy boshqaruvchi.

I.P.Podlaso'y birmuncha keng tarqalgan ta'lif metodlari tasnifiga yaqinlashar ekan, quyidagi fikrni ta'kidlaydi: "Boshqa bir qator ta'lif metodlari tasnisi ham mavjud. Masalan, nemis didakti L.Klinberg ta'lif jarayonida metodlarni hamkorlik

shakllari bilan uyg'unlashtirishga alohida urg'u beradi" va quyidagi metodlarni ko'rsatadi (6-jadval):

L.Klinbergning ta'lif jarayonida metodlarni hamkorlik shakllari bilan uyg'unlashtirish taklif etgan metodlari

6-jadval

Monologik metodlar	Hamkorlik shakllari	Diologik metodlar
Ma'ruza	Individual	Suhbatlar
Hikoya	Guruhi	Intervyu
Namoyish	Frontal	-
-	Jamoaviy	-

Ta'lif metodlari turli shakllar hamda xilma-xil ta'lif vositalari yordamida joriy etiladi. Ta'lif shakllari ta'lif jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy ko'rinishidir. Bugungi kunda ta'lif muassasalarida quyidagi ta'lif shakllaridan samarali foydalaniib kelinmoqda: ma'ruza, seminar, amaliy mushg'ulot, uchrashuv, taqdimot, mayohat, o'quv konferensiyasi va boshqalar.

Ta'lif jarayonida ta'lifning samaradorligini ta'minovchi muhim clementlardan biri sifatida ta'lif vositalari e'tirof etiladi.

Ta'lif vositalari sirasiga quyidagilar kiradi: texnik hamda axborot qurilmalari (dioproektor, kinedoskop, uskunalar, radio, televidenie, kompyuter, audio hamda video magnitafonlar), laboratoriya jihozlari (kolbalar, probirkalar, kimyoiy reaktivlar, mikroskop), xarita, maketalar, diagrammalar, plakatlar, rasmlar, chizmalar va hokazolardan foydalilanadi.

N.S.Sayidahmedov tomonidan asoslangan ta'lif metodlari tasnifi asosida didaktik jarayon nazariysi yotadi. Ma'lumki, didaktik jarayon har qanday pedagogik texnologiyaning asosi sifatida o'zida quyidagi uchta komponentni mujassamlashtiradi:

- motivasion bosqeh;
- o'quv faoliyati;
- boshqaruv.

Demak, didaktik jarayon tuzilmasiga mos holda ta'lim metodlarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- I. O'qish va mehnatga rag'batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari.
- II. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- III. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari.

O'z navbatida, har bir guruh ilmiy asosda kichik guruhlarga ajratiladi (7-jadval):

#### Didaktik jarayon tuzilmasiga mos holda ta'lim metodlari

7-jadval

I. O'qish va mehnatga rag'batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari		
I kichik guruh	II kichik guruh	III kichik guruh
O'qishga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar  biluv o'yinlari; o'quv bahsi; hissiy-axloqiy kechinmali vaziyatlar yaratish; appersepsiyalı (idroknning tajribaga bog'liqligi) vaziyatlarni yaratish; biluv yangiliklari vaziyatlarini yaratish	O'qish va mehnatda burch hamda javobgarlikni rag'batlantiruvchi metodlar  o'qish va mehnatning muhimligiga ishontirish; talablarni ifodalash; talablarni bajarish uchun mashq; o'qishdagi rag'bat; o'qishdagi kamchilik uchun tanbeh	Mehnatga va muayyan kasbga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar  g'oliblarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish; o'quvchilarning ishlab chiqarish vositalarini mustaqil boshqarishga intilishlarini rag'batlantirish; ish joyidagi xulqini rag'batlantirish

II. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari		
I kichik guruh	II kichik guruh	III kichik guruh
O'quv-bilish faoliyatining mo'ljal asoslarini vujudga keltirish metodlari  Og'zaki: hikoya; suhbat; tushuntirish; ma'ruba; yo'riqnomma	O'quv-bilish faoliyatini bajarish metodlari  Amaliy: mashq; o'quv-ishlab chiqarish tajribasi; o'quv-unumli mehnat; kitob bilan ishlash; yozma ish	Mehnatda va mehnatda nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari  Og'zaki: individual so'rov; yalpi so'rov; dasturli og'zaki so'rov
Ko'rsatmali: illyustrasiya; namoyish	Izlanuvchi: qisman-izlanuvchi tadtqiqotchilik; algoritmlik; tashxisli	Yozma: nazorat-yozma ish; yozma sinov (test); yozma imtihon; dasturli yozma sinov (test); laborotoriya-amaliy; nazorat laborotoriya ishi; mashinali nazorat; unumli mehnatni son va sifat jihatdan baholash

III. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari
Bilish faoliyatini kuzatish metodlari: bevosita; bilvosita yo'riqnomma yordamida; o'z-o'zini nazorat Nazorat metodlari: o'qituvchi topshiradi; dasturli qo'llanmadan soydalaniлади; ta'limning texnik vositalari yordamida O'quv faoliyatini tuzatish (korreksiya) metodlari: tezkor; yakuniy natija bo'ycha; foiz ko'rsatkchi bo'ycha

Shunday qilib, taqdim etilayotgan ta'lim metodlari tizimi nazariy-amaliy jihatdan asoslangan va mazkur tizim yaxlit o'quv-tarbiya jarayonini qamrab oladi. Ushbu tizim bir qarashda akademik Yu.K.Babanskiy tomonidan asoslangan ta'lim metodlari tizimiga o'xshash. Biroq, Yu.K.Babanskiy tasnifiga ko'ra ta'lim jarayoniga nisbatan kibernetik yondashuv maqsadga muvofiq, unga ko'ra har qanday murakkab faoliyat, shu jumladan, ta'limiy faoliyat ham quyidagi uchta tarkibiy qismidan iboratdir:

tashkiliy;

rag'batlantiruvchi;

nazorat.

Ana shu asosida ta'lim metodlari quyidagcha guruhlanadi:

O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari.

O'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivlash metodlari.

Nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

Didaktik jarayon nazariyasi asosida ko'rigan o'qish metodlarining tasnifi kehik guruhlar tarkibi, soni va unga kiritilgan metodlar nomenklaturasi hamda funksiyalari bilan kibernetik yondashuvli tizimdan tubdan farqlanadi va o'quv-tarbiya jarayonining metodik jihatdan birmuncha yuqori darajasini ta'minlaydi.

*Pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish muammolari quyidagilardan iborat:*

\*ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini tadqiq etishning metodologik va dasturiy ta'minotini yaratish;

\*pedagogik kvalimetriya metodlari vositasida tahsil oluvchilarning ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha DTS bilan me'yorlangan talablar asosida bilim, ko'nikma, malakalar va kompstentsiyalarni egallaganlik darajasini diagnostika qilish sohasida fundamental tadqiqotlar o'tkazish;

\* uzuksiz ta'lim tizimining umumiyligi o'rta ta'lim, o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi, olyi ta'lim tizimida ta'lim - tarbiya jarayonining sifati monitoringini o'tkazish dasturini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;

\* olyi ta'lim muassasalarida o'qitiladigan kurslar bo'yicha nazorat - o'lebor materiallarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish jarayonida My test dasturi vositasida fanlar bo'yicha nostandard adaptiv test topshiriqlarini tuzish va amaliyotga joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim - tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini aniqlash, mayjud kamchiliklarga bar ham berishga zamin tayyorlaydi.

I.O'quv maqsadlariga asoslanganlik, Haqiqiylik, Haqqoniylilik, Ishonchlik, Qulaylik.

Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o'qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir.

Ta'lim turlari (yunoncha "Species" alohida, o'ziga xos xususiyatga ega) o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turleha yondashuvdir. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

urxaik (ibtidoiy);

qadimgi (Shumer, Misr, Xitoya eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);

avestiy (Baqtriya, Sug'diyona, Xorazmda – eramizdan avv. VII-VI asrlar);

yunon (Ellins, rim-yunon, rim – eramizdan avv. V-I asrlar);

o'rta asr (dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar);

yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o'qitish muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovasion);

xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterli o'qitish, masofali, Internet yordamida o'qitish va shu kabilalar).

Avesto g'oyalariga ko'ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda, Markaziy Osiyo xududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganda tashkil topdi. "Avesto" zardushtiylik muqaddas manbai bo'lib, u o'z davringin ensiklopediyasi hisoblagan. "Avesto" g'oyalariga binoan bolalar va yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash quyidagilardan iboratdir:

diniy va ma'naviy tarbiyalash;

jismoniy tarbiya;  
o'qish va yozishga o'rgatish.

Yoshlarni tarbiyalashda ona erga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini uyg'otish muhim yo'nalish hisoblangan. "Avesto"da barkamol shaxs obrazni haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan. Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Sukrot (cramizdan avvalgi 469-399 er. avv. yillarda) va uning o'quvchilari tomonidan keng qo'llagan yordamechi savollarga javob topish metodi hisoblanadi. Bu metod sugrotcha suhbat metodi nomini olgan. O'qituvchi (faylasuf) o'quvchida qiziqish, bilishga intilishni uyg'otadigan savoldan foydalanadi, mulohaza yuritish asosida o'quvchini voqeа-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O'qituvchining mulohazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirilib turiladi. Sugrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

Dogmatik o'qitish – jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda, g'arbiy Evropada, dogmatik o'qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rinni tutgan. Musulmon pedagogik konsepsiysi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo'lgan. Komillikkabimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. "Haqiqiy g'oyalar" (Abu Ali Ibn Sino."Donishnoma" "Bilimlar kitobi"), haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishga ikki to'siq xalaqit qiladi: so'zlarining aniq va fikrlarining tushunarli emasligi. Mazkur kamchilikni bartaraf etishda logika alohida o'rinni egallaydi. Musulmon mamlakatlarida bolani o'qitish va tarbiyalashda u tomonidan qur'onning arab tilida yod olinishi bilim eshallashning asosiy shart hisoblangan. Bundan tashqari XV-VII asrlarda, bir qator maktablarda fors tili ham o'rgatilgan. Asosiy ta'limi bolalar maktablar – boshlang'ch maktabda olganlar (muqaddas kitobni o'qish va talqin qilish mashg'ulotlari, o'qish, yozish va hisobga o'rganganlar). Dogmatik o'qitishda o'quvchilarning asosiy faoliyatları tinglash, o'qish, yod olish, eslab qolish va matnni so'zma-so'z takrorlashdan iborat bo'lgan.

Oliy ta'lif madrasalarda berilgan. Movarounnahrdagi eng yirik o'quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va g'ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma'rifiy markazlarining rivojlanishi XV-VII asrlarga to'g'ri kelgan.

Madrasalarda, o'qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tillini ham o'rganganlar. O'quv rejasiga grammatika, qur'on, Hadis, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O'qitish asosan og'zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o'quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko'p qirrali, turli-tuman bo'lib boradi. Maktab ta'lifi erkaklar uchun mo'ljallangan. Ammo har bir badaylat oila qiz bolani o'qitish uchun ugya o'qituvchini taklif etgan.

### **§3.Ta'lif jarayoni yakunida ta'lif oluvchi tomonidan hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar**

Dogmatik o'qitish o'rniiga asta-sekin o'quv jarayonida ko'rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta'lif shakllari qo'llanila boshlandi.

Ayni vaqtida, respublika hududida, faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta'lif muassasalarida ta'lifning eng muhim quyiagi uch turidan foydalanilmoqda: tushuntiruvechi-namoyish etuvchi ta'lif (u an'anaviy yoki axborot beruvchi ta'lif ham deb ataladi);

muammoli o'qitish;  
dasturlashtirilgan ta'lif yoki kompyuterli o'qitish.

Bugungi kunda o'rta asrda keng qo'llanilgan ta'lif turlari – dogmatik va sxolistik o'qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda.

Tushuntiruvechi-namoyil etuvchi ta'lif nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko'rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish janaladi. Tushuntiruvechi-namoyish etuvchi ta'lif turi vaqtini tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta'lif jarayonini ancha samarali boshqarishni ta'minlaydi. Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya'ni, "tayyor" bilimlarni berish va o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldar fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish, differensasiyalashtirish imkoniyatlarining kamligi..

**Muammoli o'qitishda** o'quv muammolarini hal etish jarayonida bitimlarni mustaqil egallash, o'quvchilarining ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etildi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki o'quvchilarni faol idrok etish faoliyatiga jalg etish bilan necha bosqchlardan iborat bo'ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak. Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqchi hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O'quv muammosi bir qadar qiyin, lekin o'quvchilarining kuchi etadigan bo'lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqch yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqchida o'quvchilar savol bo'ysha mavjud muammoni ko'rib chiqqildilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning eterli emasligini aniqlaydilar va etishmayotgan axborotni topishga intiladilar.

Uchinchi bosqch muammoni echish uchun zarur bo'lgan bilimlarni turli usullar bilan egallahsga qaratilgan. U hayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi ("Men nima qilishni bilaman!"). Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarini tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakaturni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqehlari keladi. Muammoli topshiriqlar savollari, o'quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Muammoli savoldi izlash va javoblar turli variantlari ko'zda tutiladi, ya'ni, oldindan tayyor javob bij erda mumkin emas. Muammoli savolga misool: "Nima uchun temirdan yasalgan mi? suvda cho'kadi, temirdan yasalgan kema esa cho'kadi?".

**Muammoli masala**, uni echish yo'llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o'quv-o'rghanish topshirig'idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi.

Muammoli vaziyatga misol: "6 ta gugurt qutisidan tomonlari bir gugurt qutisi kattaligiga teng 4 ta bir xil tomonli uchburchaklar yasang". Muammoli o'qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish asosida bilimlarni mustaqil egallash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, mahsuldar fikrlashini rivojlantirish, o'qitishning mustahkam va amaliy natijalari. Kamchiliklari o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'pi

yarlanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil echish imkoniyatini har bir o'quvchiga taqdirm etishning qiyinligi bilan belgilanadi.

**Dasturly ta'lim** (dasturlashtirilgan o'qitish) harakat (operasiya)lar ketma-ketligi ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi turnir termini kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o'quv jarayonini yaxshilashdan iborat. Bunday o'qitish asosini kibernetik yondoshish etadi. Unga binoan o'qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturly ta'lim yangi didaktik, psixologik va kibernetik g'oyalar asosida XX asrning usullari boshlarida yuzaga keldi. U o'quvchining bilim egallashi yo'lida har bir qadamning nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida, o'z vaqtida yordam qilish, qiyinchiliklarni oldini olish, qiziqishini yo'qotmaslik va salbiy usullarning oldini olishga imkon beruvchi o'quv jarayonining texnologiyasini qurishga yo'naltiradi.

Dasturly ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialining alohida qismalgarda ajratilishi;
- o'quv jarayonining bilimlarni o'zlashtirish bo'ysha bilimlar porsiyalari va fikrlash usullaridan iborat bo'lgan ketma-ket qadamlardan iborat bo'lishi;
- har bir qadamning nazorat bilan yakunlanishi (savol, topshiriq va shu kabilar);
- nazorat topshiriqlarini to'g'ri bajarganida o'quvchining yangi materiallarni olishi va maybatdag'i qadamni bajarishi;
- to'g'ri javob topganda o'quvchining yordamchi va qo'shimcha tushuntirishlarni qilishi;
- har bir o'quvchining mustaqil ishlashi, kuchi etadigan mavzu bo'ysha o'quv materialini egallaishi;
- harsha nazorat topshiriqlari bajarilish natijalarining qayd etilishi (ular o'quvchilarining o'zlariga (ichki qayta aloqa) va pedagogga (tashqi qayta aloqa) ma'lin qilinadi);
- o'quvchining ta'lim tashkilotchisi va qiyinchilik yuzaga kelganda yordamchi (mavzubatchi) sifatida ishtiroy etishi, individual yondoshuvning amalga oshirilishi;

ta'lim jarayonida o'qitishning o'ziga xos vositalarining keng qo'llanilishi (dasturlashtirilgan o'quv qo'llanmalari, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o'qitish mashinalari).

**Kompyuterli ta'lim.** O'qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi - shaxsiy elektron-hisoblash mashinalari rivojlanishi kompyuterli (kompyuterlashtirilgan) ta'limning shakllanishiga imkon berdi. Maxsus ta'lim dasturlari bilan ta'minlangan kompyuterlarni deyarli barcha didaktik masalalar; axborotni berish, o'qitish jarayonini boshqarish, natijalarini nazorat qilish va tuzatib borish, mashqlarni bajarish, o'quv jarayoni rivojlanishi haqida ma'lumotlarni to'plash va boshqalarni hal etishga moslashtirish mumkin. Rivojlangan mamalakatlarda kompyuterlardan ta'limdan foydalanishning keng rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlashga imkon berdi:

alohida o'quv fanlari (matematika, tabiiy fanlar, ona tili, chet tili, geografiya va boshqalar) bo'yech o'zlashtirish darajasini oshirishni ta'minlash;

umumiy kognitiv (idrok etish) qobiliyatları – qo'yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni egallash (axborotni to'plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlanirish, u yoki bu ko'nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e'tiborni kuchaytirish.

Bundan tashqari kompyuterlardan avtomatlashtirilgan test sinovlari o'tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalaniladi. Bu o'qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi, natijada pedagogik jarayonning samaradorligi oshadi. Dasturiy va kompyuterli ta'limlar o'qitish algoritmlarini ajratishga asoslanadi. Algortm to'g'ri natijaga olib keluvchi ketma-ket amallar tizimi sifatida bilim, ko'nikma va malakalarni to'la o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv faoliyati tartibi va ketma-ketligini o'quvchiga ko'rsatadi. O'quv dasturlari va kompyuterli ta'limning samaradorligi fikrlash faoliyatini boshqarish algoritmlarining sifatiga bog'liq. Yomon tuzilgan algortmlar kompyuterli o'qitishning sifatini keskin pasaytiradi.

Kompyuterli ta'limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

o'qitish dasturlarining sifati;

hisoblash texnikasining sifati.

Bu sohada ham muayyan muammolar mavjud, ya'ni, o'quvchilarning idrok etish faoliyatini tashkil etish qonuniyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan ta'lim dasturlari hozircha juda kam, ularni tuzib ishlab chiqish ko'p vaqt va kuch talab etiladi, shu bois ularning narxi ham qimmat. Respublika ta'lim muassasalarida kompyuterlar soni va ulardan foydalanish ko'lami ortib va takomillashib bormoqda, biroq, bu sohada hali jahon tajribasidan ortda qolish holati bartaraf etilgani yo'q.

#### **§4. Amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulq**

Dunyoda shunday ta'lim tizimi yuzaga kelganki, uni ko'pchilik "Qo'llab turuvchi, ta'minlovchi, yordamchi o'qitish" deb ataydilar. U odamni kundalik muammolarni hal etishga tayyorlashga asoslangan bo'lib, shaxsning faoliyati va hayot tarzini qo'llab turish uchun mo'ljallangan. Ayni vaqtida "Innovasion" (yangilik kiritish) ta'limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur ta'limning quyidagi o'ziga xos xususiyatlar mavjud:

bu oldindan ko'ra bilish, ya'ni, o'quvchinini avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo'ljallashga o'rgatishdan ibora bo'lib, o'quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko'zlash, modellashirish va loyihalashtirish amalga oshira olishi zarur.

o'quvchining hamkorlikda ta'lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyonи, madaniyat, sivilizasiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirot etishini ta'minlash.

Keyingi yillarda masofaviy ta'lim (lotincha distantia – masofa) – masofadan turib o'qitish keng rivojlandi.

Masofaviy o'qitish – ta'lim texnologiyasi bo'lib, unga ko'ra o'quvchi qaerda va qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar muayyan ta'lim muassasasi ta'lim dasturini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari: darsliklar va boshqa bosma nashrlar, o'rganilayotgan materialni kompyuter telekommunikasiyalari orgali uzatish, videotasmalar, munozaralar va seminarlar o'tkazish, regional va milliy televidenie hamda ravigo

orqali o'quv dasturlarini namoyish etish, kabelli televidenie va ovozli pochta, ikki tomonlamalni videokonferensiylar, telefon orqali qayta aloqa bilan bir tomonlama videotranslyasiya va boshqalarning xizmatiga tayaniladi. Masofali o'qitish o'qituvchilarga vaqtini tejashda qulaylik yaratadi, asosiy faoliyatidan ajralmagan, jumladan uzoq rayonlarda yashovchilarga o'qish imkonini yaratadi, o'quv fanlari erkin tanlanadi, fan, ta'lif va madaniyat mashhur namoyondalari bilan munosabatlari imkonini beradi. O'quvchi va o'qituvchilarning faol o'zaro munosabatlari, mustaqil ishlashni faollashtirish va o'quvchilarning mustaqil bilim olish ehtiyojlarini qoniqtirishga xizmat qiladi.

Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'lifni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqechi ta'lifni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayni vaqtida ta'lifning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhi, sinf-dars, leksion-seminarli va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari.

Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

- individual;
- sinf-darsli;
- ma'ruza-seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli ta'lifning individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgililar yordamida o'zining tajribalarini yoshlarga o'rgatgan. O'qituvchi va o'quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanimlib kelingan. Individual ta'lif bir qator afzallikkalarga ega, shuning uchun bu usuli bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning usutunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to'la individualashtirish, aniq bir masalani hal etishda

uning har bir harakati va operasiyalarini kuzatib borishga imkon berishidan iborat. Individual ta'lif o'qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo'lishini talab etadi.

Individual o'qitishning ustunliklari bilan bir qatorda bir qator kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

vaqtning tejamli emasligi;

o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);

boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);

jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Mazkur sabablar XVI asrdan boshlab individual o'qitish usulining ahamiyati pasayib, uning o'rnini ta'lifning individual-guruhi shakli egallashiga imkon berdi.

Ta'lifning individual-guruhi shaklidagi Evropada, XVI asrda keng foydalana boshladilar. Markaziy Osiyo davlatlarida bu usuldan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi, bu davrda o'quvchilar uchun asosiy o'quv qo'llanma zardushtiylikning muqaddas manbai "Avesto" (eramizdan avvalgi VII-XVI asrlar) bo'lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoali o'qitish bilan birga olib borilar edi. O'qituvchi "Avesto" kitoblaridan birini ochadi va o'quvchilar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o'qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o'qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar. Aqliy mashqlar o'qituvchining o'quvchi bilan erkin suhbat davomida olib borilgan. Jismoniy tarbiyalash individual va jamoali mashg'ulotlar shaklida amalga oshirilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat bo'lgan. Otta yurish, ov qilish, qilchdan foydalanishni bilish, suvda suzish, yugurish, nayza otish va shu kabilar harbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta'lif olish jarayoni kun chiqqandan kun botgungacha davom etgan, uy vazifalari mavjud bo'lmagan.

XI asrdayoq Abu Ali ibn Sino o'zining "Tadbiri manzil" nomli ilmiy asarining maxsus "Amuzish va parvarishi modrasas farzand" ("Bolalarni maktabda o'qitish va

tarbiyalash") bo'limida o'quvchilarga jamoali o'qitish haqida quyidagi tavsiyalarni beradi:

1) agarda o'quvchilar birgalikda o'qisalar, ular zerikmaydilar, fanni o'rganishga qiziqish kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o'zaro musobaqaqlashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o'qishi yaxshilanishiga yordam beradi.

2) o'zaro suhbatlarda o'quvchilar kitobdan o'qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma'lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar;

3) bolalar birgalikda, yig'ilganlarida bir-birilari bilan do'stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar; ular faqatgina musobaqaqlashmaydilar, balki bir-birlariga o'quv materiallarini o'zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bolalar mag'rurlanadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o'rganadilar.

Burhoniddin Zarnuji (XII asr) "Bilim olish yo'lida o'quvchiga maslahatlar" nomli o'zining ilmiy asarida dars olib borish bo'yeha tavsiyalar beradi. Uning ko'p yillik dars o'tish tajribalari asosida mazkur ilmiy asar yaratilgan va XX asrgacha o'ziga xos pedagogika darsligi sifatida Markaziy Osiyo madrasalarida soydalanilib kelingan. Asarda mактабда dars taxminan bir soatlar davom etishi kerakligi yoziladi. O'qituvchi mактабда darsga tushinish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan o'quv materiallarini tanlab olishi, darsda o'rganilagandigan materiallarni tushuntirib berishi kerak. O'quv materiali shunday tanlanishi kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o'zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo'lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi.

XV asrda jamoali o'qitishni tashkil etish g'oyasini Muhammad Tarag'ay Ulug'bek davom etiradi. Mutafakkir o'zining madrasalarida individual mashg'ulotlar tizimini bekor qiladi va "Jamo" sinf-dars tizimiga yaqin bo'lgan shaklini joriy qiladi. Umumiylar 50-70 nafar kishidan iborat katta guruhga odatda, o'z sohasida mashhur bo'lgan olim mudarris (o'qituvchi-professor) o'qiydi, amaliy mashg'ulotlarni esa 10-15 kishidan iborat kchik guruhda kchik mudarris (o'qituvchi) olib boradi. O'qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar hisoblangan. Samarqand madrasasida ma'ruzalarni allomaning o'zi va qozizoda Rumiy, Mavlono

Muhammad, Ali qushchi, Avaz Kirmani kabi va boshqa mashhur olimlari o'qiganlar. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek va uning izdoshlari tomonidan matematika, metafizika, astronomiya, georafiya, tarix fanlaridan yangi darsliklar yaratildi, bu darsliklar oddiy va tushunarli shaklda yozilgan. Lekin "Jamo" usulida ham o'zining salbiy tomonlari bo'lgan. Jamoa usulida XX asr mактабida mashhur bo'lgan guruhli-laboratoriya metodida bo'lgani kabi o'zlashtirishni individual xususiyati hisobga olinmagan. Yaxshi o'zlashtirmagan ba'zi shogirdlar ham ilg'orlar qatorida bir qo'llanmani o'rganishdan boshqasini o'rganishga o'z-o'zidan o'tavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqadilar.

Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg'ulotlarni o'qituvchi bir o'quvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlcha bo'lgan turli yoshdagilari guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O'qituvchi navbat bilan har bir o'quvchidan o'tilgan materialni so'raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishslash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan bolalar o'z ishlari bilan shug'ullanadilar. O'qishni bunday tashkil etishda, bolalar mashg'ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo'lgan.

XV va XVI asrlar davomida, Evropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o'zgarishlar bolalarga ta'lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ulardan biri bolalarni guruhli (jamoali) ta'lim sanaladi. U g'arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) birodarlik mактабларida ilk bor qo'llanilgan va o'qish sinf-darsli shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviy lashtirildi. Olim pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi, quyosh it yo'luzlari turkumida bo'lganida bolalarni dam olishga yuboradilar ("Ta'til" lotinchada – kunlarning eng qizigan davri deganini bildiradi).

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Sinf-dars tizimining mazmuni o'quv ishlarini tashkil etish o'ziga xos shakli sifatida, quyidagilarda iborat:

bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo'ycha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqt va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi;.

mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois o'quvchilar sinfida bitta material ustida ishlaydilar;

darsda o'quvchilarning ishiga o'qituvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'ycha o'qish natijalari, har bir o'quvchini alohida bilimini baholaydi va yil oxirida o'quvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qiladi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'rnatadi:

ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bililarni anglashni amalga oshirish va o'quvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikrcha darsga go'yoki "Eshik" hisoblanadi.

asosiy masalani hal etishga yo'naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisobalanadi.

amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo'shdi. U o'qituvchi va o'quvchining faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Ta'limning sinf-dars tizimi alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib berdi. Afzalliklari:

yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;

jarayonlarning oddiy boshqarilishi;

muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birligida izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;

o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emosional ta'sir ko'rsatishi; ta'limning emosionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari:

tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;

o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'ycha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi;

katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi (AQShda Batov, Evropada Maingeyms tizimi). Evropa va AQShda, XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarni ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilib. 1905 yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Elena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal

hisoblangan. Bu tizim **dalton-reja** nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar.

Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat: o'quv faoliyatining muvaffaqiyati maktabda ishlash sur'atining har bir o'quvchining imkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq:

-ta'lim faoliyati ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish o'quvchining mustaqil o'quv faoliyatining markazihi hisoblanishi,

-o'qituvchi vazifasining faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi, sinf laboratoriyaning ustaxonalar bilan almashtrilishi,

-derslarning bekor qilinishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi,

-o'quvchining laboratoriya yoki ustaxonalarda o'qituvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytda o'qituvchidan yordam so'rashlari.

Mazkur tizim bir qator kamchiliklari ko'ra keskin tanqi dga uchragan.

XX asr 20-yillarda maktab ishlari Ilmiy tekshirish instituti ta'larning loyihali tizimini targ'ib qila boshladidi. Uni amerikalik U.Kilpatrick ishlab chiqqan. O'qitish bu tizimining mazmuni o'quvchilarning o'zлari loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlaridan iborat. U mayjud haqiqiy hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi ixtisoslashishlariga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo'lgan.

60-yillarda Tramk rejasি juda mashhur bo'ldi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramk ishlab chiqqan. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 odam) mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va o'quvchilarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etadi. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining 40 % ajratiladi. Kihik guruhlarda mashg'ulotlarga (seminarlar) – 20 % i laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40 % i ajratiladi.

70-yillarda o'qishni tashkil etish noan'anaviy shakllarini izlash davom ettiriladi. Tajriba va sinov maktablarini izlash birinchi navbatda sinf-dars tizimini modernizasiyalashtirish fikri bilan bog'liq bo'lgan. Izlanishlar asosiy masalasi –

o'qishni individuallashtirish edi. Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'larning ma'ruza-seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri jiali deyarli hech bir katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'ycha amaliyot hozirgacha leksion-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Leksion-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi. O'zbekistonda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tadbiq etilishi bilan leksion-seminar tizimidan akademik lisey va kasb-hunar kollejlardida foydalanila boshlandi. Oxirgi paytlarda leksion-seminar tizimi elementlaridan o'rta maktab katta sinflarida ham qo'llanila boshlandi.

#### *Pedagogik kvalimetriya mezonlari asosidagi zamonaviy pedagog faoliyati*

Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo'llarini izlashda darsda o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va maktab amaliyotida asosan uchta shunday shakllari qabul qilingan – ommaviy, guruhli va individual.

Ta'larning ommaviy shakli sinfdagi jami o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko'zda tutadi. Guruhli shaklida esa o'quvchilar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlcha bo'lishi mumkin. Individual shakli har bir o'quvchining alohida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi.

O'qitish frontal shaklida, o'qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun sinf o'quv faoliyatini boshqarib boradi. U o'quvchilarning hamkorliklarini ta'minlaydi va hamma uchun bir bo'lgan ish sur'atini belgilaydi. Frontal ishslashning pedagogik samaraliligi ko'p jihatdan o'qituvchining butun sinfnini nazorat qila bilishiga va shu bilan bir vaqtida har bir o'quvchining ishini ko'zdan qochirmsligiga bog'liq bo'ladi. Agarda o'qituvchi ijodiy jamoali ishslash muhitini yarata olsa, o'quvchilar diqqatini va faolliklarini ta'minlab tura olsa samarasini yana oshadi. Ammo frontal ishslash individual farqlarni hisobga olmaydi, u o'rta o'quvchiga mo'ljallangan. Shuning uchun ba'zi o'quvchilar berilgan ish sur'atidan ortda qoladilar, boshqalari esa zerikib, qiynalib ketadilar.

O'qish guruhli shaklida o'qituvchi sinf o'quvchiları guruhları o'quv-o'rganish faoliyatlarını boshqaradi. O'quvchiları zvenoli, brigadali, birlashtirish-guruhli va differensiyalangan guruhlarga taqsimlash mumkin. O'qish zvenoli shakli o'quvchilar doimiy guruhı o'quv faoliyatını tashkil etishni ko'zda tutadi.

Birlashtirish-guruhli shaklida sinfni odatda katta umumiyl topshiriqni har biri saqatgina bir qismini bajaradigan guruhlarga ajratishni ko'zda tutadi.

Differensiyalashgan-guruhli ta'limg shakli doimiy guruhlar ham, bir xildagi o'quv imkoniyatlariga ega va o'quv ko'nikmalari bir xil darajada shakllangan o'quvchilarini birlashtirishini ko'zda tutadi. Guruhli shakllariga o'quvchilarning juft bo'lib ishlashlarini ham kiritiladi. O'quv guruhlari faoliyatlarini o'qituvchi o'zi bevosita hamda o'z yordamchilari – o'quvchilar fikriga qarab tayinlangan zvenolar va brigadar orqali boshqaradi.

Individual ta'limg o'quvchilarning boshqa o'quvchilar bilan bevosita aloqalarini ko'zda tutmaydi. O'z mohiyatiga ko'ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishslashdan tubdan farq qilmasa-da, biroq o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo'lida maxsus tayyorlangan kartochkalardan foydalanish mumkin.

Darsda o'qituvchiining e'tibori bir necha o'quvchiga qaratilsa, bu vaqtida qolgan o'quvchilar mustaqil ishlasalar ta'limg bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi.

Zamonaviy ta'limg amaliyotida ko'proq ikki tashkiliy shakl: ommaviy va individual shakllardan foydalaniladi. Ayni vaqtida guruhli va juftli o'qish shaklidan amaliyotda ancha keng foydalaniladi.

Ta'limg ommaviy shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmasa-da, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta'limg deb ko'rsatishga harakat qiladilar.

Jamoaviy ishlas faqatgina differensiyalashgan guruhli ishlar asosidagina tashkil etiladi. O'quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o'qituvchi va o'quvchilarning dinamik yoki o'zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir. Ta'limg maqsadlari va foydalanshning qulayligi nuqtai nazaridan ta'limg shakllari quydageha darajalanadi: asosiy, qo'shimcha va yordamchi ta'limg.

Dars ta'limg jarayonining yaxlitligi nuqtai nazaridan ta'limg asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o'quvchilarini ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o'qituvchi uchun har bir o'quvchi faoliyatiga rag'batlaniruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'limg shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

**Dars** bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhı bilan olib boriladigan ta'limg jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatları va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi.

Dars ta'limg boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhı, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o'quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog'liq..

Zamonaviy didaktikada dars quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

aralash darslar;

yangi ma'lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo'yicha yoki umumlashtirishlarni anglab etish va o'zlashtirish maqsadiga ega darslar;

bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;

o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar; malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;

bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o'rganish darsi;

o'z tuzilishi bo'ycha oddiy bo'lgan, ya'ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo'lgan dars turlari (o'rta va katta sinflarda qo'llash uchun mos keladi).

Boshlang'ch sinflarda o'quvchilar yoshlarini hisobga olib o'quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o'rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to'g'ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu erda ko'pincha ishlar boshqa turlarini o'z chiga oladi: materialni og'zaki etkazish, qiziqarli hikoyani o'qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinasiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi.

Kombinasiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol-javob, yangi materialni o'rganish, o'zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o'rganilganlarni suhbat ko'rinishida takrorlash, o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uygaz vazifa berish.

O'quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o'rganish) darsi nisbatan keng doiradagi savollarni o'z chiga olgan va uni o'rganishga ko'p vaqtini talab qiluvchi, o'quvchilarga tanish bo'limgan yangi material uning mazmuni bo'lgan ta'lim jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va o'quvchilarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab, ba'zi hollarda yangi materialni o'zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa – o'qituvchi rahbarligi ostida o'quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchini holda – unisi ham bunisidan ham foydalaniadi. Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash. O'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishslashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uygaz vazifa berish.

**Bilimlarni mustahkamlash darslarida** o'quv ishining asosiy mazmuni ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o'zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi.

O'quvchilar o'z bilimlarini yangi manbalar bo'ycha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma'lum bo'lgan qoidaga yangi masalalar echedilar, ilgari olgan bilimlarini og'zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o'rganganlarini

yanada chuqurroq va mustahkam o'zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo'ycha axborot beradilar. Tuzilishi bo'ycha bunday darslar quyidagi bosqehlardan o'tishni ko'zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uygaz vazifa berish.

**Ko'nikma va malakalar ni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari** bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog'liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o'rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o'qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini daslab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qaerda qanday qoida qo'llanilishini o'quvchilarning o'zları belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko'nikmalarini qo'llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo'llashni o'zlashtirib olishlari kerak.

Umumlashtiruvchi darslari (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o'tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o'quvchilar bilimlarida mavjud kamchiliklari to'ldiriladigan va o'rganilayotgan kursning muhim g'oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo'lim va o'quv kurslarining yakunida o'tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o'zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o'qib berish yoki o'qituvchining o'quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o'tkazilishi mumkin.

**Tekshirish (nazorat) darslari** o'qituvchiga o'quvchilarning ma'lum sohadagi bilim, malaka va ko'nikmalari shakllanganlik darajasi, o'quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o'quvchidan ushbu mavzu bo'ycha uning hamma bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llashini talab etadi. Tekshirish og'zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqeh hisoblanadi. Tashkiliy bosqeh maqsadlarni qo'yish va ularni o'quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlari ta'minlash, ish sharoitini yaratish, o'quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslاب

qolish yuzasidan beriladigan ko'rsatmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqchida maqsadlarga erishish qayd etiladi, ularga erishishda barcha yoki yakka o'quvchilarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi.

Ta'limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi va ta'limiy-tarbiyaviy-rivojlanish vazifalarini ijobjiy yechimini topishga imkon beradi.

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo'lgan talablarda o'zining aniq ifodasini topadi.

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;

darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;

o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

o'quvchilar ang'lab etadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish;

ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;

shaxsnинг har tomonlama rivojlanishni motivasiyalash va faollashtirish;

o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqchlarining mantiqiyligi va emosionalligi;

pedagogik vositalardan samarali foydalanish;

zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat rasional usullarini shakllantirish;

mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;

har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: o'qitish, tarbiyalash, rivojlanish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiyl talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlaniruvchi talablarda aniq ifodalananadi.

Didaktik (yoki ta'lim)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga

olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondoshish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan tarbiyaviy talablar o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarغا diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlaniruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobjiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faoliyek shakllantirish hamda rivojlanish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "Rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "O'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emosional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi "Sakrash"larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

Nostandart darslar. XX asr 70-yillari o'rtalarida, milliy maktablarda o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandart darslarning tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Nostandart dars an'anaviy tuzilishdagi improvisazion o'quv mashg'ulotidir. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandart darslarning o'nlab turlari mayjudligini ko'rsatdi. Ular orasida "Berilish" darsi, amaliy o'yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o'yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, fantaziyalar, "Sudlar", haqiqatni izlash, "Paradokslar", auksionlar, dialoglar va boshqalar ko'zga tashlanadi.

#### ***O'qituvchining darsga tayyorgarligi.***

Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. Yaxshi rejalshtirilmagan, etarlecha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvechilar imkoniyatlarga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi.

**Darsga tayvorgarlik** aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta'minlash, kompleks choratadbirlarni ishlab chiqishdir. O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uehta bosqch ko'zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalshtirish). Shu bilan birga o'qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o'z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg'ulning algoritmlari, samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta'minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi. Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi.

**Tashxis** didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatları va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatları, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

**Bashoratlash** bo'lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

**Loyihalashtirish (rejalshtirish)** o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqchi hisoblanadi.

Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqechiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yeha qayta o'zgartirishni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasidan boshqarish ta'sir ko'rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi.

**Ta'limning yordamchi shakkllari.** Ta'limning yordamchi shakkllari: to'garak, praktikum, seminar, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o'qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o'quvchilarning **mustaqil uy ishlari** kiradi.

**Uning asosiy maqsadi** – darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o'quvchilarning individual layoqati, iste'dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu ishlar o'quv dasturi talablari, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari hamda ularning rivojlanish darajalarini hisobga olib quriladi. O'quvchilarning mustaqil uy ishlari ma'lum didaktik yazifalarini bajaradi.

Chunonchi, darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, sinfa ishlab chiqilgan o'quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirish, mashqlarni mustaqil bajarish ko'nikmalarini shakkllantirish, dasturli material doirasiga kiruvchi hajmda individual topshiriqlarni bajarish asosida mustaqil fikrleshini rivojlantirish, individual kuzatishlar, tajribalar, gerbariy, tabiiy namunalar, otkritkalar, rasmlar, gazeta va jurnal lavhalari statistik ma'lumotlar kabi o'quv qo'llannalarini to'plash va tayyorlash va boshqalar.

Darslarda pedagogning o'quvchilar tomonidan uy vazifalarining halol bajarishlariga kam e'tibor berayotganliklari, ularni sinfa tekshirishga uninmasliklari, yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilarni rag'battanxitib bormasliklari ta'lim amaliyotda keng tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Uy vazifalarini tushuntirib berishga ko'pincha vaqt etmaydi, ular shoshilinch beriladi. Pedagoglar kamdan-kam hollarda,

o'quvchilar uy vazifasini bajarayotganda duch keladigan qiyinchiliklarini ko'rsatib beradilar, ularni bartaraf etish yo'lini esa ko'rsatmaydilar. Natijasida mustaqil uy vazifalarining bajarilishi samarasiz bo'lib qoldi.

**Fan to'garaklari** yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqt va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakkantirishga yordam beradi.. To'garaklar o'qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog'liqlikni rivojlantiradi. Fan to'garaklarda o'quvchilarning ishlari o'quv jarayonini faollashtiradi, o'qish sifatini oshirishga yordam beradi.

Ta'limga yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kechik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: obyekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, obyekt, u bilan tanishish tartibi, o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko'rsatiladi. Ekskursiyani o'tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o'quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya obyektiga bog'liq bo'ladi.

Maktab o'quv rejasi turli fakultativ va tanlovi bo'ycha kurslarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi.

Fakultativ va fanlarni ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo'ycha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'limga fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya - o'quv suhbat)ga talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv materiali yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni engishga yordam beradi.


Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqlarni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi.

Konsultatsiya o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

Ta'limga o'qituvchi tashxisning mohiyati. Tashxisning mohiyati haqida gapirishdan oldin tashxisni umumiylashtirish, yondashuv hamda tashxislashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida farqlab olaylik.

*Tashxis* – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mayjud sharoit uchun optimal natjalarga erishish mumkin emas.

Didaktik tashxislashning *maqsadi* o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahsil qilishdan iborat (11-rasm).



11 - rasm. Tashxislashning asosiy tarkibiy qismi

Ta'limga o'qituvchi tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'limga o'qituvchi tashxislashning asosiy tarkibiy qismi. Shuningdek, ta'limga o'qituvchi tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaratadi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat nati-jalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi.

Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqchlarni aniqlaydi. Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar toplash, ularni tahsil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z chiga oladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani ko'rsatishi lozimligi: ta'lim oluvchi o'zlashtirishning qat'iy belgilovchisi – sifat ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi, yo aksincha, u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi degan masalada bahslashib kelmoqda.

Ta'limni baholashda ziddiyatlari qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zları ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning obyektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi.

Olimlarning ta'kidlashcha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi yo'nalganlikga ega bo'lishi, o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydalı bo'lishi lozim.

Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning eskirgan shakllaridan

voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foya tamoyili yangcha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo'лади. Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalarini shaxsning o'z darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi.

Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishta ko'plab o'quvchilar uchun majburiy ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting – insonning jamiyatdagagi mavqeい ko'rsatkchini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarni o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

**Nazorat** (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarini darajasini aniqlash, o'chash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'chash esa **tekshirish** deb ataladi.

**Tekshirish** – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi xamda bilimlardagi kamehilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish qo'yida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi *birinchi bo'g'in* ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida

o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtaida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinni bo'ladi.

Bilimlarni tekshirishning *ikkinci bo'g'ini* har bir mavzuni o'zlash-tirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlcha bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, o'quvchi-larning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqchi va maqsadlari, muayyan peda-gogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

**Takroriy tekshirish** bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bo'g'ini sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqchini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutil-gan samarani beradi.

Tizimning *to'rinchi bo'g'ini* o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'ycha davriy tekshirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi – kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zarloqalarini o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda *beshinchi bo'g'in* ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqchlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingen baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqchda belgilangan maqsadga muvoziq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darjasini (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z chiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi.

**Baholash** deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakch, qolip, o'lechagich)lar bilan solishtirishni aytamiz.

**Baho** deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lehamiga atyiladi. O'zlashtirish tabellari, sinif, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgililar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rini-shida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun na-zorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkchlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkchlari ko'proq ballar yoki foizlarda, sifat ko'rsatkchlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baho-lovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko'rsatkch (masalan, o'rin – 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lehash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmaslik muhim. Baholarni son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholar harfli (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiyligi hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash) dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkchi **B=A/T\*100%** nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B – o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o'zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to'liq hajmi.

Ko'riniib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkchi (baho) bu o'rinda 100% – axborotni to'liq o'zlashtirish va 0% – uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'lumki, baholash funksiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi.

Baho – pedagog ixtiyoridagi o'qishni, ijobjiy moti-vasiyani rag'batlantirishning va shaxsga ta'sir ko'rsatishning yagona vositasi. Aynan xolis (obyektiv) baholash ta'sirida, o'quvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining

xilma-xilligi o'quvchilar o'quv faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'satkechlarni izlab topishni talab etadi.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtida o'quvchilarning o'r ganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga xarakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

*Hisobga olish* – bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatni ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkchiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

To'g'ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o'z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va ahloqiy rivojlanishiga ta'sir etadi.

O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quydagilarga e'tiborni qaratish lozim:

- 1) o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limni o'r ganishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;
- 2) har bir yakunlangan mavzu bo'ycha o'quvchilarning faoliyatini to'g'risida to'liq xulosa chiqarish;
- 3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;
- 4) o'quvchilarning mayjud bilimlariga aniq, batassil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

*Nazorat qilish* vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'r ganishning keyingi bosqchiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'r ganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

*O'qitish vazifasi* o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rindi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi.

Chunki guruhdag'i boshqa o'quvchilar javob berayotgan o'quvchining fikrlarini diqqat bilan tinglashadi va avval egallangan bilimlarni mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki echilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'r ganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi.

Nazoratning *tarbiyalash vazifasi* shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtidan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'r ganadilar.

Shuningdek, tekshirish va baholash o'quvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin o'quvchining bilimini baholashda o'qituvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham o'quvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi.

Eng asosiysi, o'zlashtirishni hisobga olish, shaxsnинг ijobjiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga vijdonan yondashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo'lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga qaratilmog'i lozim.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsnинг tafakkurini rivojlantirishga, his-tuyg'ulari va axloqiy sisatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning *rivojlantiruvchi vazifasi* sanaladi.

### III.BOB. TA'LIM OLGANLIKNI NAZORAT QILISH

#### §1. Ta'lif olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lif olganligini tashhislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkorlik) sanaladi.

**Xolislik (obyektivlik)** tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lif oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlardan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashhis o'tkazgan o'qituvchidan qat'iy nazar xamma vaqt mos kelishini anglatadi.

**Tizimlilik (sistemalilik)** tamoyilining talabi shundan iboratki, tashhislash nazoratini ta'lif jarayonining barcha bosqchlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqchlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lif oluvchilar o'quv muassasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashhisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lif oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonechli tekshirish uchun ta'lif nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashhis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakkllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositala-rini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

**Ko'rgazmalilik (oshkorlik)** tamoyili avvalo barcha ta'lif oluvchilarni aynan bir hil mezonlar bo'yechi ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashhis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkorlik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivasiyalashni talab etadi. Bahoz mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lif oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi xaqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalgalash uchun shaxslar ishtiroyida muhokama va tahlil qilish, no'qsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Xozirgi davr pedagogik amaliyotida o'quvchilar o'quv faoliyatini nazorat qilishning qo'yidagi *turlaridan* foydalilanildi:

joriy nazorat;

oraliq nazorat;

yakuniy nazorat.

**Joriy nazorat** o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning xar bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yechi bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z chiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yechi kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini xar bir o'quvchining o'quv faoliyatini bo'yechi tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlashtirmagan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yechi choralar belgilaydi.

**Oraliq nazorat** - bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xusu-siyatini hisobga olgan holda o'tkazadi.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

**Yakuniy nazorat** – choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestasiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Nazoratning shakli o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy besh shakli mavjud:

- nazoratning ommaviy (frontal) shaklida o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yechi savol beradi, o'quvchilar unga qisqa javob qaytaradi.

Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchini nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

- nazoratning guruhli shaklida o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o'quvchilar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

- nazoratning individual shaklidan har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniлади. Nazoratning bu shaklida odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

- nazoratning kombinasiyalangan (biriktirilgan) shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha o'quvchilardan so'rash kerak bo'lgan vaqtida foydalananadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtida bir necha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

- o'z-o'zini nazorat qilish shakli ta'lim jarayonida ichki aks aloqaning bo'lislini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish metodlari qo'yidagilar: *og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriglarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish*.

**Og'zaki tekshirish.** Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholash-ning ancha keng tarqagan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rindiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni

har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lislari uchun ulardan shu yoki oldindi mayzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

**Yozma tekshirish** – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng oz vaqtning chida barcha o'quvchilarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant kabilalar yordamida olib boriladi. Ammo o'qituvi va o'quvchi o'rtasida bevosita aloqaning yo'qligi sababli, uning fikrlashini kuzatish imkon bo'lmaydi.

**Amaliy topshiriglarni bajarishga asoslangan tekshirish.** Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingen natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik tsikldagi fanlardan o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniлади. Bu usul yordamida o'quvchilarning oлган bilimlarini amaliyotda qo'llay olish malakasi aniqlanadi.

**Uy vazifalarini tekshirish.** O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uya berilgan vazifalarini bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv ishiga bo'lgan munosabatini, o'rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalilmoxda. Reyting deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikasiyalash, birona hodisani oldindan belgilangan shkala bo'ycha baholash tushuniladi. Reyting nazorati o'quvchining ma'lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Reyting nazoratida o'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalilmoxda. Test so'rovidan nafaqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida abiturientlarni oliv

o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalantish kelinmoqda.

Test – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdori ko'rsatkchlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzallikkleri ko'zga tashlanadi. Ularning quyidagilardir:

- 1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- 2) nazariy va amaliy bilim darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- 3) bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- 4) bilim natijalarining o'qituvchi tomonidan qisqa muddatda tek-shirilishi;
- 5) barcha o'quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

Ta'lim tizimi uzuksiz ravishda islohotlarni amalga oshirishni talab etadigan sohadir.

Ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangcha mazmun kasb etdi. Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o'quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsnin tarbiyalashiga nisbatan yuqori talabning qo'yilayotganligi, ta'lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o'quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdag'i ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan hujjat vaqtida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar bilimini baholashning besh balli tizimining eskirganligi va zamon talablariga javob bera olmagani uchun uni reyting tizimi asosida baholash ushlashi bilan almashtirish davr taqozasiga aylandi. Shu o'rinda "Qanday sabablarga ko'ra besh balli baholash mezoni o'zini oqlamadi?" degan savolga javob berish o'rindidir.

*Birinchidan*, O'zbekiston Respublikasida ta'limni dekmokratik va insonparvarlik imoyillari asosida rivojlantirish ta'labiga amaldagi holat bir-biriga muvosiq kelmaydi.

*Ikkinchidan*, baholash mezoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ixtiolfarni feltilib chiqarishga emas, aksincha, o'zaro faol hamkorlik, bir-birini tushuna olishlari uchun xizmat qilishi lozim.

*Uchinchidan*, baholash mezoni faqatgina o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarining o'zlashtirilish darajasini nazorat qilish uchun-gina emas, balki ta'limni tushxis etishning faol ko'makchisiga aylanishi zarur.

Baholashning besh balli tizimi birdan beshgacha farqlanuvchi dastlabki baholar qayish tartibini bildirib, mohiyati esa baholarning o'rtasidan kelib chiqqan holda choraklik (yillik) o'zlashtirish natijalarini aniqlash tartibidan iborat.

Masalan, o'quvchi biror o'quv fanidan uchta nazorat ishini 3, 4 va 5 ga bajargan, joriy nazorat bo'yechha ham shunday natijalarni qayd etgan bo'lsa, unga chorak uchun 10 baho qo'yiladi. Bu esa joriy, oraliq va yakuniy nazorat paytida yaxshi bo'yorgarlik ko'rgan o'quvchining ijobiy baholanishi o'miga, chorak yoki yil oxirida muayyan mavzudan "5" bahoga berilgan javoblarining mutlaqo inobatga olmasligiga sabab bo'ladi.

Reyting tizimida o'zlashtirish natijasi nazoratning ko'rsatilgan barcha shakllardan o'tish jarayonida to'plangan ballarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Har bir nazorat turi uchun 10 balldan taqsimlanganda (o'quv fani uchun 100 ball hisobida) unga 7, 5, 8, 7 ball qo'yilsa, o'quvchining chorak yoki yarim yillik uchun to'plagan bali 27 ballni tashkil etadi, bu esa 55 foizdan kam, shuning uchun u shaklida reyting balini to'plamaguncha va bar-cha nazorat shaklidan o'tmagancha ananaslyva qilinmaydi. Demak, reyting tizimi olingan baho bilan egallangan bilim o'rasisida ta'fot kelib chiqishi-ning oldini oladi.

Reyting tizimi yana bir qator afzallikkarga ega, chunonchi:  
ta'lim jarayonida baholash tizimi imkoniyatlarini kengaytirish;  
o'quvchi bilimini eng adolatli mezonlar yordamida aniqlash;  
ta'limni standartlashtirish jarayoni uchun zarur imkoniyatlarni ochib berish;

ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan o'quv dasturiga kirgan majburiy ixtiyoriy mavzularning to'laligcha o'zlashtirilishi;

o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishlash intilish, erkin fikr yuritish, bilimlarni egallahsga nisbatan izchil yondashuv yuzaga keladi;

o'quvchilarda yomon baho olishga bo'lgan qo'rquiv yo'qolib, uning o'rniga bilimlarni ixtiyoriy o'zlashtirish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish yo'lida mustaqil ishlash imkoniyati yaratiladi. Boshqacha aytganda, qo'rquiv o'rniga intilish, rejalashtirish, harakat qilishga ehtiyoj tug'iladi, o'rganishga nisbatan qiziqish ortadi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlcha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, guruhdagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Shuningdek, baholash mezonlarini ishlab chiqishda o'quvchilarning og'zaki javob berishlari, ko'nikma va malakalariga alohida-alohida yondashiladi. Masalan, kimyo darsidan baholash mezonlariga o'quvchilarning og'zaki javoblari, amaliy topshiriqlarni bajara olishlari va amalda mavjud bilimlarini namoyish eta olishlari inobatga olinadi. Buni "4" baho misolida aniqlashtiramiz.

*Og'zaki javob berishda "4" baho qo'yiladi, agar:*

- a) o'rganilayotgan mavzu yuza-sidan to'g'ri javoblari bersa;
- b) material mantiqiy ketma-ketlikda aniq bayon etilsa;
- v) o'qituvchi talabi bilan tuzatilgan ikki-uchta unchalik ahamiyatga ega bo'Imagan xatolarga yoki ba'zi to'liq bo'Imagan javoblarga yo'l qo'ysa.

*Yozma topshiriqni bajarishda "4" baho qo'yiladi, agar:*

- a)masalani echishda va izohlashda muhim xato bo'Imasa;
- b)topshiriqni bajarish va izohlashda muhim ahamiyatga ega bo'Imagan bir-ikki xatoga yo'l qo'yilsa yoki bitta izohning mohiyati ochib berilmagan bo'lsa.

*Amaliy bilimlarni namoyish etishda "4" baho qo'yiladi, agar:*

a)ishni to'liq, muhim xatolarsiz bajarsa, natija chiqara olsa;

b)ishni bajarishda, tajribani tugallashda ikki-uch muhim bo'Imagan xatolarga yo'l qo'ysa.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

*"5" baho qo'yiladi, agar:*

- a) o'quvchi dasturdagi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa;
- b) o'rganilgan mavzu bo'ycha asosiy fikrlarni ochib bera olsa;
- v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo'llay olsa;
- g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa.

*"4" baho qo'yiladi, agar:*

- a) o'quvchi o'rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa;
- b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa;
- v) egallangan bilimlarni amaliyatda qo'llay olsa;
- g) og'zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo'Imagan xatoga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

*"3" baho qo'yiladi, agar:*

- a) o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa;
- b) savollarning mantiqiy tuzuilishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa;
- v) yozma ishda xatolari bor bo'lsa.

*"2" baho qo'yiladi, agar:*

- a) o'quvchi o'rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o'zlashtirmagan,
- b) yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

## §2. Baholashning asosiy tamoyillari

**Baholash tamoyillari.** Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioxha etilmasa, ta'limga oluvchilarining o'qishga nisbatan munosabati yomonlasha-di, bilimlarning sisfatiga salbiy ta'sir qiladi.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta'limga oluvchi uiting qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari bahola-nayotganini bilishi kerak. Ta'limga beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagiga, uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro'y beradi.

Ta'limga oluvchining bilimlari, ko'nikma va malakalari davlat o'quv rejalarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

Ta'limga oluvchilarining bilimlari, ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari turlichadir. Ba'zan ta'limga beruvchi bilimlarni tekshirishning uzoq vaqt mobaynida bir xildagi usullarini qo'llaydi. Unda so'rash, savol berish, bahoni izohlash sohasida muayyan odat paydo bo'ladi.

Ta'limga oluvchilar bunday tekshirishga moslashib ketadilar, o'qituvchining qaytarzda so'rashi ularga oldindan ma'lum bo'ladi. Ular faqat ta'limga beruvchi uchun, uni qanoatlantirish uchun javob bera boshlaydilar.

Quyidagi beshta asosiy tamoyil baholash tizimi samaradordigi-ning poydevori hisoblanadi:

O'quv maqsadlariga asoslanganlik.

**Haqiqiylik.**

**Haqqoniylilik.**

**Ishonchlilik.**

**Qulaylik.**

O'quv maqsadlariga asoslanganlik. Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sisfati o'quv maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqidir.

O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlari-ning qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakl va usullari tanlanadi. Shuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday baholash tizimini loyihalashtirishda, baholash topshiriqlarining berilgan ta'limga mazmuni doirasida bo'lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtirishda, har doim quyidagi ikkita savolni e'tibordan qochirmaslik lozim:

Baholash topshiriqlari ta'limga jarayonidan ko'zlangan o'quv maqsadlarini to'la aks ettiradimi?

O'quv maqsadining darajasi uchun baholash shakli, usuli va mezonni to'g'ri tanlandimi?

Masalan, yo'l harakati qoidalari bo'yicha olgan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin undan mashinani boshqarish malakalarini baholashda foydalanib bo'lmaydi. Bu malakalar og'zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiqdir.

**Haqiqiylik.** O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

Ta'limga oluvchi erishgan natijalar to'g'risida asoslangan va ishonchli axborot berish kerak.

O'lchanishi talab etiladigan narsalar-gina o'lchanishi kerak. Ta'limga oluvchi egallagan bilim, malaka va ko'nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarni o'lchanish imkonini beradigan me-todlardan foydalananish zarur.

**Haqqoniylilik (obyekтивлilik).** Bir xildagi ta'limga oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha har xil ta'limga beruvchilar tomonidan bir xil baho berilgan hollardagina bunday topshiriq va test haqqoniylilik hisoblanadi. Bu haqqoniylilik har xil vaqtarda berilgan baholar uchun ham taalluqlidir. Ushbu mezonlar ko'pincha markazlashgan holatda, o'tkaziladigan yalpi "Rasmiy testlar" paytida amalga

oshiriladi, xolos. Ta'lim beruvchi tomonidan tuzilgan testlar esa odatda mazkur talablarni bajarmaydi.

Baholash tizimi o'quv maqsadlariga mos bo'lishi, shuningdek baholash shart-sharoitlari va maqsadlari bilan o'quvchilar oldindan tanishgan bo'lislari lozim. Ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

**Ishonchlilik.** Natijalarni baholash mobayiida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin, bu usullarni tanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Uslub ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligi qanchalik ishonchli ekanligi nazarda tutiladi.

Baholash ishonchli bo'lishi uchui ta'lim oluvchilarda bir-biriga o'xshash, ammo har xil sharoitlarda baholash o'tkazilganda, natijalari bir xil bo'lishi kerak. Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning iatijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo'lishi uchun – turli ekspertlar yordamida turli vaqlarda, baholash o'tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak.

Baholash ishonchliliginning ikkita tomoni bor:

**Baholash usulining ishonchliligi.** Agar foydalaniyotgan baholash usulining ishonchliligi yuqori bo'lsa, ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasi baholashning har xil usullaridan foydalanganda ham o'zgarmay qoladi (olingan natijalar bir xil, o'zgarmas bo'ladi).

Baholashning o'zlashtirish darajasini hisobga olishiga tegishli ishonchliligi. Ta'lim oluvchining o'zlashtirish daraja-sini baholash usullarining ishonchliligi deb, baholash boshqa joyda va boshqa imtihon oluvchi tomonidan o'tkazilganda ham, uning bir xil bo'lishi, o'zgarmasligi tushuniлади.

Baholash usullarining ishonchliligi quyidagi holatlarda ko'proq yuqori darajada bo'ladi:

- hamma ta'lim oluvchilar qo'yilgan talabni aniq tushunsa;
- baholash shartlari oldindan ma'lum qilinsa va unga to'liq rioya qilinsa;
- hamma natijalar baholashning oldindan kelishilgan mezonlariga to'la asoslangan bo'lsa;

– tasodifliy xatolarni kamaytirish maqsadida mos baholash turlari qo'llanilsa.

**Qulaylik.** Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, pazorat o'tkazuvchi va ta'lim oluvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar komp'yuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo'lsa, ball berish o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo'lgan qismlariga unchalik muhim bo'limgan qismlariga nisbatan ko'proq ball berish kerak bo'ladi.

Baholash jarayonida uchraydigan ba'zi xatoliklar. Ta'lim beruvchining shaxsiy qarashlari bilan bog'liq ravishda baholashda bir qator xato hukm surib yuradi.

**Xayrixohlik xatosi.** Agar ta'lim beruvchi biror ta'lim oluvchiga nisbatan hayrixohlik bilan qarasa, bu bahoning biroz yuqori bo'lismiga olib kelishi mumkin.

**Yuqori talab qo'yish xatosi.** Agar ta'lim beruvchi o'ziga nisbatan yuqori talablar qo'ysa va xuddi shunday yuqori darajadagi talablarni ta'lim oluvchilarga nisbatan qo'llasa, bunday hol bahoning biroz pastroq bo'lismiga olib kelishi mumkin.

**O'rtaча baho berish xatosi.** Bu xato ta'lim oluvchilarning natijalari o'rtacha baholanishini bildiradi. Buning sabablari ta'lim beruvchining o'ta yaxshi yoki o'ta yomon baho berishdan qo'rishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

**O'z fikrini o'zgartirmaslik xatosi.** Ta'lim beruvchi o'zining birinchi fikrini o'zgartirishni xohlamasligi tufayli, u o'z nazoratining natijalarini o'zgarishsiz qoldiradi. Bir marta sodir bo'lgan voqeа tufayli ta'lim beruvchida biror ta'lim oluvchi to'g'risida qolgan ijobjiy yoki salbiy taassurot, keyinchalik bu ta'lim oluvchining shaxsiyatiga oid barcha boshqa xususiyatlariga e'tibor bermasligiga olib keladi.

**Yoqtirmaslik xatosi.** Biror ta'lim oluvchini yoqtirmaslik yoki unga nisbatan salbiy fikrda bo'lishi tufayli ta'lim beruvchi ta'lim oluvchiga yomon baho qo'yadi. Bu xato "Hayrixohlik xatosi" ning aksidir.

Ta'lim beruvchining baholashdag'i xatolari oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish kerak. Baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish va ularni to'g'ri tanlash bo'yicha:

Nazorat varag'ini ishlab chiqish.

Baholovchining bir emas, balki ikkita bo'lishi.

Baholash usullarini to'g'ri tanlash.

Samarali baholash tizimini qo'llash.

Baholash topshiriqlarini va ularga javoblarni imkonli boricha yozma ravishda o'tkazish va rasmiylashtirish.

Baholashda uchraydigan xatolarning oldini olish uchun rioya qilinishi maqsadga muvoziq bo'lgan qoidalalar:

Baholashdan oldin ta'lim oluvchilar bilan ta'lim oluvchilar birlgilikda va baho mezonlarini muhokama qilib olishlari lozim.

Baho mezonlarga muvoziq qo'yilgach, u ta'lim oluvchilarga ma'lum qilinishi lozim.

Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan birlgilikda olingan baholarning natijalarini va yo'l qo'yilgan xatolarni muhokama qilishlari hamda ularning sabablarini aniqlashlari lozim. Ular xatolarning takrorlanmasligi chora-tadbirlarini belgilab olishlari lozim.

### §3. Baholash va uning mohiyati

**Baholash va uning ahamiyati.** Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

**Baholash** – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida, ta'lim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning ni-mani bilishi va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o'zlashtirilmaganu, qaysi biri yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblandi.

Ta'lim beruvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. O'z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturidagi materiallarni ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq-ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas.

Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyo'ladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho borish darajalari aniqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlarining ijobiy tavsifi asosida ta'lim muassasasida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimidagi, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish

istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi.

Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirma-gan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onalaring unga, uning ta'lim muassasasi dagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga munosabatiga hech qachon befarq bo'lib qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqtov, ma'qullah, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katga yoshdagilar orasidagi mavqeini shakllantiradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga egadir.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, ta'lim oluvchilarning umumiyo'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi.

Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko'riliши kerak. Bu bilan ta'lim tizimida kutiylayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'chanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta'lim rejasi, uning katta-kichik bo'lilmari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi natijalari muayyan standart me'yori orqali ifodalanadi.

Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi.

Ta'lim dasturining qism va bo'laklari bo'yicha muntazam baho-lab borish oxir-oqibat aniq vaadolallli baholanishning shakllani-shiga olib keladi. Kichik bo'limga bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalarini to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijodiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash o'quvchining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholash-ning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

#### **Nima uchun baholash kerak?**

O'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;  
keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;  
natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;  
o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;  
yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;  
o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;  
yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;  
ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;  
o'quvchilarni yutuqlarga qiziqirish uchun;  
tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

#### **Nimani baholash kerak?**

Nazariy bilimlarni;  
amaliy ko'nikma va malakalarni;  
xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni.

#### **Qachon baholash kerak?**

Ta'lim jarayoni boshida (boslang'ich baholash);  
ta'lim jarayoni davomida (joriy baqlash);  
ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

### Baholashning asosiy xususiyatlari:

Ta'lim maqsadiga yo'nalganlik;  
muntazam o'tkazib borish;  
pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;  
umumiyl qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

### §4.O'quv maqsadlarini tavsiflash

Ta'lim oluvchining belgilangan maqsadga erishgan yoki erishmaganligini tekshirishning imkon bo'lmasa, bunday maqsadlarni rejaga kiritishdan foyda yo'q. Shu bois, o'quv maqsadlari qanchalik aniq belgilangan bo'lsa, unga erishiqliganlik darajasini baholash ham shunchalik oson bo'ladi. O'quv maqsadlarini aniq ifodalashda e'ti-borni quyidagi ucta omilga qaratish kerak:

**Faoliyat.** Ta'lim oluvchidan kutilayotgan bilim, malaka yoki hulq tegishli faoliyatlarni aniqlovchi fyellar yordamida aniq ifodala-nishi lozim shart-sharoit. Ta'lim oluvchidan kutilayotgan bilim, malaka yoki hulq qanday shart-sharoitlar ostida ro'yobga chiqishi tasvirlanishi lozim.

**Mezon.** Ta'lim oluvchidan kutilayotgan bilim, qobiliyat yoki hulqni baholash mezonlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Baholash mezonlari "Kutilayotgan natijaning andozasi" sifatida belgilanadi va odatda aniq maqsadlar uchun ishlab chiqiladi. Masalan, "O'quvchi tokarlik dastgohida uzunligi 200 mm bo'lgan silindr qiyofali metallni 20 daqiqa ichida roppa-rosa 0,02 mm chuqurlikda ko'ndalang yo'na oladi" degan o'quv maqsadini olib qaraydigan bo'lsak, unda sharoit tavsiflangan, amaliy hattu-harakat fyl yordamida aniq ifodalangan va faoliyat natijasini tekshirishning aniq parametrlari, ya'ni mezonlari berilgan. Natija aniq o'lchab ko'rilibi mumkin. Biz o'z o'qituv maqsadlarimizni qanchalik darajada aniqlashtira olsak, ularning erishiqligiga o'shanchalik yaqinlashib boramiz. Amaliy mashg'ulotlarning o'quv maqsadlarini ifodalashda quyidagilarga e'tibor berish kerak: aniq qo'yilganligiga; o'lehanadiganligiga; erishib bo'ladijanligiga; realligiga, ya'ni amalga oshirish mumkinligiga; vaqt jihatdan belgilanganligiga.

### O'quv maqsadlarini ifodalashda fyellardan foydalanish

O'quv maqsadlarini ifodalashda muayyan aniq ish yoki hattu-harakatni ifodalovchi fyellardan foydalaniadi. Quyidagi noaniq ish yoki hattu-harakatni ifodalovchi fyellarni ishlatmaslik lozim: bilish, o'rganish, kuzatish, tushunish, anglash, ko'rsatish. Ularning o'miga o'rganish maqsadlar uchun ish-harakatni ifodalovchi quyidagi fyellarni ishlatish lozim (8-jadval):

### O'quv maqsadlarini ifodalashda fyellardan foydalanish

8-jadval

Darajalar	Tavsiya etiladigan aqliy amal
Tanishish	Aniqlash, nomlash, ta'riflash, yozish va sh.k.
Tushunish	Tushuntirish, ifodalash, misol keltirish va sh.k.
Qo'llash	Ishlatish, tayyorlash, ochish, hisoblash va sh.k.
Tahlil qilish	Qismlarga bo'lish, taqqoslash, qarama-qarshi qo'yish va sh.k.
Baho berish	Munosabat bildirish, maqtash, tanqid qilish va sh.k.
Yaratish	Tuzish, qurish, yaratish, jamlash va sh.k.

### Psixomotorik sohaga tegishli o'quv maqsadlari

Darajalar	Tavsiya etiladigan amaliy hattu-harakat...
Quyi bosqich	Bog'lash, ajratish, almashtirish, taqlid qilish ...
O'rta bosqich	Yasash, montaj qilish, tuzatish, xizmat ko'rsatish, amalga oshirish, sozlash, o'matish ...
Yuqori bosqich	Loyihalash, konstruktsiyalash, yaratish, tekshirish ...

### Affektiv sohaga tegishli o'quv maqsadlari

Ushbu sohadagi o'quv maqsadlarini ish yoki hattu-harakatni ifodalovchi faoliyatlar orqali ifodalash ancha mushkul. Shuningdek, o'quv maqsadlarining ushbu turiga erishiqligi kuzatish va baholash ham ancha qiyin kechadi. Shunday bo'lsada, affektiv sohaga tegishli o'quv maqsadlarni beshta bosqichga (darajaga)

bo'lish va har bir bosqich uch-un quyidagi fyellardan foydalanish maqsadga muvofiqdir (Kratvol taksonomiyası) (9-jadval):

Kratvol taksonomiyası

9-jadval

Darajalar	Tavsiya etiladigan faoliyatlar
1-bosqich	qadriyatni anglab yetish qadriyatga umumiylashtirish asoslarda e'tibor qilish
2-bosqich	qadriyatga talablar bo'yicha e'tibor berish, qadriyatga o'shlash maslagidan kelib chiqib e'tibor berish, qadriyatga e'tibor asosida goniqish hissiga erishish
3-bosqich	qadriyatga asosan rioya qilish qadriyatni ifodalash ko'rish
4-bosqich	qadriyatlar tartibini tuzish
5-bosqich	qadriyatga to'la rioya qilish, yangi qadriyatlarni anglab yetish

#### O'quv maqsadlarini belgilash uchun tavsiya etiladigan fyellar

Tushuntirish	Farqlash	Ko'rsatish	Reja tuzish
Aniqlash	Ishlab chiqish	Tashxis qo'yish	Soddalashirish
Bajarish	Shakllantirish	Yozish	Qurish
Isbotlash	Chizish	Muvofiqlashtirish	Amalda ko'rsatish
Sanab berish	O'qib berish	Taqdim etish	Taqlid qilish
Baholash	Hisoblash	Tavsiya berish	Sintez qilish
Namoyish qilish	Yig'ish	Takomillashtirish	Topish
Tashkil etish	Jadval tuzish	Maslahat berish	Rivojlantirish
Tuzatish	Taqqoslash	Tanlash	Belgilash
Ko'rsatma berish	Xulosa chiqarish	Hamkorlik qilish	Guruhash
Foydalanish	Tayyorlash	Joylashtirish	Yakunlash
Yechimini topish	Hisobot yozish	Muhokama qilish	Bo'lish
Muammoni yechish	Axborot berish	Buyurtma berish	Qayta ko'rish
Tahlil qilish	Tekshirish	Himoya qilish	Tahrirlash
Tizimlashtirish	Tasniflash	O'chanash	Yoritib berish
Tuzish	Tavsilflash	Tadqiq qilish	Qo'llash
Kuzatish	Ajratish	Almashtirish	

#### §5.O'quv maqsadlari va ularning turlari

**O'quv maqsadlari.** O'quv maqsadlari ta'limgarayonini oxiri-da kutilayotgan natijaning yozma tafsifidan iborat. Ma'lumki, jonli ta'limgarayonida ikki tomon: ta'limgaraychi va ta'limgaraychisi beruvchi ishtiroy etadi. Ta'limgaraychi – bular o'rganuvchi o'quvchi, ta'limgaraychi yoki ta'limgaraychisi oluvchilaridir. Ta'limgaraychisi esa – o'rgatuvchi, o'qituvchi yoki ustalardir.

O'quv maqsadlari ta'limgarayonini ishtirokehilarining qaysi biri tomonidan qaralishiga qarab, o'rganish va o'rgatish maqsadlariga ajratiladi. An'anaviy ta'limgaraychi odatda o'quv maqsadlari pedagog faoliyatini orqali ifodalanadi. Masalan: "O'quvchilarga qo'lda suvoq qilish usullarini o'rgatish".

Bunda pedagog tomonidan maqsadning qo'yilishi uning o'z faoliyatiga qaratilgan bo'lib, bu bilan ta'limgarayonining aniq maqsadlariga erishilganligini aniqlab bo'lmaydi. Chunki, ta'limgarayonini natijasida, ta'limgaraychi, ya'ni o'rgatuvchining nimaga erishgani emas, balki ta'limgaraychi, ya'ni o'rganuvchining nimaga erishgani muhim bo'lgani uchun, kelgusida o'quv maqsadlari deganda o'rganish maqsadlarini tushunamiz.

Zamonaviy o'quv maqsadlarini qo'yish uslubi o'ziga xos xususiyatga ega. Bu shundan iboratki, o'quv maqsadlari (o'quv vazifalari deb ham ataladi) o'quvchilar harakatida ifodalanadigan va aniq ko'rinishdagi, hamda o'chanadigan natijalar orqali belgilanadi. O'quv maqsadlarini o'chanash, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya'ni ta'limgaraychi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

O'quv maqsadlari, bu – muayyan ta'limgarayonida yakunida ta'limgaraychi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, hattu-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va sulqni belgilaydi.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, o'quv maqsadlari oldindan ko'zlangan yakuniy natijalar tavsifidir. Uni to'g'ri tanlash ta'lim jarayoni uchun o'ta muhimdir. Buni quyidagi ibora yordamida yaxshiroq tushunsa bo'ladi:

"Qayerga borishni, oxirgi manzilni bilmasdan turib safarga otlanishdan hech qanday ma'no va naf yo'q".

Nazariy dars va amaliy mashg'ulot aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonlaridir. Har qanday dars, oldindan belgilangan muayyan o'quv natijalariga erishish maqsadida olib boriladi.

Agar darsning maqsadlari aniqlanmasdan o'tkazilsa, u holda uning mazmuni va didaktik tuzilishi u yoki bu darajada tasodifga bog'liq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida "Aravani quruq olib qochishga qochish" ga olib keladi. Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarning maqsadlari, aniq bo'lgan taqdirdagina, ularning mazmunini belgilash va ularni didaktik nuqtai nazardan ishlab chiqishga kirishish mumkin. Shu bois, har bir ta'lim muassasasi o'qituvchisi, amaliyat va ishlab chiqarish ustasi uchun o'quv maqsadlarini bilish, to'g'ri qo'ya olish va tanlash ko'nikmalariga ega bo'lish ta'lim jarayoni-da juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir nazariy dars va amaliy mashg'ulotning o'quv maqsadlari oldindan aniqlanishi lozim. Aniqlangan o'quv maqsadlari, dars mazmuni bo'yicha qaysi nazariy materiallarni tanlash, uni o'tkazish bo'yicha qanday metodik va didaktik resurslardan foydalanish lozimligini belgilab beradi. Shunday qilib, har qanday ta'lim jarayonida o'quv maqsadlari ta'lim mazmuni, metodlari va vositalarini belgilar ekan.

Yo'naltiruvchi, umumiy va aniq maqsadlar. O'quv maqsadlari ta'lim jarayonining ko'lamiga ko'ra turlicha tarzda ifodalanishi mumkin. O'quv maqsadlari, pastdan yuqoriga qarab:

alohida olingen bitta darsning maqsadi,  
fanning biror bo'limini o'rganishning o'quv maqsadlari,  
butun bir fanni o'rganishning o'quv maqsadlari,  
biron bir fanlar blokini o'rganishdan ko'zlangan o'quv maqsadlari,  
butun bir mutaxassislikni egallash bo'yicha o'quv maqsadlariga bo'linadi.

Kichik ko'lamda (alohida dars, fanning bir bo'limi uchun) maqsadlar aniq qo'yilsa, ko'lam kattalashgan sari (modulni o'rganish, mutaxassislikni egallash uchun) o'quv maqsadlari umumlash-tirib boriladi. O'quv maqsadlari qamrov ko'lamiga qarab uch til turga ajratiladi: yo'naltiruvchi o'quv maqsadlar, umumiy o'quv maqsadlar va aniq o'quv maqsadlar.

**Yonaltiruvchi maqsadlar.** Yo'naltiruvchi maqsadlar eng katta ko'lamdagi ta'lim jarayonining maqsadlarini belgilaydi. Masalan, biror mutaxassislikni egallash bo'yicha o'quv maqsadlar.

Bu maqsadlar odatda davlat ta'lim standartlarida o'z aksini topadi va qonuniy hujjat hisoblanadi. Ular ta'lim jarayoniga qo'yilgan umumiy talablarni aniqlaydi va uning umumiy yo'nalishini belgilab beradi.

Umumiy maqsadlar. Umumiy maqsadlar kichikroq ko'lamdag'i ta'lim jarayonlariga taalluqli bo'lib, uning mazmuni yo'naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqadi. Masalan, biror fan bo'yicha o'quv maqsadlari. Umumiy maqsadalar ham har bir fan bo'yicha tuzilgan davlat ta'lim standartlari ko'rinishida belgilanishi mumkin. Umumiy maqsadlar yo'naltiruvchi maqsadlarni o'z qamrov ko'lamiga darajasida oydinlashtiradi va aniqlashtiradi. Shunday bo'lsada, yo'naltiruvchi maqsadlar ta'lim oluvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va hulq haqidagi umumiy tasavvur beradi. U ham o'z navbatida pastki ko'lamda yanada aniqlashtirilishi va oydinlashtirilishi lozim bo'ladi.

**Aniq maqsadlar.** Aniq maqsaddar eng kichik ko'lamdag'i ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lib, uning mazmuni o'z navbatida umumiy maqsadlardan kelib chiqadi. Masalan, biron bir darsning maqsadi, fandagi birorta bo'limning o'quv maqsadi. Aniq maqsadlar aniq ifoda etilganligi tufayli ta'lim jarayonida muhim o'rinn tutadi. Ular bi-ron bir mavzuga yoki biror bir bo'limga oid dars, amaliy mashg'ulot bo'yicha o'chanishi mumkin bo'lgan aniq yakuniy bilim, ko'nikma, mala-ka va xulqni ifodalaydi. Shuning uchun ularni ifodalashda, maqsadlar bilan birga, ularga erishish ko'rsatkichlarini, baholash mezonlarini va bu natajalarga erishish uchun yaratilishi lozim bo'lgan shart-sharoitlar (asbob-uskunalar, materiallar va boshqa zaruriy vositalar) tavsifini berish ham lozim bo'ladi. Aniq maqsadlar odatda ta'lim

muassasalari o'qituvchilari va ustalari tomonidan ishlab chiqiladi. Shuningdek, bu maqsadlar yuqorida turgan mutasaddi ta'lif muassasalari, ilmiy-metodik kengashlar tomonidan ish chiqilishi va amaliyatga tadbiq qilinishi mumkin.

Shaxs faoliyatining kognitiv, psixomotorik va affektiv sohalari bo'yicha o'quv maqsadlari. Shaxs faoliyati sohalariga bog'liq ravishda aniq o'quv maqsadlari uch xil bo'ladi:

**kognitiv** (nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq) soha o'quv maqsadlari.

**psixomotorik** (amaliy hattu-harakatlarni o'zlashtirish bilan bog'liq) soha o'quv maqsadlari,

**affektiv** (hulq, o'zini tutish, atrof muhitga va tevarak atrof-dagilarju munosabatning shakllanishi va qadriyatlarni o'zlashtirish bilan bog'liq) soha o'quv maqsadlari.

**Kognitiv sohaga tegishli o'quv maqsadlari.** Kognitiv sohaga tegishli o'quv maqsadlarini ifodalashda pedagoglar ko'proq 1956 yil-da Amerika pedagogi Benjamin Blum taklif qilgan o'quv maqsadlari taksonomiyasidan o'rinn olgan (1 – bilish, 2 – tushunish, 3 – qo'llash, 4 – tahlil qilish, 5 – sintezlash, 6 – baho berish va shularning har biri bilan teng kuchli bo'lgan aqliy jarayonlarni ifodalovchi) feyllardan foydalanib kelishadi.

Shu yerda yana bir narsani eslatib o'tib ketish o'rinniki, XX asrning so'nggi yillariga qadar ta'lif muassasalarida o'quvchi va tala-balar bilimini baholashda Blum taksonomiyasidan qanchalik keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda.

Anderson va uning hamkasblarining fikricha, yangi xabarni o'zlashtirish jarayoni shu jarayonning boshlanishidan to yakun topguniga qadar to'rtta bosqichni bosib o'tadi:

1. Xabardagi dalillarni o'zlashtirish (ya'ni xabardagi lug'atlarga, ta'riflarga va o'ziga xos ayrim qismlarga aloqador ma'lumotlar-ni o'zlashtirish).

2. Xabardagi kontseptsiyani o'zlashtirish (ya'ni xabarchining xa-barchilarning qaysi bir toifasiga mansubligiga qarab o'zini o'shangan muvofiqlashirish).

3. Xabardagi g'oyani amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirish (ya'ni xabardagi g'oyani amalga oshirishning o'sha xabarda sanab o'tilgan algoritmlarini,

evristikalarini, empirik usullarini, texnik uskunalarini va ulardan foydalanish yo'llarini o'zlashtirish).

4. Xabar tarqatishda xabarchi qo'llagan fikr yuritish va uni boshqarish jarayonini o'zlashtirish.

Anderson va hamkasblarining mulohazalari bo'yicha ushbu bosqichlarni Blum taksonomiyası shaklida tartiblashtirib chiqilsa, quyidagidek jadvalga ega bo'linadi (Blum-Anderson taksonomiyası) (10-jadval):

Blum-Anderson taksonomiyası

10-jadval

Aqliy amal	Izohi
Tanishish	Yangi axborotni xotiraga joylash
Tushunish	Avval o'r ganilgan o'quv materiali yoki tajriba asosida yangi axborotga ahamiyat baxsh etish
Qo'llash	Axborotning amaliy ahamiyatini o'lehash
Tahlil qilish	Axborotni qismlarga ajratish, qismlarning yaxlitlikka aloqadorliklarini tavsiflash
Baho berish	Mezonlar va standartlar asosida axborotga nisbatan munosabat bildirish
Yaratish	Yangicha yechim paydo qilish uchun xabar qismlarini boshqachasiga birlashtirish, yangicha strukturna komponentlarini aniqlash

**Psixomotorik sohaga tegishli o'quv maqsadlari.** Mazkur o'quv maqsadlari amaliy ish jarayonlari orqali hosil qilinadigan ko'nikma va malakalarni egallashni ko'zda tutadi. Bunda psixika orqali boshqariladigan mushkul harakatlari (motorik harakatlari) amalga oshadi. Amaliy faoliyat olib borish, misol uchun, biror asbobni ishlata olish malakasiga ega bo'lish psixomotorik sohaga tegishli o'quv maqsadlari hisoblanadi. Ushbu o'r ganish sohasi inson miyasi tomonidan boshqariladigan harakatlarni ifodalaydi. Ular esa o'z navbatida motorik (muskul harakatlari bilan bog'liq) ko'nikmalarni talab etadi. Psixomotorik harakatlari oddiy, o'rta va kompleks harakatlari ga ajratilishi mumkin.

**Affektiv sohaga tegishli o'quv maqsadlari.** Affektiv sohaga tegishli o'quv maqsadlari, shaxsnинг uni o'rabi turgan atrof muhitga nisbatan munosabati, boshqa kishilar bilan o'zaro muomalasi, hulqi, jamoat joylarida o'zini tutishi kabi umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalarni egallahni nazarda tutadi. Uni aniqlashda maslak, mansaat, munosabat, qadriyat, intizom, dunyoqarash, xavfsizlik (xususan, mehnat xavfsizligi) kabi emosional holatlardan kelib chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda, ixtiyoriy ta'lim jarayoniing maqsadi o'quv maqsadlarining har uchchala turidan iborat bo'ladi. Nazariy darsda ko'proq kognitiv sohaga tegishli bilimlarni, amaliy ta'limda esa ko'proq psixomotorik sohaga tegishli ko'nikmalarni egallahsga e'tibor qaratish lozim. Affektiv sohaga tegishli o'quv maqsadlariga ilgarilari unchalik e'tibor berilmas edi.

Shaxs kamolotiga yangicha nazar bilan qaralayotgan va katta e'tibor berilayotgan bugungi kunda bu sohaga tegishli o'quv maqsadlari ham nisbatan katta ahamiyat kash etib bormoqda.

## §6. Baholash mezonlari, shakkari va turlari

Yuqorida ta'kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanilayotganda faoliyatning kognitiv sohasiga tegishli o'quv maqsadlariga erishilganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanilayotganda faoliyatning psixomotorik sohasiga, xulq-at-vor va shaxsiy fazilatlar baholanilayotganda esa – faoliyatning affektiv sohasiga tegishli o'quv maqsadlariga erishilganlik darajalari aniqlanadi.

**Baholash mezonlari.** Har qanday baholash natijalarini o'zaro taq-qoslanishi, ya ni o'chanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baho-lashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay da-rajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar ("5", "4", "3" va hokazo), so'zlar ("A'lo", "Yaxshi", "Qonigarli" va hokazo) yordamida tafsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan

bo'lsak, baholash mezonlari ta'lim oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

Baholash shakkari. Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin:

### **Mezonga asoslangan baholash**

#### **Me'yorga asoslangan baholash.**

**Mezonga asoslangan baholash** – baholanuvchining ta'lim jarayo-nida qo'lgan kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan ham-ma uchun umumiylar va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lichashdan iborat bo'lgai baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi o'quv maqsadlari bo'yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan to'g'ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshi-roq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o'chananadi.

#### **Mezonga asoslangan (yoki maqsadli) baholashning afzalliklari:**

O'quv maqsadiga muvofiq baholanadi.

Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini obyektiv baholaydi.

Ta'lim oluvchi olgan bahosida yo'l qo'ygan xatolarini yaqqol ko'rsatib beradi.

Baholanuvchini ta'lim olishga yo'naltiradi.

Baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini olisona aniqlab beradi, ularning o'z bilimi va malakalariga bo'lgan ishochini oshiradi.

Hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarni o'rnatadi.

Ta'lim mazmunini aniqlab beradi.

Baholanuvchilarning o'z faoliyati natijalariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

#### **Mezonga asoslangan baholashning kamchiliklari:**

Mezonlarni ishlab chiqish ko'p vaqt talab qiladi.

Mezonlarning obyektivligi, haqqoniyligi va aniqligini aniqlashtirishga nisbatan talablar sonining ko'pligi.

Ijtimoiy fan yo'nalishlari bo'yicha mezonlar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duchi kelinadi.

**Me'yorga asoslangan baholash** – nisbiy baholash shakli bo'lib, u baholashda so'ng baholanuvchilarning ta'limgarayonida qo'lga kiritgan natijadarini o'zaro taqqoslash orqali o'lehashdan iborat.

Bu baholash shakli ham ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalarini aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o'zaro taqqoslash orqali o'lehanadi. Me'yorlangan (normaga asoslangan) baholashda baho bir necha ko'rsat-kichlarga va ta'limgarayonida shart-sharoitiga ko'ra o'zgarishi mumkin bo'-ladi. Masalan, o'qituvchida xayrihohlikning paydo bo'lishi, o'qituvchining o'ta qat'iyligi sababli ham baho o'zgarishi mumkin.

*Me'yoriy (normaga asoslangan) baholashning afzalliklari:*

O'qituvchi ortiqcha vaqt sarflamaydi.

Turli shart-sharoitga oson moslashtirish mumkin.

Baho bo'yicha ko'rsatkichlar umumiylar tarzda olinadi.

Muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularni o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish imkonini beradi.

Baholash natijasida guruh ichidan ma'lum sondagilarini ajratib olish imkonini beradi (masalan, ta'limgarayonida muassasasiga kirish imtiyonlari natijasida, boshqalarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich ko'rsatgarni ajratib *olish mumkin*).

*Me'yoriy (normaga asoslangan) baholashning kamchiliklari:*

Baholashda bilim bilan xulqni baholash aralashtirib yubori-ladi.

Ba'zan xulqni baholash bilimi baholashni belgilab qo'yadi.

Baholar o'qituvchi tomonidan subyektiv tarzda belgilanishi mumkin.

Ta'limgarayonida nisbatan simpatiya ham bahoni yuqori qo'yib yuborishga olib keladi. Bilimlarni obyektiv va haqqoniyligi tarzda baholashning pasayishiga yo'l ochib beradi.

**Baholash turlari.** Baholash o'tkazilish vaqtiga ko'ra uch turga ajratiladi:

Boshlang'ich baholash.

Joriy, ya'ni shakllantiruvchi baholash.

Yakuniy, ya'ni umumlashtiruvchi baholash.

**Boshlang'ich baholash** – ta'limgarayonida ta'limgarayonida oluvchi-larning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalarini ta'limgarayonining mazmuni, usullari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

**Joriy (shakllantiruvchi) baholash** muntazam ravishda o'tkazib boriladi. U ta'limgarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta'limgarayonida samarasini tezkor (operativ) aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta'limgarayonida beruvchi va ta'limgarayonida oluvchi o'rtafiga qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

**Yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash** – ta'limgarayonida oluvchining ta'limgarayoniniig ma'lum davridagi o'zlashtirish natijalarini belgi-langan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi.

Yakuniy baholash ta'limgarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkaziladi. U joriy baholash natijalarini jamlaydi.

Umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

Ta'limgarayonida oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o'tkazilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu uni baholashga tayyorlarlik ko'rishga olib keladi.

Baholashni o'tkazish shartlari unga jiddiy yondashishiga, diqqatni chalg'itadigan yoki tasodifiy uzilishlardan o'zini chetga olishga hamda ta'limgarayonida oluvchiga o'z qobiliyatini namoyish qilishiga imkon beradi.

Baholash o'tkazish shartida o'quvchi o'zini erkin tutishi va noxushlik his qilmasligiga imkoniyat yaratish kerak.

Baholovchi va ta'limgarayonida oluvchi baholash nima berishi, u qachon, kim tomonidan va qanday o'tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga ega.

Qo'yilgan baho o'quv natijasini tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir. Ta'limgarayonida oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezonini yordamida baholaniishi lozim. Rejalashtirilmagan baholashni o'gakizish maqsadga muvofiq emas.

## §7. Me'yorga asoslangan baholash

**Modulli o'qitish** - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik (11-jadval).

Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlarini

11-jadval

An'anaviy texnologiyasiga asoslangan	o'qitish	Modulli o'qitish asoslangan	texnologiyasiga
Bir tomonga yo'naltirilgan axborot.	Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni ra g'batlantirish.		
Bir tomonlama muloqot (darslik> o'qituvchi>o'quvchi)	Ikki tomonlama muloqot		
Axborot olish	Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish		
Xotirada saqlash	Bilim va ko'nikmalarni namoyish etish		
Ma'nosini tushunmagan holda mexaniq tarzda yodlash.	Mazmunni tushunish va hayotga bo g'lash.		

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadi, modulli texnologiyaga asoslangan ta'lim an'anaviy ta'limdan o'qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi.

Modulli o'qitish ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama echish imkoniyatini yaratadi.

Modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;

o'qitishni individuallashtirish;

amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;

kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yogba chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bo'g'liq:

ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;

malakali pedagoglar tarkibi darajasi;

ta'lim oluvchilar tayyorgarligi darajasiga;

kutiladigan natijalar bahosiga;

didaktik materialarning ishlab chiqilishiga;

modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitishda - o'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. Ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning uzluksizligini ta'minlash;

- o'qitishni individuallashtirish;

- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;

- o'qitishni jadallashtirish;

- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmo g'i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:

- \* muammoli muloqotlar;

- \* evristik suhbatlar;

- o'quv o'yinlar;
- loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

- fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzlusizligini ta'minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvosiqligini o'matilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;
- ta'lim oluvchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim ta'lim oluvchilarga fanni individullahtirishni tavsya etishi mumkin);
- axborotni "Siqib" berish natijasida o'qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqt tarkibini ma'ruzaviy amaliy (tajribaviy) mash g'ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni optimallashtirish.

Buning natijasida ta'lif oluvchi yetarli bilimlarga ko'nikmaga ega bo'ladi.

Modulli metodika asosida o'qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvosiq ishlab chiqilishi lozim.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra modulli metodika asosida o'qitishning quyidagi tamoyillari ochib berildi.

**1.Faoliyatlichkeit tamoyili:** Bu tamoyil mutaxassisning kasbiy faoliyati mazmuniga muvosiq shakllanishini anglatadi. Bu tamoyilga ko'ra modullar fan bo'yicha faoliyat yondashuv yoki tizimli faoliyat yondashuv asosida tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish texnologiyasiga fan bo'yicha faoliyat yondashuvida modullarni o'quv rejasiga va dasturlar tahlili natijasida tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida modullar bloki mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosida shakllantiriladi.

**2.Tizimli kvantlash tamoyili** - bu tamoyil didaktik birliklar umumlashtirilgan nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Modulda tizimli kvantlash tamoyili o'quv materialining tegishli tuzilmasini tuzish yo'li bilan erishiladi. Modul umumiyo ko'rinishda quyidagi elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

- tarixiy - bu muammo teorema masala kashfiyat va tushunchalarning tarixiga qisqacha sharh berish;
- muammoli - bu muammoni shakllantirish;
- tizimli - bu modul tarkibi tizimini namoyon etish;
- faollashtirish - bu yangi o'quv materialini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko'rsatish;
  - nazariy - bu asosiy o'quv materiali bo'lib, unda - didaktik maqsadlar muammoni ifodalash gipotezani asoslash muammoni echish yo'llari ochib ko'rsatiladi;
  - tajribaviy - bu tajribaviy materialni (o'quv tajribasi tajribaviy ishni) bayon etish;
  - umumlashtirish - bu muammo yechimini va modul mazmunini umumlashtirish;
  - joriy etish - bu harakatlarning yangi usullarini ishlab chiqish va o'rganilgan materialni amaliyotda qo'llash;
  - xatoliklar - ta'lif oluvchilarning modul mazmunini o'rganishdagi o'zlashtirishda kuzatiladigan xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo'llarini ko'rsatish;
  - bog'liqlik - o'tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh funlar bilan bo'g'liqligini namoyon etish;
  - test va topshiriqlar yordamida baholash - modul mazmunini ta'lif oluvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholash.

O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytda modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi modul mazmunining boshqa modullar bilan bo'g'liqligi shu modulni o'rganishdagi ta'lif oluvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahmiyatga ega.

**3. Qiziqtirish tamoyili** - bu tamoyilning mohiyati ta'lif oluvchining bilim olish faoliyatini ra g'batlantirishdan iborat bo'ladi. Modulning o'quv materialiga

qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ishtiok etish, ijodiy fikrlashga da'vat etish modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

**4.Modullilik tamoyili** -bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan modulning dinamik tuzilmasi fan mazmunini uch xil ya'ni to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi. O'qitishning u yoki bu turini tanlash ta'lim oluvchining o'ziga havola qilinadi.

Ikkinchidan modul mazmunini o'zlashtirishda o'qitish usuli va shakllarning turligida ham modullilik namoyon bo'ladi. Bu esa o'qitishning faollashtirishga shakl va usullar (dialog, mustaqil o'qish,o'quv, imitatcion o'yinlar va hokazo) hamda muammoli ma'ruzalar seminarlar maslahatlar bo'lishi mumkin.

Uchinchidan modullilik yangi materialni pog'onasimon o'zlashtirishda ta'minlanadi, ya'ni har bir fan va har bir modulda o'qitish oddiydan murakkabga qarab yo'nalgan bo'ladi.

To'rtinchidan modulga kiruvchi o'quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli o'quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati tu g'iladi.

**5.Muammolilik tamovili** - muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirilganligi o'quv materialining o'zlashtirish samaradorligini oshishiga imkon beradi.

Mashg'ulotlar paytida gipoteza qo'yiladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va muammoning yechimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar. Masalan AQShda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'yan muammoning yechim yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni u tadqiqotchi yoki maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi navbatda ayniqsa ana shu narsa ta'lim oluvchini qiziqtirib qo'yadi unda ijodiy fikrlash va faollikni tu g'diradi.

**6.Kognitiv vizuallik (ko'z bilan kuzatiladigan) tamoyili** - bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi. O'qitishdagi ko'rgazmalar

nafaqat so'roq vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o'zlashtirish unumdorligini oshiradi. Aynan shuning uchun kognitiv grafika-sun'iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo'lib,murakkab obyektlar kompyuter sur'atchalari ko'rinishida tasvirlanadi. Modulning tarkibiy tuzilmasi bo'lib rangli bajarilgan kognitiv-grafik o'quv elementlari xizmat qiladi. Shuning uchun rasmlar modulning asosiy bosh elementi hisoblanadi. Bu esa:

Birinchidan ta'lim oluvchining ko'rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

Ikkinchidan o'quv materiali mazmunini o'zida zinch joylashtirib ravshan ko'rsatuvchi rasm ta'lim oluvchida tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan rangli suratlар o'quv materialini qabul qilish va eslash samarasini oshiradi hamda ta'lim oluvchilarni estetik tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rgazmali ma'lumot og'zaki ma'lumotdan ko'ra ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko'rish mexanizmining ma'lumotni o'tkazish qobiliyati eshitishnikidan ko'ra anche yuqoridir. Bu esa o'z navbatida, ko'rish tizimiga inson qabul qilinadigan ma'lumotning qariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali ma'lumot bir vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun ma'lumotni qabul qilish va eslashga og'zaki ma'lumotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali ma'lumot ishlatalganda taassurot hosil bo'lishi o g'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi.

Insonning ko'rgazmali ma'lumotga ishonchi, o g'zaki ma'lumotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun "Yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir" deb bezij aytilmagan.

Shu bilan birga ko'rgazmali ma'lumotda qabul qilish va eslash unumi uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi. Og'zaki ma'lumotning o'zlashtirilishi esa, bunga bog'liq bo'ladi. O'rni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvolli-ko'rgazmali ma'lumotni qabul etish o'qitish samarasini oshiradi ya'ni o'quv-ilmiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan ma'lumotni ko'paytirish uchun shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

**7.Xatoliklarga tayanish tamoyili** - bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga ta'lif oluvchilarning ruhiy faoliyatni funktsional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishiga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ldi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi ta'lif oluvchida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

**8.O'quv vaqtini tejash tamoyili** - bu tamoyil ta'lif oluvchilarda individual va mustaqil ishslash uchun o'quv vaqtining zaxirasini yaratishga yo'naltirilgan bo'ldi.

To'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish o'qish vaqtini 30% va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Bunga esa modulli o'qitishning barcha tamoyillari to'la amalga oshirilganda, o'quv jarayoni kompyuterlashtirilganda yondosh fanlarning o'quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

O'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar natijasida modulli o'qitish – ta'lif oluvchilarning bilim imkoniyatlarini ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko'nikmalarini o'rghanish darajalarini rivojlantirishda ijobjiy samara berishi aniqlandi. Modulli metodika asosida o'qitishda fan tarkibidagi modular orasidagi uzviylikni ta'minlashga o'qitishni jadallashtirishga ta'lif oluvchilarning o'zlashtirishini muntaзам nazorat qilishga va baholashga qiziqtrish asosida amaliy faoliyatga o'rgatishga hamda o'quv materialini bosqichma-bosqich o'qitish orqali fanni samarali o'zlashtirishga erishiladi.

## §8. Kredit texnologiyasi bo'yicha bilimlarni baholash

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik taraqqiyot o'zining yuksak cho'qqilariga erishdi. Ilmiy texnik taraqqiyotining (ITT) hozirgi darajasi shundayki fan texnika va texnologiya rivojining erishilgan sur'atlarini mamlakat qay darajada rivojlangan bo'lmasisin alohida olingan mamlakatda uni ta'minlab bo'lmaydi. ITT keyingi rivoji saqat turli mamlakatlardagi olim va mutaxassislarning hamkorligi ilmiy-tadqiqot ishlarning integratsiyasi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Fan texnika va texnologiyaning taraqqiyoti ta'lif taraqqiyoti darajasi bilan chambarchas

bog'liqligini e'tiborga oladigan bo'lsak ta'lif sohasidagi xalqaro integratsiyaning ustuvorligi yaqqol muammoga aylanib qoladi.

Bu kredit texnologiyani yaratilishini va qo'llanishining dolzarbligini belgilaydi. Chunki ta'lif sohasidagi xalqaro integrallashuvu eng avvalo o'quv jarayonini kredit texnologiyasi asosida tashkil etishiga tayanadi.

Ta'lif sohasidagi integratsion jarayonlar ilk bor Evropada boshlangan edi. 1989 yilda Evropaning minglab ta'lif oluvchilari Evropa hamjamiyatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students) TEMPUS va boshqa dasturlari asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

ERASMUS dasturi bo'yicha Evropa hamjamiyati universitetlari o'rtasidagi ta'lif oluvchilar almashinuvu sxemasi dastavval 145 oliy o'quv yurtlarini qamrab olgan edi.

ERASMUS dasturining yutuqlaridan biri bu Evropa universitetlaridagi o'qitish natijalarini o'zaro tan olish tizimi – (bu) (European Credit Transfer System (ESTS) ni yaratish sinash va amaliyotga keng qo'llash deb aytish lozim.

Bolonya deklaratsiyasiga ko'ra diplomlarning o'zaro tan olinishi, ya'ni o'qitish natijalarini yakuniy ko'rsatkichlarning o'zaro tan olinish muddati – 2010 yil deb belgilangan edi.

Bolonya deklaratsiyasiga kirish uchun quyidagi dastlabki talablar qo'yildi:

- Oliy o'quv yurtigacha 12 yillik ta'lif;
- ikki bosqichli oliy ta'lif-bakalavriat va magistratura;
- o'quv jarayoni va o'qitish natijalarini baholash ESTS kredit texnologiyasi asosida tashkil etilishi.

"Kredit" atamasi (ESTS- credit) – sinovdan o'tdi, ma'lum bir kursni o'quv yurtida o'tganligi haqidagi guvohnoma ma'nosini anglatadi.

Creditda "Kredit – shartli sinov birligi bo'lib, ta'lif oluvchining o'quv fanining ma'lum bir qismini o'tganligi haqidagi ma'lumot beradi. Har bir o'quv faniga ma'lum miqdordagi kredit birliklari ajratiladi. Kredit birliklari soni ta'lif oluvchilarning mehnat sarfiga mos holda belgilanadi.

**ESTS kreditlari- bu yagona Evropa ta'lim hududini yaratishning (ibtidosidir) boshlanishidir.**

Ta'lim oluvchining mehnat sarfi – auditoriya mash g'ulotlari mustaqil ishlar va o'quv rejasida ko'zda tutilgan boshqa faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Ya'ni ESTS kreditlari faqat auditoriya soatlari bilan chegaralanmasdan ta'lim oluvchilarning to'la yuklamasiga tayanadi. Shuning uchun ESTS kreditlarini ta'lim oluvchi mehnat sarfining o'quv fanlari bo'yicha shartli-sonli ifodasi deb hisoblash mumkin.

Odatda o'quv rejasidagi fanlarga ajratiladigan kreditlar soni 3 ga teng undan ko'p va kam sonli fanlar ham mavjud.

ESTSda kreditlar yig'indisi semestrda – 30 o'quv yilida – 60 bakalavriatdagi o'quv davrida – 240 ni tashkil etadi.

ESTS kreditlari barcha o'quv fanlariga ya'ni majburiy va ta'lim oluvchi tanlovi asosida fanlarga taqsimlanadi. Ular mazkur fan bo'yicha kurs loyihalari va ishlarning mavjudligini hisobga olishlari zarur.

O'quv faniga ajratiladigan kreditlar miqdori, fanning murkkabligiga va o'zlashtirish bo'lg'liq bo'ladi. Ya'ni har qanday murakkab fan ham katta miqdordagi kreditlarga ega bo'la olmaydi.

Agar murakkab fan bilish va tushunish darajasida o'zlashtiriladigan bo'lsa, kam murakkabli o'quv fani malaka darajasida o'zlashtirilsa tabiiyki oxirisiga ko'proq kreditlar ajratiladi. Shuning uchun turli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun, bir fanning o'zi turli o'quv dasturlariga va unga muvosiq turli mehnat sarfi va kreditlarga ega bo'lishi mumkin.

Ko'rinib turganidek bizning mamalkatimizda birinchi va ikkinchi talablar bajarilgan. Endi navbat uchinchi talabni bajarishda – ya'ni o'quv jarayonini kredit texnologiyasi asosida tashkil etish.

Ushbu texnologiya asosida o'quv jarayonini tashkil etishdan maqsad nimadan iborat?

O'quv jarayonini tashkil etishning ESTS kredit texnologiyasiga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- xorijda o'qishni davom ettirish uchun oliy yurtini tanlashda shart-sharoit yaratish;
- O'zbekistonda ta'lim olgan muddatnini xorijiy davlatlarda tan olinishini ta'minlash;
- Evropa oliv o'quv yurtlari o'quv rejalarini o'rganish va shu asosida o'quv jarayonini takomillashtirish;
- ta'lim oluvchilar qobiliyatini to'laroq ochilishiga va o'qitishning yuqori natijalariga erishish.

**ESTSning asosiy tamoyillari**

ESTS quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. *Transferancy* - bu ESTS tizimiga xoxlagan shaxs yoki tashkilotning to'siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shart-sharoit kuchli axborot tar g'iboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlik va ochiqlik muhit shakllantiriladi.

Axborot tar g'iboti quyidagilarni o'z ichiga oladi:  
almashish sxemasiga kiritilgan ta'lim oluvchilarning o'qish natijalari haqida bir-biriga o'z vaqtida axborot yetkazib turish;

oliy o'quv yurtlarining o'z axbrot paketlari bilan muntazam almashib turishlari, ta'lim xizmatlari doirasida bir-birini imkoniyatlarini o'rganish;

oliy o'quv yurtlarida, ECTS haqida to'la ma'lumotlarning mavjudligi.  
2. *Agreement* – ta'lim oluvchi bilan ikkala oliy ta'lim muassasasining ESTS koordinatorlari orasida tayyorlash mazmuni, o'quv tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o'quv rejalaridagi faro'ni bartaraf etish tartiblari haqida o'zar kelishuvlarini anglatadi.

3. *Credits* – Host universitetida (qabul qiladigan universitet) muvaffaqiyatlari o'tilgan barcha fanlar Post – universitetda (ta'lim oluvchini boshqa OTMga jo'natgan universitet) hisobga olinishi zarur.

4. *Ta'limning insonparvarlashuvi* – bu shaxsning turli ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishi va ta'lim jarayonida inson qobiyatining ochilishini anglatadi. ESTS ta'limni davom ettirish uchun oliy ta'lim muassasasini, o'quv fanlarini va o'qituvchilarni tanlish imkoniyatini beradi.

*5.Ta'limning individuallashtiruvchi* – bu har bir ta'lim oluvchining individual reja va ta'lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Ta'lim oluvchi tanlovi asosidagi fanlar 70%ni, majburiy fanlar esa 30% dan oshmaydi. Ta'lim oluvchining mustaqil ish hajmi 70%ni, auditoriyadagi ishi esa 30%ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar individual ta'limni tashkil qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

*6.Ta'limning samaradorligi* –guruhda individual o'qitishli auditoriya mashg'ulotlari va ta'lim oluvchining mustavqil ishlarini uy g'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Auditoriya o'quv vaqtining 70% gacha qismini individual o'qitishga, shuningdek umumiy o'quv vaqtining 70%gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o'quv fanlarining ta'lim oluvchilar tomonidan o'z qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishga imkon yaratadi. Ushbu bilan ta'limning samaradorligi ta'minlanadi.

*◊ ECTS tamoyillari – shaxsnинг о'з qobiliyatini to'la rivojlanishi va ro'yobga chiqarish rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyligini ko'zda tutadi.*

### **ESTSning xususiyatlari**

Zamonaviy o'qitish texnologiyasi, olyi ta'lim muasasasining jihozlanganligi, pedagoglar tarkibi faqat darajali, yuqori malakali kadrlardan iborat bo'lishi, o'qitishning yuqori sifatlari – ESTS uchun dastlabki zaruriy talablar hisoblanadi. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu tizimi, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'quv rejasi bo'yicha; barcha o'quv fanlari ikki guruhg'a bo'linadi – majburiy va ta'lim oluvchi tanlovi asosidagi fanlar. Bu nisbatan taxminan 1:2 ga teng qabul qilinadi;

Har bir ta'lim oluvchi shaxsiy o'quv rejasiga ega bo'ladi.

Asosiy hujjat transkript (transcript of records) u xususiyatlarning unifikatsiyalashgan hujjat bo'lib, yagona shaklda tuziladi, o'qitish natijalarini tan olish uchun majburiy hujjat hisoblanadi. Transkriptda, ta'lim oluvchining mazkur davlatda qabul qilingan baholash tizimida ham, xususiyatl tizimi bo'yicha hapm olgan baholari, olingan xususiyatl kreditlari bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi:

Har bir semestrda o'rganiladigan fanlarning soni 3...5ta bo'lishi;

Mustaqil ishga ajratilgan soatlar, auditoriya soatlaridan ko'p bo'lishi;

Kredit o'zida ta'lim oluvchilning o'quv fanini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan barcha mehnat sarflarini mujassamlashtirdi. O'quv fani uchun ajratiladigan kreditlar soni, aksariyat hollarda 3 ga teng bo'ladi.

( O'quv fani dasturining mazmuni (syllabus) quyidagilarni o'z ichiga oladi:  
o'quv fanining to'liq nomlanishi va uning o'quv rejasidagi tartib raqami;  
o'quv fanini o'rganish maqsadi;  
o'quv fanining qisqacha mazmuni;  
taqvimiyl reja, mash g'ulotlar jadvali bilan;  
o'qitish texnologiyasi;  
ta'lim oluvchining mas'uliyati va unga qo'yilgan talablar;  
ta'lim oluvchilar bilimini baholash tartibi va mezonlari;  
asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati.

### ***O'qituvchining o'quv yuklamasini hisoblashda:***

Umumiy mehnat sarfi miqdori (auditoriya va mustaqil ish soatları) bir o'quv yilida 750-800 soatni tashkil etishi – e'tiborga olinadi.

*O'qitish jarayonining asos umu:*  
shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari;  
ta'lim oluvchining mustaqil ishida, o'qituvchi maslahatchi sifatida ishtiroy etadi;  
ta'lim oluvchi o'quv fanini va o'qituvchini tanlash huquqiga ega.

*Har bir ta'lim oluvchiga axborot paketi beriladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi.*

Oliy ta'lim muassasasi haqida ma'lumot;  
O'quv rejasi;  
O'quv jarayonining grafigi;  
O'quv fanlarining mazmuni;  
Oliy ta'lim muassasida qabul qilingan ta'lim tizimining metodik xususiyatlari haqida ma'lumotlar;  
ta'lim oluvchilr bilimini baholash tizimi va baholar shkalasi haqida ma'lumotlar;  
ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarga tegishli ma'lumotlar;  
tarixiy va madaniy sohaga oid ma'lumotlar;

qo'shimcha ta'lif xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar

*ECTS –oliy muktabda o'quv jarayonini tashkil etishning demokratik tizimining namunasidir.*

#### *Kreditlarni taqsimlash va ESTS o'quv rejalariga o'tish metodikasi*

Davlat ta'lif standartlariga tayanib tuzilgan o'quv rejasi, o'quv jarayonini tashkil etishning asosi bo'lib xizmat qildi. Ushbu me'yoriy hujjatlar asosida o'quv faoliyati turlari bo'yicha mehnat sarflari aniqlanadi. O'quv faoliyati turlari bo'yicha mehnat sarflarini hisoblash namunasi 1.-jadvalda keltirilgan.

Kreditlarni hisoblash va ularni o'quv faliyatlarini turlari, bloklar va alohida fanlar bo'yicha taqsimlashda o'tish koefitsientini aniqlash zarur ( $K_{o'm}$ ).

$$K_{o'm} = 240:8262-0,029$$

Bu erda: 240 – bakalavriatning ESTS bo'yicha umumiyligi mehnat sarflari yi g'indisi, soat. Kreditlar soni mehnat sarfini o'tish koefitsientiga (0,029) ko'paytirib toriladi.

O'quv faoliyati turlari, bloklar va alohida o'quv fanlari bo'yicha kreditlarni hisoblash namunalari 12 va 13-jadvallarda keltirilgan.

O'quv faoliyati turlari bo'yicha kreditlar taqsimotii namunasi

12 –jadval

No	DTS asosida o'quv faoliyatining nogmi	Hafta -lar soni	Auditoriya soatlari	Umumiyligi o'quv yuklamasi	Kredit
1	Nazariy va amaliy ta'lif	136	[136:36]	136·54=73 44	7344·0,029=2 13
2	Malakaviy amaliyot	12	432	648	19
2.1	Ishlab chiqarish amaliyoti	4	4·6·6=144	4·6·9=126	6
2.2	Pedagogik amaliyot	8	288	432	13
3.	Bitiruv ishi	5	5·36=180	5·54=270	8
4.	Attestatsiya	19			
5.	Ta'til	32			
Jami:		204	5508	8262	240

Jadvaldagagi ma'lumotlarni hisoblashda haftalik auditoriya o'quv yuklamasi – 36 soat, ta'lif oluvchilarning me'yoriy haftalik mehnat sarfi – 54 soat qabul qilingan.

Zamonaviy o'quv rejasi bo'yicha, ESTS bir kreditning taxminiy qiymati ta'lif oluvchingin 34,4 soat mehnat sarfiga tengdir.

#### Blokleri bo'yicha kreditlarni taqsimoti nazariyasi

13- jadval

No	Fanlar bloklarining nomlanishi	Auditoriya soatlari	Umumiyligi o'quv yuklamasi	Kredit
1	Umumgumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar	1214 (≈25%)	1726	50
2	Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar	846 (25%ra)	1292	37
3	Umumkasb fanlari	2034 (50%ra)	3682	89
4	Ixtisoslik fanlar	468 (≈10%)	794	23
5	Qo'shimcha fanlar	334 (≈5%)	450	14
6	Malakaviy amaliyot	432 6	648 9	19
7	Bitiruv ishi	180	270	8
Jami		5508	8262	240

O'quv fanlari bo'yicha kreditlar taqsimoti namunasi

14- jadval

I kurs: bahorgi semestr				
1.	Huquqshunoslik	55	1,6	2
2.	O'z.R.Konstitutsiyasi	55	1,6	2
3.	Iqtisodiyot nazariyasi	98/98	2,8	3
4.	O'zbek (rus) tili	55	1,6	2

5.	Chet tili	43	1,3	1
6.	Jismoniy madaniyat	57	1,7	2
7.	Informatsion texnologiyalar va tizimlar	108	3,2	3
8.	Iqtisodchilar uchun matematika	110	3,2	3
9.	Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika	110	1,8	3
10.	Iqtisodiy geografiya va ekologiya	60	2,4	2
11.	Zamonaviy tabiiy fanlar kontseptsiyasi	82	2,9	2
12.	Iqtisodchilar uchun informatsion texnologiyalar	97	4,3	3
13.	Psixologiya	150	3,2	4
14.	Talim oluvchi tanlovi fanlari	110	31,6	3
Jami		1080	60	31
Hammasi:		202	60	60

#### Kredit texnologiyasi bo'yicha ta'lim oluvchilar bilimini baholash metodikasi

O'quv jarayoni kredit texnologiyasi asosida tashkil etilganida, aksariyat hollarda 4 balli baholar shkalasini qo'llab, 100 foiz baholash tizimi ishlataladi.

Masalan: A-4 б; B-3,5 б; C-3 б; D -2,5; E-2 б; F- 1,5 б; F-1 б.

100foizli baholash tizimi quyidagicha taqsimlanishi mumkin: mash g'ulotlarsha qatnashishi – 5%, joriy testlash – 30%, odatda 3 marta 10% dan; mustaqil ishlarni bajarish – 15%, o'rtacha 3 marta 5% dan; laboratoriya ishlarni bajarish – 10%, kurs loyihasi (ishi)ni bajarish -10%; yakuniy imtihon -30%.

15-jadval keltirilgan baholar mezonlaridan 10 foizli baholash tizimida qo'llaniganida foydalanish mumkin.

#### Baholash mezonlari

15-jadval

Baholar ta'rifi	Shartli belgisi	O'zlashtirish %	Baholash mezoni	Tayyorgarlik darajasi
A'lo	A	90-100	Bilimlarni umumlashtiradi va baholaydi, tahlil etadi, tushunadi, biladi	4-daraja ijod darajasi
Juda yaxshi	B	80-90 tahlili	Tahlil etadi, qo'llaydi, tushunadi, biladi	3-darajasi ko'nikma, malaka va darajasi (avtomatik)
Yaxshi	C	70-80 qo'llash	Qo'llaydi, tushunadi, biladi	3-darajasi qo'nikma va malaka darajasi
Qoniqarli	D	Tushunish	Tushunadi, biladi	2-daraja qayta tiklash darajasi
Yetarli	E	50-60 bilish	Biladi	1-darajasi tasavvur etish darajasi
yetarli emas, qo'shimcha yana ishslash talab qilinadi	FY	40-50	Yomon biladi	0-darajasi yomon tasavvur etadi
yetarli emas, qo'shimcha yana juda ham qo'p ishslash talab qilinadi	F	40 kam	Umuman bilmaydi	0-darajasi umuman tasavvur etmaydi

O'quv fani materialining 90-100% o'zlashtirishi "a'lo" bahoga to'g'ri keladi. Bu tayyorgarlikni 4-darajasiga tenglashtiriladi va "ijod darajasi" deb belgilaydi.

O'quv fani dasturi kamida 50% o'zlashtirilganida "yetarli" bahosi qo'yiladi, bu o'zlashtirishning tasavvur darajasi" deb belgilanadi. O'quv fanining 40%dan kam

o'zlashtirishi, tayyorgarlikning 0-darajasi, ya'ni "umuman tasavvur etmaydi" deb hisoblanadi.

## §9. Amaliy mahoratni va xulq-atvorni baholash

Malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoni ikkita mustaqil qismidan: nazariy ta'lif va ishlab chiqarish ta'lifidan iborat. Nazariy ta'lif ta'lif oluvchilarning umumiyligini bilim, ijtimoiy, umumkasbiy va kasbiy fanlarni o'rganishlarini o'z ichiga olib, ularda o'rganilayotgan kasbni ongli tarzda mustahkam va chuqur egallashlarini uchun zarur hajmdagi bilimlar tizimini shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi.

Ishlab chiqarish ta'lifining asosiy vazifasi – kelgusida malakali kichik mutaxassis bo'lib yetishadigan ta'lif oluvchilarni muayyan kasb yo'nalishida bevosita faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan, ya'ni o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga tadbiq etishga o'rnatishdan, zarur kasb ko'nikmasi va malakasini shakllantirishdan iborat.

Ko'nikma – ta'lif oluvchilarning mehnat jarayonidagi harakatni (yoki harakatlar majmuini) muayyan sharoitda maqsadga muvofiq bo'lgan harakat usullaridan To'g'ri foydalanib muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati.

Malaka – ta'lif oluvchilarning mehnat jarayonidagi harakatni (yoki harakatlar majmuini) aniq, tez va maqsadga muvofiq tarzda avtomatik ravishda bajarish qibiliyati. Yoki avtomatlashgan ko'iikma deb ham atash mumkin.

Amaliy mahorat (kompetentsiya) – ishlab chiqarish standartlariga mos holda, real ish sharoitida biror topshiriqni yoki topshiriqlar majmuini bajarish uchun bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash layoqati.

Kasbiy malakalar quyidagi to'rtta toifaga bo'linadi:

Asosiy malakalar,

Maxsus malakalar,

Umumiyligini bajarishni.

Individual malakalar.

**Asosiy malakalar.** Muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha barcha malakali ishchilar (kichik mutaxassislar) egallashi lozim bo'lgan alohida bilimlar va malakalar doirasi.

Mazkur malakalarni ta'lif oluvchilar o'qishni yakunlaganlaridan so'ng, o'z kasblari bo'yicha faoliyat ko'rsata olishlari hamda yuqori darajadagi mahoratga erishishlari uchun o'zlashtirishlari talab etiladi.

**Maxsus malakalar.** Ushbu malakalar ishlab chiqarish tarmoqlari tomonidan belgilanib, muayyan tarmoqning ixtisoslashtirilgan sohalarida qo'llaniladi. Mazkur malakaga ega bo'lish malakali ishchi (kichik mutaxassis) ning ishlab chiqarish tarmog'ining aniq bir soha-si bo'yicha ixtisoslashishiga imkon beradi.

**Umumiyligini bajarishni.** Ushbu malakalar aniq mutaxassislik bo'yicha talab etilib, shu bilan birga boshqa kasb yo'nalishlari uchun ham umumiyligini hisoblanadi. Misol uchun, chilangarlik ishlarini bajarish bo'yicha malakalar.

**Individual malakalar.** Yuqorida keltirilgan individual malakalar barcha kasblar uchun umumiyligini hisoblanib, muayyan kasbning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'shimchalar kiritilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Ushbu malakalar barcha kasblar uchun qo'llanilib, har bir malakali ishchi (kichik mutaxassis) xulq-atvorining ajralmas qismi hisoblanadi. Individual malakalarga quyidagi misol sifatida keltirish mumkin:

Muloqotmandlik

Iste'molchi bilan o'zaro munosabat

Sharoitga tez moslashish

Jamoada ishlay olish

Mustaqil ishlay olish

Tashabbuskorlik

Muammolarni yecha olish

Rejalashtirish

Axborot to'plash

Til bilish

Hisobot tayyorlash.

## **Amaliy mahorat va xulq-atvorni baholashning shakllari, turlari va usullari**

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha malakalar ta'lif muassasalarida barcha ta'lif oluvchilarda ishlab chiqarish ta'limi jarayonida shakllantiriladi. Ta'lif oluvchilar niig muayyan kasb bo'yicha bilim, ko'nikma va malaklarni qay darajada o'zlashtirayotganliklarini nazorat qilish va baholash ta'lif jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur metodik ishlanmaning birinchi qismida ta'lif oluvchilarning nazariy bilimlarini baholash shakllari, turlari vositalari to'g'risida atroflicha fikr yuritilgan edi. Ushbu modulda biz ta'-lim oluvchilarning amaliy mahorati va xulqini baholash xususida fikr yuritamiz.

**Baholash shakllari.** Ta'lif oluvchilarning amaliy mahorati oldindan belgilangan aniq mezonlar asosida baholash shakli yordamida baholanadi. Me'yorga asoslangan baholash shakli amaliy mahoratni baholash uchun to'g'ri kelmaydi, sababi har bir ta'lif oluvchi mustaqil ravishda aniq bir amaliy topshiriqni ishlab chiqarish standartlariga, aniq mezonlarga muvofiq holda bajara olishi talab qilinadi. Bunda qiyosiy baho qo'yish mumkin emas.

Bundan tashqari amaliy mahoratni baholash obyektiv va subyektiv baholashlarga bo'linadi. Obyektiv baholashda ikkita mezon qo'llaniladi: "Ha" yoki "Yo'q" ("O'tdi" yoki "O'tmadi").

Amaliy mahoratni baholash 2 turga bo'linadi:

Shakllantiruvechi (joriy va oraliq).

Yakuniy.

Shakllantiruvechi baholashning o'zi ham ikkiga bo'linadi: joriy va oraliq baholash.

Joriy baholash ishlab chiqarish ta'limi jarayonida amalga oshirilib, unda ta'lif oluvchilarda muayyan mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalar qay darajada shakllanayotganligi nazorat qilinadi hamda qaytar aloqalar ta'minlanadi. Bunda ta'lif oluvchilar oddiy mehnat operatsiyalarini bajarish orqali baholanadilar.

Oraliq baholashda ta'lif oluvchilarga bir nechta mehnat operatsiyalarini o'z ichiga olgan kompleks ishni bajarish topshiriladi va ishlab chiqarish ta'limi ustasi natijaga qarab, aniq mezonlar asosida ularni baholaydi.

Yakuniy baholash kurs yakunida, ta'lif oluvchilar real ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqarish amaliyotidan o'tganlaridan so'ng amalga oshiriladi. Buning uchun maxsus imtihon komissiyasi tuzilib, unga ishlab chiqarishdan muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar jalb etiladilar.

Yakuniy baholash natijalari diplom ilovasida qayd etiladi.

Ta'lif oluvchilarning xulq-atvorlarini baholash ham shakllantiruvchi hamda yakuniy baholashlarni o'z ichiga olib, buning uchun alohida baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Baholash usullari:

Amaliy topshiriq.

Modellashtirish.

Vazifa.

Loyiba.

Xulq-atvorni baholash usullari:

Amaliy topshiriq.

Modellashtirish.

Interv'yu.

Hisobot tayyorlash.

## **§10. Baholash jarayonida uchraydigan ba'zi xatoliklar**

Ijtimoiy - gumanitar fanlari bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiy tendentsiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning uchun kasbiy-pedagogik ta'lif chet el tajribalarini o'rganish uni ilmiy tushunish ilg'or g'oyalardan milliy ta'lif amaliyotida foydalananish ayniqsa dolzarb hisoblanadi. "Kadrlar tayyorlash sohasidagi pozitiv jahon tajribasini hisobga olish uzlusiz ta'lif va kadrlar tayyorlash tizimi barcha elementlariga taalluqli va uning rivojlanishi omillaridan biri hisoblanadi". Shu bilan birga milliy g'oyalalar va an'analarda qurilgan ta'lif har doim milliy rivojlanish masalalariga javob berishini esda tutish kerak.

Zamonaviy axborot texnologiyalariga: multimedia bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish bir alifboden ikkinchi bir alifboga o'tkazish kompyuterli test nazorati skaner texnologiyasi internet elektron pochta Web – texnologiya elektron virtual kutubxona masofadan turib ta'lim berish taqdim etish texnologiyasi sun'iy tafakkur tizimlari va boshqalar kiradi.

#### **Vebinar metodi**


Vebinar usulida dars seminar yoki konferentsiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan ta'lim oluvchilar bilan audio video (va avvalgi postlarda sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo'lsada butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o'zaro uzviy bo'lganmaydi, ya'ni alohida-alohida bir martalik darslar bo'ldi deyish mumkin.

#### **Muammoli metod**

Muammoli metodning mohiyati mash g'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va echishdan iborat bo'lib uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Muammoli ta'lim kontseptsiyasining asosiy tushunchalari "Muammoli vaziyat" "Muammo", "Muammoni topish" kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib o'zida subyektning aniq yoki qisman tushunib etilgan muammoni ifodalaydi uni bartaraf etish yangi bilimlar usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa shubhasiz muammoli vaziyat yechimini u qabul qilmaydi ya'ni muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi.

Fikrlash muammo mohiyatin tushunib etilishi ifodalaniishi mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi biroq barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin (12-rasm):



12-rasm. Muammoli o'qitish metodining tuzilmasi

Mazkur metoddan foydalanimish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni demak muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek burcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi.

Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi (16-jadval):

Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llash

16-jadval

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
O'quv materialiga oid tafovutlarni taklif etilishi; muammoli vaziyatlarni tuzish; muammoning mavjudligini aniqlab berish; -muammoli topshiriqlarni loyihalash	O'quv materiali mohiyatining anglab etilishi; muammoli vaziyat yuzasidan fikrlash; mavjud bilimlar va tajribani qayta tiklash; muammoli masalaga o'tkazish; topshiriqlarni bajarish

### **Evristik o'qitish metodi**

Evristik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. O'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani echiish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar.

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi (17-jadval):

Evristik metodi o'qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvechi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lismi taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sifr o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi.

#### **Evristik o'qitish metodini qo'llash**

17-jadval

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
o'quvchilarga o'quv muammosini taklif etish;	o'quv muammolari mohiyatini anglab olish;
o'quvchilar bilan hamkorlikda tadqiqot masalasini o'rnatish;	tadqiqot muammosini o'qituvchi va o'quvchilar bilan birgalikda o'rnatishda faoliyk ko'rsatish;
o'quvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish	ularni echiish usullarini topish; tadqiqiy masalalarni echiish usullarini o'zlashtirish

Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda soydalinish amaliyotchi o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra bir muncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzlusiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limga faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek buyuk didakt I.Ya.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Аванесов В.С. Современные методы обучения и тестового контроля знаний. – Владивосток, 1999. -125 с.
- 2.Бекоева М.И. Педагогическая квалиметрия в управлении качеством образования студентов современного вуза // Nauka-rastudent.ru. – 2015. No. 06 (18)[Электронный ресурс] – Режим доступа. – URL:<http://naukarastudent.ru/18/2760/>
- 3.Garry G. Azgaldov Alexander V. Kostin Alvaro E. Padilla Omiste The ABC of Qualimetry Fonts kindly provided by ParaType Inc Redero 2015.
- 4.Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. -T.: TASIS, 2001. 400 b.
- 5.Григорьева Е.В. Влияние «Я – концепции» учителя на его профессиональную компетентность в системе отношений «учитель-ученик»:Дис...к.псих.н. – Сочи, 2000. – 162 с.
- 6.Михайловская Т.А. Творческое саморазвитие будущих учителей в процессе реализации компетентностно-ориентированного подхода: Дис...к.п.н. – Тольятти, 2003. – 275 с.
- 7.Nuriddinov B., Haydarov B. va boshq. Baholash metodlari. –T.: UZB-1737 OTB loyihasi, 2003. -156 b.
- 8.Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. O'quv qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU, 2016 y. – 116 b.
- 9.Толипова Ж.О. Биология ўқитувчининг илмий-методик тайёргарлиги даржасини ортиришининг назарияси ва амалиёти. Монография. -Т.: Фан. 2005. -114 б.
- 10.Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. –T.: 2002. – 192 b.
11. Файзуллаева Н. Педагогик билимлар – ўқитувчи қасбий маҳоратининг низарий асоси // Uzlusiz ta'limga. – T.: 2006, . - b.144-148

- 12.Федюкин В.К. Квалитология: Учебное пособие. Часть 1. - СПб.: Изд-во СПбГИСУ, 2002.
13. Федюкин В.К. Основы квалиметрии. - М.: Изд-во «ФИЛИНЬ»,2004.
14. Фомин В.Н. Квалиметрия. Управление качеством. Сертификация. – М.: Ассоциация авторов и издателей «ТАНДЕМ». Изд-во «ЭКМОС»,2002.
- 15.Хасанбоев Ж, Х.Туракулов, М.Хайдаров, О.Хасанбоева. Педагогика фанидан изохли лугат.–Т.: Фан ва технология, 2008. - 480 б.
16. Юсупова Р.М. Аутопедагогическая компетентность как составляющая педагогического мастерства учителя./Р.М.Юсупова//Научный сборник МГПИ. - М.:МГПИ, 2010г. - С.45-48.
- 33.Shodmonova Sh.S. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar.-T: "Fan va texnologiya", Toshkent 2011
34. Тоҳтаходжаева М.Ҳ. ва б. Педагогика назарияси. – Тонкент: Iqtisodmoiya, 2010. – Б. 136-140.
- 35.Tolipov O ., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari.-Т.: 2005 и.
- 36.Успанов К.С. Теория и практика формирования профессионально значимых качеств у будущих учителей: автореф. ... док. пед. наук. – Алматы, 1999. – 43 с.
- 37.Цветкова Р.И. Мотивационная сфера личности современного студента: факторы, условия и средства ее формирования в процессе профессионального становления: автореф. дис. ... д-ра психол. наук. – Иркутск, 2006. – 49 с
- 38.Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар. – Тонкент: Фан, 2000. – 186 б.
- 39.Эриазарова Г.О. Педагогик маҳорат. Ўқув кўлланима. –Тонкент: ТТЕСИ, 2021. – 270 б.
- 40.Қўйсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириши технологиялари: Пед. фан. док. ... дисс. автореф. –Тонкент, 2019. –Б. 44.

### Xorijiy adabiyotlar

1. R.P. Pathak, Methodology of Educational Research. USA-2008 Atlantic
2. Futures for higher education: analysing trends. HIGHER EDUCATION: meeting the challenges of the 21<sup>st</sup> century. www.universitiesuk.ac.uk - ISBN: 978-1-84036-268-8 Universities UK January 2012- 128 b.
3. O'Neill, G. (2015). Curriculum Design in Higher Education: Theory to Practice, Dublin: UCD Teaching & Learning. ISBN 9781905254989 //www.ucd.ie - 189 b.
4. Albert Bandura, Richard Walters. Teenage aggression. Studying of influence of education and family relations. Publishing house: Eksmo-Press, Aprel-Press ISBN: 5-04-004214-0 Year of the edition:-2000
5. Karl Rogers, Jerome Freyberg. Freedom to study. ISBN: 5-89357-099-5, 0-02-403121-6. Year of the edition: 2002
6. Abraham Harold Maslow. Motivation and Personality. Year of the edition: 2011
7. Jan Kielven The artful science of instructional integration. adapted from: beyond monet. Barrie Bennett / Carol Rolheiser. 2001 p 14-15.
8. Prof. Dr. Thomas Deißinger, Dipl. Hdl. Silke Hellwig Structures and functions of Competency-based Education and Training (CBET): a comparative perspective. (University of Konstanz) ISBN 3-937235-49-3 second in December 2011 p 52.
9. Louis Cohen, Lawrence Manion and Keith Morrison. Research Methods in Education. Sixth edition. Simultaneously published in the USA and Canada. 2007. - p 242- 244.

### Internet resurslari

- 1.[http://en.wikipedia.org/wiki/Creative Commons](http://en.wikipedia.org/wiki/Creative_Commons); Case Studies on Technical and Vocational Education in Asia and the Pacific: An Overview. By A. R. Haas.Bangkok, UNESCO/PROAP, 1996. 28 pp.ISBN 974-680-057-4.;
- 2.<http://www.ictsi.ru> – ilmiy va texnik axborotlar xalqaro markazining serveri
- 3.<http://www.library.fa.ru> – RF hukumati qoshidagi MA kutubxonasi serveri.
- 4.<http://www.ictsi.ru> – ilmiy va texnik axborotlar xalqaro markazining serveri.(Turli bilimlar sohasi bo'yicha ma'lumotlar bazasiga kirish imkoniyatini va chet el milliy hamda xalqaro EHM tarmoqlariga kirishni ta'minlaydi).

5.<http://www.search.re.uz> – O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi.

**I.BOB. PEDAGOGIK KVALIMETRIYANING NAZARIY ASOSLARI**

§1. Pedagogik kvalimetriya fan sifatida.....	8
§2. Pedagogik kvalimetriya fanining maqsadi va vazifalari.....	28
§3. Pedagogik kvalimetriya fanining nazariy – metodologik asoslari.....	37
§4. Pedagogik kvalimetriya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.....	56

**II.BOB.TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK  
KVALIMETRIYA METODLARIDAN FOYDALANISH**

§1. Pedagogik o'Ichov metodlari va ularning turlari.....	64
§2. Pedagogik kvalimetriya metodlari vositasida test topshiriqlarini tuza olish, test o'tkazish jarayoni metodikasi.....	67
§3. Ta'lif jarayoni yakunida ta'lif oluvchi tomonidan hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar .....	87
§4. Amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulq....	91

**III.BOB. TA'LIM OLGANLIKNI NAZORAT QILISH**

§1. Ta'lif organlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari .....	116
§2. Baholashning asosiy tamoyillari .....	124
§3. Baholash va uning mohiyati .....	128
§4. O'quv maqsadlarini tafsiflash .....	132
§5. O'quv maqsadlari va ularning turlari .....	135
§6. Baholash mezonlari, shakkllari va turlari .....	140
§7. Me'yorga asoslangan baholash .....	144
§8. Kredit texnologiyasi bo'yicha bilimlarni baholash .....	150
§9. Amaliy mahoratni va xulq-atvorni baholash .....	160
§10. Baholash jarayonida uchraydigan ba'zi xatoliklar .....	163

Ernazarova Gulnora Oblaqulovna

**PEDAGOGIK KVALIMETRIYA FANINING  
NAZARIY – METODOLOGIK ASOSLARI***Monografiya*

*Muharrir N.Artikova  
Badiiy muharrir M.Odilov  
Kompyuterda sahifalovchi O.Fozilova*

*- 4695 /x -*

Bosishga ruxsat 15.11.2023-yilda berildi.  
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozি №2.  
«Times New Roman» garniturası.  
Shartli b.t. 10,75. Nashr hisob t. 16,0.  
Adadi 100 dona. 25-buyurtma.  
“FAN ZIYOSI” nashriyoti.  
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».